Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy (1878-1934) o'zining "Turkiy guliston yohud axloq" asarida inson tafakkurining amaliy va hayotiy ahamiyatini bayon etib, shunday yozadi: "Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqallas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni kilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, halollik haromdan, tozani murdordan ayirib berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilib, dunyo va ohiratda masud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kapidur" [18].

Abdurauf Fitrat (1886-1938) fikriga ko'ra, "fikr bilan aql insonni kamolotga yetkazuvchi omil bo'lib, o'qish, ta'lim olish, o'rganish shaxsni saodatga yetkazadi" Olim talabalar ma'naviyati, ularning kelajagi haqida qayg'urib, ularning ham ma'naviy ham jismoniy sog'lom, ilm-fan sohibi qilib kamol toptirish xususida ilg'or fikr bildirgan. Fitrat talabalarni o'z aziz Vatanini sevishtga, uni asrashga chorlab, shu Vatan hamda millat saodati, baxti, ravanaqi uchun fidoilik ko'rsatishga, sog'lom fikrlashga, jasoratli bo'lishga da'vat etgan [13].

Talabalarning tafakkurini va huquq insonparvarliklariga munosabatini tubdan o'zgartirish uchun ularda sanogen tafakkurni rivojlantirish muhim ijtimoiy-psixolog hodisa sifatida o'rganilishini taqozo etadi. Binobarin, insonning sog'lom tafakkuri, mustahkam iroda va e'tiqodi, halollik va adolat bilan hayot kechirishi, inson va ijtimoiy hayotga xos barcha hislat, fazilat, xususiyatlarga ega bo'lish, unga amal qilish kabi ma'naviy boylik majmui bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan pedagogik-psixologik g'oyalar tahlili asosida quyidagi xulosalarni keltirib o'tishimiz mumkin:

Shaxs tafakkurining rivojlanishi masalasi Sharq allomalarining pedagogik-psixologik qarashlarida "barkamol inson tarbiyasi" g'oyasi kontestida tahlil qilib berilgan;

Shaxsning sog'lom fikr yuritish qobiliyati ilmi bo'lish, ezgu fikrlash, dunyoqarashning keng bo'lishi, o'z axloqini tahlil qilish, ijtimoiy zukkolik sifatlarini bilan bog'liq tarzda namoyon bo'lishi pedagogik-psixologik manbalarda keltirib o'tilgan.

Muhokamava natijalar. Talabalik davrida kasbiy bilimlar bilan bog'liq tafakkurning shakllanishi muhim hisoblanadi. Tafakkurning o'zi esa o'ziga xos xususiyatga ega. "Tafakkur" tushunchasini tahlil etish asosida uning quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi xulosaga kelingan:

1) tafakkur voqea-hodisalarnianiq va umumlashgan holda aks ettirishga imkon beradi;

2) borliqni bilvosita aks ettiradi, ya'ni inson o'zlashtirgan tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qiladi.

3) ijodiy fikr yuritish va faoliyatdagi ijodkorlik inson tafakkurining muhim xususiyati hisoblanadi.

4) tafakkur til bilan bevosita bog'liq. Chunki, fikrlashni, tafakkur yuritishni ideal va ijtimoiy hodisa sifatida baholash mumkin. Sababi u faqatgina til vositasida reallikka aylanadi. Natijada, barcha uchun tushunarli va bevosita qabul qilinadigan, his etadigan shaklga kiradi va insonlar o'rtasida o'zaro fikr almashish vazifasini bajaradi [8].

Talabalarda ijobiy fikrlashni rivojlantirish (shakllantirish)ga qaratilgan bir qator holatlar mavjud:

hissiy, nerv-mushak, aqliy kuchlanishni kamaytirish;
surunkali charchoq va hissiy charchashning oldini olish;
salbiy hissiy tajribalarni yengishda yordam berish yoki ularni yengish usullarini o'rgatish;

avtomatik fikrlarni tanib olish usullarini o'rganish;

his-tuyg'ularingizni ochiq ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;

hissiy holatlarni tartibga solish;

turli sezgilardan lazzat olish qobiliyatini rivojlantirish;

diqqatni zavq keltiradigan voqealar, narsalar va harakatlarga qaratish.

Demak, til inson tafakkurining real voqelik kasb etishiga xizmat qiladi. Tafakkur va uning o'ziga xos xususiyatlari «sanogen tafakkur» va patogen tafakkur tushunchalari mazmunini aniqlashtirish imkonini beradi.

Har bir inson nafaqat o'zining his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog'liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko'rsatish adi: sanogen va patogen fikrlash. Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi, lekin o'z-o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o'zini-o'zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Sanogen tafakkur sog'lomlashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi va ruhlantiruvchi fikrlash tarzi. Shuningdek, sanogen fikrlash shakli bu ma'lum bir algoritmdan foydalangan holda fikr yuritish va o'rganishning shaxsiy patogen (nosog'lom fikrlash) stereotiplarini qayta ko'rib chiqish va tartibga keltirishdan iborat bo'lib, muayyan faoliyat davomida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni to'g'ri aks ettirish qobiliyatidir. Har bir kishi hayotiy faoliyati davomida tez-tez astenik (yoqimsiz) tuyg'ularni boshdan kechiradi yoki salbiy hissiy kechinmalarni vujudga keltiradigan noqulay vaziyatlarga duch keladi: xafagarchilik, ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlik, umidsizlik, sabrsizlik, aybdorlik va boshqalar. Ba'zilarimiz shu kabi haqiqiy his-tuyg'ular oldida o'zimizni yo'qotib qo'yamiz va aqliy kuchimiz zaiflashadi. Boshqalar esa - o'zlari bilan tez kelishib, bunday noqulay holatlarni tez yengadi va hayotda munosib o'rinni topishga qodir.

Ijobiy fikrlash - bu hayotga, o'ziga va sodir bo'layotgan voqealarga ruhiy munosabatning bir turi hisoblanadi.

Agar talabalarda ijobiy fikrlash rivojlangan bo'lsa, hayot baxtli, osoyishta va tabassumlarga to'la ko'rinadi. Bu, shuningdek, yashash uchun zarur bo'lgan narsani topish uchun fikrni ochishga imkoniyat yaratadi.

Insonning kundalik tafakkuri patogen bo'lib, u o'zi bilan, atrof-muhit bilan, sog'liq uchun barcha oqibatlar bilan hissiy stress va ziddiyatni keltirib chiqaradi. Bu patologik emas, balki juda oddiy fikrlash, ammo bu patogendir.

Sanogenik fikrlash jarayonlarining xilma-xilligini kengaytirish va fikrlash talabalarining ichki imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi, shuningdek, hissiyotlarni kamaytiradigan yangi dasturlarni ishlab chiqishga qo'l keladi. Sanogenik fikrlash doirasini kengaytirish uchun talabalar ko'proq o'zlarida ilmiy dunyoqarashni kengaytirishi va keyin ma'lum bir tuyg'u haqida o'ylash odatini rivojlantirishlari lozim.

Sanogen tafakkur bo'yicha keltirilgan mulohazalar va berilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda uning quyidagi o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ajratildi:

- O'z fikrlarini tashqi ifodalay olish, ya'ni eksteriorizatsiyaning namoyon bo'lishi;
- Fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon bo'lishi;
- Fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- Fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;
- Fikrlashda shaxsiy refleksiya va mustaqillikning namoyon bo'lishi;
- Fikriy harakatlarning uyg'un amalga oshirilishi (eshitish, nutq va harakat);
- Fikrlashdagi moslashuvchanlik;
- Fikrlash jarayonida o'z-o'zini ishonitirish va nazoratning yuqoriligi;

Fikrlash jarayonida emotsionallik va aqliy yondashuvning uyg'unligi

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar, nazariy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

Shaxs tafakkurining rivojlanishi masalasi Sharq allomalarining pedagogik-psixologik qarashlarida "barkamol inson tarbiyasi" g'oyasi kontestida tahlil qilib berilgan; Shaxsning sog'lom fikr yuritish qobiliyati ilmi bo'lish, ezgu fikrlash, dunyoqarashning keng bo'lishi, o'z axloqini tahlil qilish, ijtimoiy zukkolik sifatlarini bilan bog'liq tarzda namoyon bo'lishi pedagogik-psixologik manbalarda keltirib o'tilgan;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aliqulov. X. Falsafiy meros va ma'naviy axloqiy fikr rivoji. Falsafa va huquq instituti, 2009. – 59 b.

2. Крайнова Е. Об изменчивости психических функций в процессе развития ребенка. – "Вопросы психологии", 2002. -№3. – С. 16–22.

3. Марцинковская, Т.Д. Психология развития: Учебник / Т.Д. Марцинковская.- М.:Academia,2018.-256с.

4. Елмуратова, А. (2022). Изучение морального самосознания студентов будущих спортивных педагогов. In Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 522-524).

5. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.

6. Jalgasbaevich, J. T. (2023). Emotional stability in athletes as the basis of a special psychological preparation process. epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(7), 143-146.

Olimov Temur Hasanovich,
*Osiyo xalqaro universiteti professori, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PHD)*
Kenjayeva Gulhayo Alisher qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritiladi. Xususan, ta'lim jarayonida o'quvchilarning erkin fikr bildirish, muammoli vaziyatlarni hal etish, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni tahlil qilinadi.

Maqolada "aqliy hujum", "klaster", "insert", "BBB" (bilaman – bilmoqchiman – bildim) kabi metodlarning dars jarayonida qo'llanishi orqali o'quvchilarning mustaqil ishlash, o'z fikrini asoslab berish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning izlanish faoliyatini faollashtirib, ularni mustaqil qaror qabul qilishga undashi ilmiy asosda yoritiladi.

Bundan tashqari, o'qituvchining pedagogik mahorati, darsni to'g'ri rejalashtirishi, o'quvchilarga individual yondashuvi hamda rag'batlantirish usullarining mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortishi, ularning ijodiy va mantiqiy tafakkuri rivojlanishi, natijada ta'lim samaradorligi oshishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, boshlang'ich sinf, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion ta'lim, muammoli vaziyat, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, aqliy hujum, klaster metodi, insert usuli, BBB texnologiyasi, AKT, o'quv jarayoni, pedagogik mahorat, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются теоретические и практические аспекты развития самостоятельного мышления у учащихся начальных классов на основе педагогических технологий. Особое внимание уделяется роли интерактивных методов, инновационных подходов и информационно-коммуникационных технологий в формировании у учащихся навыков свободного выражения мыслей, анализа, решения проблемных ситуаций и принятия самостоятельных решений.

В статье анализируются такие методы, как «мозговой штурм», «кластер», «инсерт», «ЗХУ» (знаю – хочу узнать – узнал), и их значение в развитии самостоятельной деятельности учащихся, умения аргументировать свою точку зрения и делать выводы. Также раскрывается значение проблемного обучения, которое активизирует познавательную деятельность учащихся и способствует развитию их исследовательских навыков.

Кроме того, освещается роль педагогического мастерства учителя, правильного планирования урока, индивидуального подхода к учащимся и методов мотивации в развитии самостоятельного мышления. Обосновывается, что эффективное использование современных педагогических технологий повышает интерес учащихся к обучению, развивает их творческое и логическое мышление, а также способствует

повышению качества образования.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, начальное образование, педагогические технологии, интерактивные методы, инновационное обучение, проблемное обучение, критическое мышление, творческое мышление, мозговой штурм, кластер, инсерт, ЗХУ, ИКТ, учебный процесс, педагогическое мастерство, эффективность образования

Annotation. *This article examines in detail the theoretical and practical aspects of developing independent thinking skills in primary school students through the use of pedagogical technologies. Particular attention is paid to the role of interactive methods, innovative approaches, and information and communication technologies in fostering students' ability to express their ideas freely, analyze information, solve problem situations, and make independent decisions.*

The article discusses the application of methods such as brainstorming, clustering, INSERT, and KWL (Know – Want to know – Learned), highlighting their importance in developing students' independent learning skills, ability to justify their opinions, and draw conclusions. It also explores the significance of problem-based learning, which enhances students' cognitive activity and promotes their research and inquiry skills.

Furthermore, the role of the teacher's pedagogical competence, effective lesson planning, individualized approach, and motivational strategies in developing independent thinking is emphasized. The study demonstrates that the effective implementation of modern pedagogical technologies increases students' interest in learning, enhances their creative and logical thinking, and improves the overall quality of education.

Key words: *independent thinking, primary education, pedagogical technologies, interactive methods, innovative learning, problem-based learning, critical thinking, creative thinking, brainstorming, clustering, INSERT method, KWL strategy, ICT, learning process, teaching competence, educational effectiveness*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ularning mustaqil fikrlash, erkin qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi bu jarayonning eng muhim poydevori hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda o'quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi va bilim olishga bo'lgan munosabati shakllanadi. Shu bois boshlang'ich ta'limda mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirgi globallashtirish va axborotlashuv davrida o'quvchilardan faqat tayyor bilimlarni egallash emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va amaliyotda qo'llay olish talab etiladi. Bu esa ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etadi. An'anaviy o'qitish usullari ko'proq o'qituvchi faoliyatiga asoslangan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Natijada o'quvchilar mustaqil izlanadi, o'z fikrini erkin ifodalaydi va muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi.

Boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. "Aqliy hujum", "klauster", "insert", "BBB" kabi metodlar o'quvchilarni faol fikrlashga, dars jarayonida bevosita ishtirok etishga va o'z bilimlarini mustaqil ravishda boyitishga undaydi. Bunday metodlar orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki o'z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini tinglash va tahlil qilish kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Multimediali darslar, elektron resurslar, interaktiv platformalar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularni

mustaqil o'rganishga undaydi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda jamiyat har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, tashabbuskor va ijodkor shaxslarni talab etmoqda. Bunday shaxslarni shakllantirish esa aynan boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlanadi. Shu sababli pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash tushunchasi.

Mustaqil fikrlash - bu o'quvchining o'z bilim va tajribasiga tayanib, yangi g'oyalar yaratishi, muammolarni hal etishi va o'z nuqtai nazarini asoslab bera olish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda bu jarayon asta-sekin shakllanadi, chunki ular hali hayotiy tajribaga to'liq ega emas. Shu sababli o'qituvchi ularni bosqichma-bosqich fikrlashga o'rgatishi kerak.

Mustaqil fikrlash faqatgina savollarga javob berish bilan cheklanmaydi. U quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- tahlil qilish (ma'lumotni qismlarga ajratish),
- solishtirish (o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash),
- umumlashtirish (xulosa chiqarish),
- baholash (to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash).

Boshlang'ich ta'limda mustaqil fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchi shaxs sifatida shakllanadi. U o'z fikrini erkin ifoda eta boshlaydi, boshqalarning fikriga hurmat bilan qaraydi va muammolarni hal qilishga intiladi.

Mustaqil fikrlashning psixologik-pedagogik asoslari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari ularning fikrlash jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Bu yoshda bolalarda:

- diqqatning beqarorligi,
- qiziqishning tez o'zgarishi,
- obrazli tafakkurning ustunligi kuzatiladi.

Shuning uchun o'qituvchi darslarni qiziqarli, interfaol va ko'rgazmali tarzda tashkil etishi zarur. Masalan, rasm, video, o'yin elementlari orqali berilgan ma'lumot o'quvchi ongida tezroq va mustahkamroq o'rnashadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi shartlar muhim:

- o'quvchiga erkin fikr bildirish imkoniyatini berish;
- xatolarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish;
- rag'batlantirish va motivatsiyani kuchaytirish;
- individual yondashuvni ta'minlash.

Agar o'qituvchi faqat tayyor bilimni berish bilan cheklansa, o'quvchi passiv bo'lib qoladi. Aksincha, savol berish, muammo qo'yish orqali ularning tafakkuri faollashtiriladi.

Boshlang'ich ta'limda mustaqil fikrlashning ahamiyati

Mustaqil fikrlash boshlang'ich ta'limning eng muhim natijalaridan biridir. Chunki aynan shu bosqichda bolaning bilim olishga bo'lgan munosabati shakllanadi.

Mustaqil fikrlashning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quvchilar bilimni chuqur va ongli o'zlashtiradi;
- muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladi
- ijodiy fikrlash rivojlanadi;
- o'z fikrini asoslab berish ko'nikmasi shakllanadi.

Bundan tashqari, mustaqil fikrlash o'quvchining kelajakdagi muvaffaqiyati uchun ham muhim omil hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda faqat bilimga ega bo'lish yetarli emas,

balki uni qo'llay bilish, yangilik yaratish ham talab etiladi.

Pedagogik texnologiyalar va ularning o'rni.

Pedagogik texnologiyalar - bu o'qitish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uni samarali va natijador qilishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. U faqat metodlar yig'indisi emas, balki aniq maqsad, natija va baholash mezonlarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni o'zgartiradi. Endi o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi rolini bajaradi. O'quvchi esa faol ishtirokchi sifatida bilimni mustaqil egallaydi.

Bu texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- darsni qiziqarli va samarali tashkil etish;
- o'quvchilarni faol fikrlashga undash;
- individual va guruhli ishlarni uyg'unlashtirish;
- ta'lim sifatini oshirish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar turlari.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida turli pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ularning har biri mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi:

Interfaol metodlar - o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladi (savol-javob, munozara).

Muammoli ta'lim - o'quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi.

Loyiha metodi - o'quvchilarni tadqiqot olib borishga o'rgatadi.

O'yin texnologiyalari - ayniqsa boshlang'ich sinflarda samarali bo'lib, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) - darsni zamonaviy va interaktiv qiladi.

Har bir texnologiya o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni to'g'ri tanlash va qo'llash o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Pedagogik texnologiyalar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish usullari.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchi turli metodlardan kompleks foydalanishi zarur. Eng samarali usullar quyidagilar:

- Aqliy hujum - qisqa vaqt ichida ko'plab g'oyalar ishlab chiqiladi.
- Klaster - tushunchalarni tizimlashtirishga yordam beradi.
- "Insert" usuli - o'quvchi o'qigan matnini tahlil qiladi.
- Debat (bahs-munozara) - o'z fikrini himoya qilishni o'rgatadi.
- Rol o'ynash - o'quvchilarni turli vaziyatlarga moslashishga o'rgatadi.

Bu usullar orqali o'quvchilar faqat bilim olmaydi, balki fikrlashni o'rganadi. Ular o'z fikrini dalillar bilan asoslash, boshqalarning fikrini tinglash va umumiy xulosaga kelish ko'nikmasini egallaydi.

Amaliy qo'llash va samaradorlik

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchilar darsda faol bo'ladi, mustaqil ishlashga intiladi.

Samaradorlik quyidagi mezonlar orqali aniqlanadi:

- o'quvchilarning bilim darajasi;
- mustaqil ishlash ko'nikmasi;
- ijodiy fikrlash darajasi;
- darsdagi faollik.

Agar darsda zamonaviy texnologiyalar qo'llansa, o'quvchilar bilimni oson o'zlashtiradi va uni amalda qo'llay oladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash misollari.

Boshlang'ich sinf darslarida pedagogik texnologiyalarni quyidagicha qo'llash mumkin:

Ona tili darsida: matn ustida ishlash, savollar tuzish, “Insert” usuli orqali tahlil qilish.

Matematika darsida: muammoli masalalar berish, turli yechimlarni topish.

Tabiatshunoslik darsida: kuzatishlar, tajribalar va kichik loyihalar tashkil etish.

O‘qish darsida: rolli o‘yinlar orqali matn mazmunini ochib berish.

Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. O‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki uni amalda qo‘llashni ham o‘rganadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish - zamonaviy ta‘limning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu yoshdagi bolalar bilim olish jarayonida faqat tayyor javobni qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, o‘z fikrini shakllantira olishga intilishi kerak. Mustaqil fikrlashning rivojlanishi bolaning ijodkorligini, tahliliy qobiliyatini, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur obrazli va sezgi orqali rivojlanadi, shu sababli dars jarayonini interfaol va ko‘rgazmali usullar bilan tashkil etish muhimdir. Pedagogik yondashuvda esa o‘qituvchi o‘quvchini faollikka jalb qiluvchi, xatolarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni qo‘llovchi va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi lozim. Shu tarzda, o‘quvchida mustaqil fikrlash qobiliyati asta-sekin shakllanadi va chuqurlashadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar mustaqil fikrlashni rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Muammoli ta‘lim, loyiha metodi, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularda mustaqil va ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar o‘quvchining o‘z fikrini asoslab berish, boshqalar bilan hamkorlik qilish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Amaliyotda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, darslarda faollikni kuchaytirish va ularni mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi. Masalan, ona tili darsida matn tahlili, matematika darsida muammoli masalalar, tabiatshunoslik darsida esa loyiha ishlari orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki uni amalda qo‘llashni ham o‘rganadi.

Shu bilan birga, mustaqil fikrlashni rivojlantirish pedagogik jarayonning sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik va mas‘uliyatni ham shakllantiradi. Bu esa ularni nafaqat maktab davrida, balki kelajakdagi hayotiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish pedagogik texnologiyalardan oqilona va tizimli foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon bolalarning shaxs sifatida to‘liq rivojlanishi va hayotiy muammolarga moslashuvchan bo‘lishini ta‘minlaydi. Shu sababli, har bir o‘qituvchi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida samarali qo‘llashga intilishi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullaev S. “Pedagogik texnologiyalar nazariyasi” – Toshkent: Fan va ta‘lim, 2015. – 180 bet.
2. Karimova D. “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 200 bet.
3. Rahmonova L. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” – Toshkent: Pedagogika, 2015. – 190 bet.
4. Islomov N. “Boshlang‘ich sinfda interfaol metodlar” – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 175 bet.

Baratova Malika Ulug'bek qizi,
Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Sharipova Sunbula Ahad qizi,
Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

“LISON UT-TAYR” DOSTONIDA YETTI VODIY TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir Hazrat Alisher Navoiyning falsafiy-irfoniy dostoni bo'lmish “Lison ut-tayr” asaridagi asosiy ramziy ma'no yuklatilgan yetti vodiy talqini, shuningdek, asarda keltirilgan ba'zi obrazlarning mohiyati, tasavvufiy talqini hamda inson kamolotidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: “lison ut-tayr”, yetti odiy, talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, fano.

Abstract. This article examines in detail the classification and interpretation of the seven valleys, which are the main symbolic meaning in the philosophical and mystical epic of the great poet and thinker Hazrat Alisher Navoi, “Lison ut-tayr”, as well as the development of these images, what the seven valleys really are, and what the work can give to a modern person.

Key words: valley, demand, love, enlightenment, aspiration, monotheism, admiration, fano.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются классификация и интерпретация семи долин, являющихся основным символическим значением в философско-мистическом эпосе великого поэта и мыслителя Хазрата Алишера Навои «Лисон ут-тайр», а также развитие этих образов, что представляют собой семь долин на самом деле и что это произведение может дать современному человеку.

Ключевые слова: Долина, потребность, любовь, просветление, стремление, монотеизм, восхищение, фано.

Kirish. Musulmon mintaqa adabiyotining eng yirik vakili, ilm ma'rifatining ulkan homiysi bo'lmish Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) dostoni hayotining so'nggi yillarida ya'ni 1499-yilda yozilgan. Asar Iloh, Borliq va Inson munosabatlarini teran aks ettiruvchi falsafiy, ilohiy-ma'rifiy dostonidir. Asarda Alisher Navoiy o'zining so'fiyona-falsafiy qarashlarini ko'p masal va hikoyatlar, ramziy o'xshatma-tashbehtar keltirilib atroflicha sharhlab bergan. “Lison ut-tayr” mashhur forsiy mutafakkir, shoir va tasavvuf homiysi Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridan ilhomlanib yozgan. Shuningdek, asarda ishtirok etuvchi personajlar ham ramziy timsollardir. Ular haqida adabiyotshunos Najmiddin Komilov shunday deydi: “Hudhud – pir timsoli bo'lsa, o'ttiz qush solik muridlar timsolidir. U yerda tasvirlangan yeti vodiy esa solik ruhining yeti xil tovlanuvchi manzarasi – Ilohga vosil bo'lish bosqichlari mma'rifat zinalarini bildirib keladi. [2, 62-b.]. “Lison ut-tayr”da oltmishdan ortiq turli xil hikoyatlar keltirilga bo'lib, ularda tariqat va shariat, ilm-u irfon, inson axloqiga oid masalalar ustida fikr yuritiladi. Hikoyatlar xalq og'zaki ijodiyoti xazinasidan olingan va ulardan kelib chiqadigan xulosalar so'fiyona ma'nolar talqiniga bevosita moslashtirilgan. Masal va hikoyatlar axloqiy-ma'rifiy mavzular, chunonochi, nafsning yomonligi, dunyoga mehr qo'yishning arzimasi, xasislik falokati,



saxiylik sharofati, saodat, vafo, qalb halovati va hokazolar haqida bahs yuritadi. Alisher Navoiy ushbu asarida kuylagan reallik ilohiy sifatlarning mazhari va jilosidir. Shuning uchun ham bu doston ko'p ma'noli, har bir ifoda yetti qavat parda ichiga yashiringandir.

Tadqiqot va muhokamalar. Asarda jahon qushlarining Hudhud boshchiligida Simurg'ni izlab yetti vodiyan o'tishi va bu yetti vodiyning har biri ming tuman riyozatdan iborat ekanligi ma'lum bo'la turib, o'zining asl maqsadi oldida sobitlik bilan harakat qilishi bugungi kun yosh avlodlariga beqiyos namuna bo'la oladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Dostonda dunyo qushlari yo'l boshlovchi, pir – Hudhuddan Simurg'ni qanday topishlari, u yo'lning mashaqqati va qiyinchiliklari haqida so'rganlarida shunday javob beradi:

Lekin ul vodi y nihoyatdin uzun, / Qa'tida ofat nihoyatdin fuzun.

Umlar urmoq kerak tinmay qanot, / Necha karkas umricha bo'lsa hayot.

Yo'lda daryolardurur xunobdin, / Demayin xunob – zahri nobdin.

Tog'lardurur tortqan gardunga tig', / Tig'i barcha qon to'karg'a bedarig'.

O't tutashqon dashtlar har sori fosh, / Tortibon yolinlari gardung'a bosh.

Beshalar muhlik balolardin to'lo, / Shoxi-anduhi taab, bargi balo.

Ham havosinda bulutlar charx urib, / Boshqa yomg'ir o'rnida tosh yog'durub.

Hudhud bu yo'lning qiyinchiliklarini tasvirlab bergandan so'ng, so'zlariga asos qilib Shayx San'on hikoyatini keltiradi. Hikoyatda keltirilishicha, Shayx San'on uzoq yillar davomida taqvo va ibodat bilan mashhur bo'lgan, ko'plab muridlar yetishtirgan ulug' zot sifatida tasvirlanadi. U ilmda ham, amalda ham komillikka erishgan deb hisoblanadi. Biroq bir kuni u tushida g'ayrioddiy bir manzarani ko'radi va shu tush ta'sirida Rum tomon yo'l oladi. Aynan shu yerda u nasroniy qizga oshiq bo'lib qoladi. Bu muhabbat oddiy tuyg'u emas, balki uning butun hayotini o'zgartiradigan kuchli sinovga aylanadi. Qizning roziligini olish uchun Shayx San'on o'zining avvalgi e'tiqodi va mavqeidan voz kechishga majbur bo'ladi: u may ichadi, butga sajda qiladi, hatto cho'chqa boqishga ham rozi bo'ladi. Bu holat tashqi tomondan qaraganda uning tubanlashuvi kabi ko'rinso-da, aslida bu tasavvufiy yo'ldagi eng og'ir sinov - o'zlikdan kechish, nafsni sindirish jarayonining ifodasidir. Hikoyaning davomida Shayxning sodiq muridlari uning bu holatidan iztirob chekib, duo va iltijo bilan uni yana to'g'ri yo'lga qaytarishga harakat qiladilar. Nihoyat, ilohiy rahmat bilan Shayx San'on o'z asl maqomiga qaytadi. Eng muhim jihati shundaki, nasroniy qiz ham bu voqealar ta'sirida haqiqatni anglab, imon keltiradi.

Navoiy hikoyat so'ngida ishq talqiniga alohida tavsif berib, uning ajoyibotlari ko'pligini, Shayx Sa'non hikoyati esa bu ajoyibotlarning bir ushug'i, haqiqiy kamolot yo'li to'g'ri va tekis emasligini ta'kidlaydi. Ishaq ko'pincha insonni sinovlar, adashishlar, iztiroblar orqali yetuklikka olib boradi. Zohiriy qarashda xato yoki yo'ldan ozish bo'lib tuyulgan holatlar ham aslida insonni o'z "men"idan xalos etib, uni Haqiqatga yaqinlashtiruvchi vosita bo'lishi mumkinligini ochib beradi:

Ishaq aro bu nav' o'lur a'juba ko'b,

Ko'rguzub a'jubaliq mansuba ko'b.

Ishaq bahredurki yo'q poyon anga.

Har hubobi gunbadi gardon anga

Olamedur ishq, lekin bas vase',

Toramedur ishq, lek asru rafe'.

Charxni aylar Suhol anda nigun,

Pashsha aylar anda Anqoni zabun.

Ishaq o'tidin yetsa nogoh bir sharar,

Yetkurur yuz barqdin ko'prak zarar

Bahrdin har qatra aylab behijob,

Dahrni seli balo birla xarob

Ishg tig'i gilsa yuz ming gatliom
Ne qasosu ne diyat, ne intiqom
Ishqdin ko'rgach yuz ofat jonig'a,
Chora tutmoq bo'ldi minnat jonig'a
Ko'r taajjub ishqning bo'stonidin,
Obu rangi begunahlar qonidin
Ursa bir kirpik tuman ming jong'a nesh,
Bilki budur hinduyi qotilg'a kesh.
Zoyil aylar nuqtai zoyid misol!
Yuz tuman ko'z mardumin bir turfa xol
Ishq mulkida gadou shoh bir,
Dayr ichida rahbaru gumroh bir bir.
Ishq aro dardu balodin o'zga yo'q.
Zulmu bedodu jafodin o'zga yo'q. [1, 124- bet]

Hazrat Navoiy bu hikoyat orqali butun insoniyatga shunday ibrat beradiki, har biri din peshvolari Junayd Bag'dodiy, Boyazid Bistomiylarga teng keladigan yuzlab shogirdlarni yetishtirgan, himmati oldida arshi a'zam ham past turadigan, bir duosi bilan ofat dudidan qorayib ketgan olam ham yorishib ketadigan butun insoniyatning oliysi Shayx Sa'nonniki, ishq shunchalik shaydo etdi, uni turli ko'ylarga soldi, olam ahli ichra rasvo qilgani holda hech kim bu kabi ishqning turli o'yinlaridan, xarobliklardan, dard-u balo, sitam-u jafolardan, shayton izni-yu nafs qutqularidan omonda emasligini, insoniyatni esa har damda ogoh bo'lishlikka da'vat etadi.

Shayxni andoqki shaydo etti ishq
Olam ahli ichra rasvo etti ishq.
So'ngra mendin solmadi g'avg'osini,
Kimsa ko'ngli mulkig'a yag'mosini.
Holim andin kimsa gar ortuq demas,
Ortuq ermas, bo'lsa ham o'ksuk emas [1,125 bet]

Shayx San'on qissasi shu ma'noda yetti vodiy g'oyasining tirik timsolidir: unda talabning uyg'onishi, ishqning alangasi, ma'rifat iztirobi, istig'no orqali poklanish, tavhidni anglash, hayratga tushish va nihoyat, fano holatiga yetish bosqichlari mujassam. Eng muhim saboq esa shundaki, insonni uning tashqi ko'rinishi yoki bir lahzalik holati bilan emas, balki butun ruhiy yo'li va qalb pokligi bilan baholash zarur.

[Asosiy Xulosa sal boshqacha, o'sha hikoyatning oxirida berilgan]

Hudhud bu hikoyatdan so'ng yetti vodiy – Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat va Faqr-u Fano vodiylarini bosib o'tish kerakligini ta'kidlaydi va ularning tavsifi va sifatlarini keltiradi.

Avvalgi vodiy Talab vodiysibo'lib, bu bosqichda inson qalbida izlanish, haqiqatni anglash istagi uyg'onadi. Bu oddiy qiziqish emas, balki butun borliqni anglashga qaratilgan kuchli ichki ehtiyojdir. Inson aynan shu bosqichda o'z hayotining ma'nosi haqida chuqur o'ylay boshlaydi va ruhiy safarga ilk qadamni qo'yadi. Ushbu vodiyning tavsifidan so'ng, talab vodiysiga taalluqli "Shohning bir zebo o'g'li va unga oshiq bo'lgan ikki xasta hikoyati" keltiriladi. Hikoyatda keltirilishicha, bir qudratli podshohning zebo o'g'li bor bo'lib, butun olam unga oshiq-u shaydo bo'lgan. Bir kuni u sahro kengliklarini aylanib qaytish uchun yo'l oladi. Dasht uzra yuz tuman majnun uning ishq shiddatidan beqaror edi. Nogohon shahzoda elga nazar solganda ikki xasta oshiqi zorga ko'zi tushdi. Ularni shahzoda qasriga olib kelib, borini zindonga, boshqasini o'ziga itboqar xizmatiga tayinlaydi. Ularning biridan "Azob-uqubat ichra holingiz qanday?" deb so'ralganda ular shunday javob beradilar:

Bu dedi: "Mehnat degan qaysi bo'lur,

Komu rohatdur, mashaqqat ne bo'lur
Menki ishq ko'nglum ichra to'lg'ali--
Rozi erdim ko'yida it bo'lg'ali.
Garchi itlarga mulozim bo'lmisham
Lek ul xayl uzra hokim bo'lmisham"
Ul dedikim: "Ishg etib ko'nglunga zo'r,
Rozi erdimkim maqomim bo'lsa go'r.
Garchi holo band aromen ustuvor,
Vaslidin ko'nglum erur ummidvor" [1, 202bet]

Shahzoda ularning bu so'zlarini eshitgach, ularning ikkalasini ham eng yaqin mahramlariga aylantiradi. Hikoyaning xulosasi shuki, ular o'z istaklari - talablariga sodiq va ishq yo'siniga munosib bo'lganligi sababli shunday ulug' mukofotga sazovor bo'ldilar. Shuningdek, Ushbu hikoyat insonlarda o'z maqsadi yo'lidagi riyozatlatiga sabrlilik, sodiqlik va vafo fazilatlarini tarbiyalaydi.

Chun talabda sidqdin erdi asar,
Oqibat bu nav' toptilar samar" [1, 203 bet]

Hikoyatning xulosasi shuki, ishq haqiqiy bo'lgan inson uchun shu yo'ldagi riyozatlar azob emas, balki turgan-bitgani rohat ekanligi, oshiq o'z talablarida sadoqatli bo'lsagina asl saodatga erisha olishini ta'kidlaydi.

Talab vodiysidan o'tgandan so'ng, Ishq vodiysiga qadam qo'yiladi. Bu vodiyan omon o'tish uchun inson ishq o'ti ichra bor-yo'g'ini o'rtashi lozimligi keltiriladi. Najmiddin Komilovning fikricha, "Ishq insonni ma'rifatga olib boradigan, insonni moddiy asosdan poklovchi, xoli etuvchi muqaddas olov. Ishq bizning vujudimizni kuydirib, ruhimizni musaffo etadi, bizda tajrid (poklanish) va tafrid (yakkalanish) yuz beradi" [2, 43-b.]. Navoiy ishq vodiysining tavsifidan so'ng "Asmaiy hikoyati"ni keltiradi. Unda Asmaiy haj sari ketayotib bir manzilda chashma va uning boshida xat yozilgan bir toshni ko'radi. Xat "Agar bir kishi ishqqa mubtalo bo'lib, ishq uning sabr-u qarorini olgan bo'lsa, ne qilsin" degan mazmunda yozilga edi. Asmaiy esa bu savolga javoban shunday so'zlarni yozadi: "Kimki bu halokatli girdobga tushib, undan pok chiqmoqchi bo'lsa, o'zi tushgan yo'ldan qo'rqmasin". Asmaiy ertasiga yana shu joyga keladi va bitikda kotibning qalbidagi muhabbat shiddati tez ekanligini, toqati toq bo'lsa, ehtiyoj sezsa, bunday vaqtda nima qilish kerakligi haqida so'ragan edi. Nasihatgo'y esa "Agar mening nasihatlarimdan u notavon kishi o'z maqsadiga erishmagan bo'lsa, o'lsin va ishq o'tidan o'zini xalos qilsin" deya pand berib yo'lida davom etadi. Asmaiy oshiq yana nima deb xitob qilganini bilmoqchi bo'lib chashma yoniga keladi va u bergan o'git tufayli oshiq o'z jonini tark qilib, uni hijron azobidan qutqargan, Ishq aro go'yo o'zidan ketib yotgan edi. Hikoyatda shu narsa ayonki, oshiq bu yo'lda o'z jismini tark etishi va bu ish u uchun zarracha ham arzimas ekanligidir.

Uchinchi vodiy Ma'rifat vodiysidir va bu shunday vodiyki, uni yuz ming turli yo'llar kesib o'tishi, lekin ulardan biri boshqasiga sira o'xshamasligi tasvirlanadi. Ma'rifat vodiysi vasfidan so'ng "Bir guruh ko'rlar va fil hikoyati" bayon etiladi. Bu hikoyatning xulosasi shuki, ko'rlarning har biri filning bir a'zosini paypaslab, u haqida bilim hosil qilgani va ularning barchasi filning sifatlarini aytganidek, bu vodiya ham inson turli xil yo'llardan borsa ham bu yo'lga kirganlarning hammasida maqsad bittadir. Navoiy Ma'rifat vodiysining orifona talqinini shunday asoslab beradi: "Unda pashsha ham, fil ham yo'lovchi, unda pashsha ham Jabroil ham uchadi. Muso ham, Firavn ham unda yo'lovchi, ammo bilgilki, ularning ikkalasi birdek emas. Mahdiy va Dajjol ham bu yo'ldan o'z mazhablarida, biroq Isoni u mingan uloqqa tenglashtirib bo'lmaydi. Ahmad ham, Abu Jahl ham u yerda ko'rinadilar, bunisi zulmatga tushgan bo'lsa, unisi nurga g'arq bo'lgandir. Bu yerda barcha

yaxshi-yomon sayr etadi; unda mo‘min ham, kofir ham yo‘lovchilik qiladi. Agar bu yerda otashparastlar o‘z Lotiga talpinsalar, Ka‘ba ahli – musulmonlar esa yolg‘iz Allohga sig‘inadilar. Kufr ahli Lotni ogoh deb aytasalar, lekin islom ahli “illolloh” deb aytadilar” [4, 409 b.]

To‘rtinchi vodiy Istig‘no (Ehtiyojsizlik) vodiysi bo‘lib, Navoiy uning ta‘rifini shunday boshlaydi:

Vodiy ondin so‘ngra Istig‘nodurur, / Onda teng a‘lovu gar adhodurur.

Har dam Istig‘no yeli bo‘lg‘onda tez, / Sohibon ofoq aro yuz rustaxez.

Yog‘ib Istig‘no sohobidin yog‘in, / Yuz tuman olamni suv eltur sog‘in.

Yetti daryo onda bir qatra mo‘tar, / Yetti ko‘k xashxosh chog‘lig‘ muxtasar.

Yetti do‘zax onda bir uchqun kibi, / Sakkiz uhmog‘ onda bir shudring kibi.

[1, 202-b.].

Istig‘no – muhtoj bo‘lmaslik, ehtiyojsizlikdir. Ya‘ni bu vodiya barcha-barcha narsalar teng va ehtiyojsizlik hukmronidir. Bu vodiya a‘lo ham past tabaqali ham bir xil ahamiyatga ega. U yerda yetti iqlimni zabt etgan qahramon shoh ham, oddiy bir gadoga tengdir. Shoir fikr-mulohazalarining dalili uchun Zahhokning ming yil ulusdan qon to‘kishi ham, Masih o‘lgan badanga jon ato etganligi ham, yoki Buxtunnasr (Quddusni vayron qilgan mustabid shoh) elga zulm-u qasos solgani ham, No‘shiravon adolat egasi bo‘lganligi ham – barcha-barchasi birday teng hisoblanishi bayon etilgan. Vodiy mohiyatini to‘liq yoritib berish uchun hazrat Navoiy ikki ustodning shatranj o‘ynayotgan holatini keltiradi. Hikoyatda keltirilichicha, ikki ustod go‘yo ikki mamlakat shohi, shaxmat taxtasi urush maydoni, uning oq-qora donalari esa ikki taraf qo‘shini. Urushda turli qilichbozlig-u o‘yinlar ko‘rsatilib, shiddatli jang, maydon, o‘zaro dushmanlik olib borilayotgan bo‘lsa ham, agar o‘yinchi donalarini yig‘ishga ahd qilsa, bularning barchasi yo‘qqa chiqadi. Shaxmat donalari esa xalta ichiga solingach, xoh shoh, xoh piyoda quyi tushishi yo yuqori ko‘tarilishi – hammasi Istig‘no nishonasidir. Shaxmat o‘yini inson hayotidagi barcha yaxshi-yomon hodisalar, boylik, baxt, urush, nizolar bir sinov va ular vaqtinchinhalik ekanligi, asl mohiyat esa hammaning teng va o‘tkinchiligi, bu Alloh nazdida zig‘ircha ahamiyatsiz ekanligini anglatadigan real hayot ramzidir.

Irfoniy adabiyotda bosib o‘tilishi kerak bo‘lgan beshinchi vodiy Tavhid vodiysi bo‘lib, u yakka yagonalik, birlik demakdir. Ma‘lumki, Tavhid – Allohning yakka-yu yagona, bir va bor ekanligini anglash, bilish va his etishdir. Shuningdek, tasavvuf ta‘limotida tavhid – Allohning yagonaligini e‘tirof etish bilan birga, Iloh va olam, iloh va inson yagonaligini e‘tirof etadigan ilmdir. Bu haqda Abdulla Ansoriy “Tavhid – birlikda so‘zlamog, birlikda ko‘rmoq va yakto bo‘lmoqdir”, - deya tavhid vodiysining mohiyatini yoritib bergan. Bu vodiya tavsifidan so‘ng, Tavhid mazmunini tushuntirib beradigan Mansur Halloj haqida hikoyat keltiriladi. Naql qilinishicha, Mansur Halloj doim tilida “Anal-haq” degan so‘zni takrorlab yurar, din arboblari, esa bu ishda mo‘tadillikni saqlashni ta‘kidlar edi. Bir kuni uning yodiga” Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimiz me‘roj kechasi nega faqat osiy ummatning gunohidan o‘tishni so‘radi. Nima uchun faqat odamlarning gunohini kechirishni so‘rash bilan kifoyalandi ekan” degan fikr o‘ylantirar ekan, bir kun uning tushiga Rasululloh ayon bo‘ladi:

Key fuzul maydonida o‘lturg‘uchi, / Lofi vahdatdin “Anal-haq” urg‘uchi.

Bilmadingkim ul sifat oliy buruj, / Kim men aylab erdim ul oqshom uruj.

Onda menlikning xayoli yo‘q edi, / Balki bu lafz ehtimoli yo‘q edi.

Eltgan ul erdi, boshlog‘on ham ul, / Istag‘on ham ul, bag‘ishlag‘on ham ul.

[1, 208 b.]

Navoiy bu hikoyat bilan Mansur Hallojning Tavhid vodiysida menlik va senlik tomon yo‘l ochganligi, ammo u bu ikkilik vasfidan pok turishini Muhammad payg‘ambarimiz (s.a.v.) orqali Mansur Halloj Tavhidning mohiyatini to‘liq anglab yetmaganligini dalillab beradi.

Demak, Hudhud qushlarga bu hikoyat orqali butun o'n sakkiz ming olam, undagi barcha yaratilgan yagona ruh-Simurg'dan iborat ekanligini, bu vodiy menlik va senlikdan ozod bo'lishi, ikkilik yo'qolib, faqat birlik qolishini anglatadi:

Bir bo'lu, bir ko'ru, bir de, bir tila, / Mayl qilma bunda ikkilik bila.

Ikkilik bu yo'lda ahvalliqdurur, / Sirri vahdatdin mu'attalliqdurur. [1, 207-b.].

Tavhid vodiysidan so'ng, Hayrat vodiysi namoyon bo'lib, Alloh qudrati qarshisida solik hayratda qoladi va u o'zligidan butkul mahrum bo'ladi. Agar solik ushbu vodiygacha nimaga erishgan, nimaiki ish qilgan bo'lsa, bu yerda ularning barchasi yo'qolib ketadi. Hatto u o'zining borligi-yu, nima qilayotganini ham unutadi. Navoiy mazkur vodiyni shunday tasvirlaydi:

Vodiyi tavhid qat' o'lg'on zamon, / Vodiyi Hayrat ko'rinur begumon.

Har nafas yetmas kishi boshig'a tig' / Bosh urar ming oh ila yuz ming darig'.

Hayrat aylar tilni gungu lol ham, / Aql zoyil hushni pomol ham.

Kechavu kunduzga boqsa har necha, / Onglamas kunduzmudur yoxud kecha. [1, 209-b.].

Hazrat "vodiyning vasfi"dan keyin keltirgan hikoyatda ham oshiq bir lahzalik visoldan so'ng, hayratda dong qotadi. Hajrda qolgan mastlik uyqusidan xalos bo'lgach esa hayrat o'z jonini o'rtar, vasl bazmida istiqbolga erishganini ham anglolmay parishon bo'lar edi. Navoiy bu hikoyat bilan Haq vasli sari intilgan solik hali asl visolga erishmay turib, undan benihoya hayratga tushib o'zligini unutishiga ishora qilyapti va Hayrat vodiysi bevosita Faqr-u Fano vodiysining mohiyati hisoblangan chinakam diydor uchun solik ruhini tayyorlash bosqichi ham hisoblanadi.

So'nggi vodiy Faqr-u Fano vodiysidir. Hazrat Navoiy bu vodiy bilan bog'liq bir emas, to'rt hikoyat keltiradi. Shu hikoyatlar ichida "Parvonalar to'dasi haqiqiy sham sharhida" hikoyati alohida ahamiyatga ega. Unda keltirilichicha, parvonalar bir kecha yig'ilishib, shamga tolib bo'ladilar. Kelishib olib shamning mohiyatini anglamoqchi bo'ladi. Shunda ulardan biri shamga yaqinlashadi, uning munavvar nurini ko'rib, qaytib kelib boshqalarga hikoya qilmoqchi bo'lishadi. Ammo parvonalar uning so'zidan hech narsa anglamaydi. Shu zaylda yana bir necha parvona sham atrofini aylanib kelib, ko'rganlarini so'zlaydi, lekin maqsad amalga oshmaydi. Bundan o'zgalarga ham iztirob tushib, ular maqsad sari shitob bilan intiladi. Har biri kuygancha o'zi istagan maqsadga erishadi, ammo uni sharhlab bera olmaydi. Tasavvufshunos Najmiddin Komilov shunday deydi: "Navoiy bundan ikkita xulosa chiqargan: biri – Haq nuriga g'arq bo'lib, uning jamoli haroratida yonmaguncha, Haqni anglab bo'lmasligi, ikkinchisi esa Haqqa yetgan parvona bu sirni bayon qilib bera olmasligidir" [2, 40-b.]. Buyuk shoir bu hikoyatni aynan Faqr-u Fano vodiysi bilan bog'lab keltirar ekan, shunday xulosaga kelish mumkin:

Foniyi mutlaqdurur gar xud baqo,

Istasang qilmoq kerak o'zni fano. [1, 202-b.].

Nihoyat, vodiylar so'nggida faqat o'ttiz qush qolganligi ma'lum bo'lib, ular fano vodiysidan baqoga yuz tutganlarida o'z aksini ko'radilar:

Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas, / O'zlarin ko'rdilar ul Si Murg'u bas.

Munda zohir bo'ldi sirri "manoraf", / Kim ko'rubtur gavhar o'tmag'lig' sadaf.

Ya'nikim, Tasavvuf falsafasiga ko'ra, bu dunyo Haqning tajallisidir – Allohning jilolanishidir. Dunyodagi barcha yaratilgan Allohning zuhuridir. Mazkur aqida "Kimki o'zini tanisa Rabbini taniydi" hadisining amaliy ifodasidir. Zero, Hazrat Navoiy mana shu g'oyani o'z asariga kuchli mahorat bilan singdirib boradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "Lison ut-tayr" nafaqat mumtoz adabiyot namunasi, balki inson ruhiy kamolotining mukammal dasturi sifatida ham beqiyos ahamiyatga ega. Asarda bayon etilgan yetti vodiy talqini insonning o'zligini anglash, nafsni yengish va

Haqiqat sari yetish yo'lini bosqichma-bosqich ochib beradi. "Lison ut-tayr" dostonining asl

haqiqati insonning komillik rutbasini egallash, inson Yaratgandan tashqarida emas, balki uning o'zida, butun olam esa Allohning soyasi ekanligidir. Shuningdek, doston insonning eng katta dushmani, uni razillik, tubanlik botqoqlariga eltuvchi, bir o'zi yetmish shaytonga dars beradigan nafsga qarshi kurashda har doim murosasiz va shafqatsiz bo'lishga da'vat etadi. Ko'ngil istaklari nafs tizginiga o'tsa, uning oqibati millionlab qushlar kabi halokat bilan yakunlanishini yoritib bergani holda asarning bugungi ahamiyati nafaqat yosh avlodning, balki butun insoniyatning komil inson tarbiyasida yo'l ko'rsatuvchi yo'lchiroq desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Алишер Навоий. Лисонут-тайр. Тошкент, Гафур Гулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991, 462 б.
2. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. Тошкент, "Ёзувчи" нашриёти, 1996. 270 б.
3. R.J.vohidov, N.R.Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 528 b.
4. Alisher Navoiy. "Lison ut-tayr" (nasriy bayoni bilan). Toshkent, G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005, 474 b.
5. SHUHRA TSIROJIDINOVA, DILNAVOZ YUSUPOVA, OLIMJONDAVLATOV. "NAVOIYSHUNOSLIK" (1-kitob) "Tamaddun" Toshkent 2018

Tosheva Gulnora Djuraevna,
Buxoro davlat texnika universiteti PhD. Dotsent.
Eliyeva Ra'no Rustam Qizi,
Buxoro davlat texnika universiteti I kurs magistranti

BO'LAJAK MUHANDISLARNING DIZAYNERLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID USLUBIY TAVSIYALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak muhandislarning dizaynerlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Dizayn kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar, loyihaviy faoliyat va kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari ko'rib chiqilgan. Mualliflar muhandislik ta'limida dizaynerlik faoliyatini integratsiyalashgan holda o'qitishning samarali strategiyalarini ta'kidlaydi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar va dizayn vositalarining bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida muhandislik yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarning dizaynerlik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni beradi.

Pedagogical possibilities of using communication methods in inclusive education are determined by determining the form of this joint activity by genre, within which students' development and self-awareness are realized. This is possible due to the ability to stimulate the semantic activity of the communication participants. The conditions for the implementation of such a pedagogical mission of communication in inclusive education are the following factors: its connection with other types of joint activities aimed at enriching the meaning and content of students, individualization; is to maintain an opposing position by the teacher in the process of organizing dialogue in the educational-methodological complex[9].

In conclusion, it can be said that, as an unprecedented step in the history of the country's education, this academic year 225 general education schools in all regions of the country will open their doors for children with disabilities. This is in accordance with the concept of development of inclusive education in the public education system for 2020-2025, approved by the decision of the President of Uzbekistan No. 4860 dated October 13, 2020.

In addition, inclusive education helps to recognize diversity in groups and classrooms and to understand that everyone has different strengths and weaknesses. Children with disabilities, like any other child, can contribute greatly to the development of society if they are supported to develop their full potential. Children understand that it is normal to be different, they feel more comfortable and safe. They also develop the ability to live in a diverse world and become active citizens with a high level of social responsibility and a willingness to improve their communities.

List of used literature.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4623-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020 y., 07/20/4623/0220-son, 13.06.2020 y., 07/20/4749/0758-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentyabrdagi "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3289-son Qarori.

5. Shomaxmudova R. Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari. O'quv-

Shamsuddinova Sohiboxon Biloliddin qizi,

2nd-year student, FSU

shamsuddinovasohiboxon@gmail.com

THE SOCIAL RISKS OF EXTREMIST PROPAGANDA IN THE INFORMATION SOCIETY

Abstract. *The rapid expansion of the information society has transformed communication processes, enabling the widespread dissemination of digital content. However, developments have also facilitated the growth of extremist propaganda, posing significant social risks. This study examines the mechanisms, psychological influence, and societal consequences of extremist propaganda in digital environments. Using a research design based.*

Key words: *extremist propaganda; Information society; Online radicalization; Algorithmic amplification; Social polarization; Violent extremism.*

Introduction. The development of the information society has fundamentally transformed the production, distribution, and consumption of information. The expansion of digital technologies and global internet access has enabled rapid communication and increased connectivity across societies. However, these advancements have also created favorable conditions for the spread of extremist propaganda in online environments (Castells, 2010; Conway, 2017).

Scholars have widely recognized that the internet plays a crucial role in the process of online radicalization. Digital platforms allow extremist groups to disseminate their ideologies, recruit supporters, and maintain transnational networks with relatively low cost and high efficiency (Neumann, 2013; Conway, 2017). Social media platforms, in particular, facilitate user interaction and content sharing, which can contribute to the normalization of extremist narratives within online communities (Sunstein, 2017).

In addition, the structure of digital communication systems enhances the visibility of certain types of content. Algorithm-driven platforms tend to prioritize emotionally engaging and controversial material, which can unintentionally amplify extremist messages. This phenomenon, often described as algorithmic amplification, increases users' exposure to radical content and reinforces existing beliefs (Sunstein, 2017).

Methods and materials

This study adopts a mixed-methods research design, combining qualitative analysis with quantitative survey data to examine the social risks of extremist propaganda in the information society. Such an approach allows for a more comprehensive understanding of both the structural mechanisms and individual-level impacts of online radicalization (Creswell, 2018).

Data collection

Data were collected through two main methods:

a structured online survey, and

a systematic review of recent academic literature published between 2005 and 2025

The survey was conducted among university students and active internet users (N = 120). Participants were selected using a convenience sampling method and were asked to respond to questions related to their exposure to online content, awareness of extremist propaganda, and perceptions of its social impact. The questionnaire included both closed-ended (Likert-scale) and open-ended questions to capture both quantitative trends and qualitative insights (Dillman et al., 2014).i

In addition, secondary data were collected from peer-reviewed journal articles, institutional reports, and policy documents indexed in databases such as Scopus and Google Scholar. Priority was given to studies focusing on online radicalization, extremist propaganda, and digital communication (Conway, 2017; Berger, 2018).

Research instruments

The survey instrument consisted of three main sections:

- Demographic information (age, gender, education level)
- Media consumption patterns (time spent online, preferred platforms)
- Perceptions of extremist content (exposure, perceived risks, and influence)

The Likert-scale items (ranging from 1 = strongly disagree to 5 = strongly agree) were used to measure attitudes toward extremist propaganda and its perceived effects on social cohesion and polarization.

Data analysis

Quantitative data from the survey were analyzed using descriptive statistics, including percentages and mean scores, to identify general patterns of exposure and perception. Qualitative responses were analyzed through thematic analysis, allowing for the identification of recurring themes related to online radicalization and social risks (Braun & Clarke, 2006).

Furthermore, a comparative analysis was conducted to examine differences in responses based on demographic variables and levels of internet usage. This helped to identify groups that may be more vulnerable to extremist influence.

Ethical considerations

All participants were informed about the purpose of the study and provided voluntary consent before participating. The survey was conducted anonymously to ensure confidentiality and to minimize potential bias in responses (Creswell, 2018).

Additionally, the research adhered to general ethical principles, including data protection, voluntary participation, and the right of participants to withdraw at any stage. No personal identifying information was collected, and all data were used for academic purposes.

To protect privacy, no personally identifiable information was collected, stored, or analyzed. All responses were recorded in aggregated form and used exclusively for academic purposes. Data were securely stored and accessible only to the researcher, ensuring compliance with general data protection standards.

Special attention was given to the sensitive nature of the topic, as exposure to extremist content may cause psychological discomfort. Therefore, the questionnaire was designed to avoid direct or disturbing material, and participants were not required to engage with explicit extremist content. This approach helped minimize potential harm and the ethical integrity of the study.

Results. Furthermore, the study followed accepted academic research standards and ethical guidelines for social science research. The researcher maintained objectivity throughout the data collection and analysis process, avoiding bias and ensuring the accurate representation of findings.

Exposure to extremist content

The survey results indicate that a significant proportion of respondents are regularly exposed to online content that may be associated with extremist narratives. Approximately 68% of participants reported encountering polarizing or radical content on social media platforms at least once a week, while 34% indicated frequent exposure (daily or almost daily). These findings align with previous research suggesting that digital platforms play a central role in increasing user exposure to extremist materials (Conway, 2017).

In addition, respondents who reported higher daily internet usage (more than 4 hours per day) were significantly more likely to encounter such content. This supports the argument that

increased online activity correlates with greater exposure to ideologically extreme information environments.

Perceptions and psychological influence

The results demonstrate that exposure to extremist propaganda is associated with measurable psychological and perceptual effects. Around 61% of respondents agreed that repeated exposure to polarizing content can influence attitudes and beliefs over time. Furthermore, 52% indicated that emotionally charged content (e.g., content evoking anger or fear) is more likely to capture their attention and remain memorable.

These findings support existing studies that highlight the role of emotional engagement and identity-based narratives in the process of online radicalization (Winter et al., 2020). The thematic analysis of open-ended responses also revealed that participants perceive such content as increasingly normalized within digital spaces, particularly among younger users.

Social impact and polarization

The study identifies a strong perceived link between extremist propaganda and growing social polarization. 65% of respondents agreed that online environments contribute to increased division between social groups, while 58% reported observing a rise in hate speech and intolerance in online discussions.

These results are consistent with prior research indicating that exposure to ideologically extreme content reinforces existing beliefs and reduces openness to alternative perspectives (Sunstein, 2017). The data suggest that digital echo chambers play a significant role in shaping polarized attitudes.

Furthermore, comparative analysis showed that younger participants (aged 18–25) and those with higher social media engagement were more likely to perceive and experience the influence of extremist narratives. This suggests that certain demographic groups may be more susceptible to digital radicalization processes.

Discussion. The findings of this study confirm that extremist propaganda represents a significant social risk within the information society, particularly due to its widespread presence in digital environments. The high level of exposure reported by participants supports previous research indicating that online platforms facilitate frequent encounters with polarizing and potentially harmful content (Conway, 2017). This suggests that extremist narratives are not isolated phenomena but are increasingly embedded in everyday digital experiences.

The results also highlight the importance of psychological factors in shaping the impact of such content. A majority of respondents acknowledged that repeated exposure to emotionally charged material can influence attitudes and beliefs over time. This finding aligns with existing studies emphasizing the role of emotional engagement and identity-based narratives in the process of online radicalization (Winter et al., 2020). The normalization of such content, as reflected in participants' responses, further indicates that prolonged exposure may reduce critical resistance to extremist ideas.

The comparative analysis further suggests that younger individuals and those with higher levels of internet usage may be more susceptible to extremist influence. This highlights the need for targeted preventive strategies, particularly focusing on digital literacy and critical thinking skills among youth populations.

Overall, the discussion underscores that extremist propaganda operates through a combination of technological, psychological, and social mechanisms. Addressing this issue requires a comprehensive approach that includes platform regulation, improved content moderation, and educational initiatives aimed at reducing susceptibility to manipulation.

Conclusion

This study demonstrates that extremist propaganda poses a serious and growing risk

within the information society, largely due to its widespread presence across digital platforms. The findings show that a significant number of individuals are regularly exposed to polarizing content, which can influence attitudes, reinforce existing beliefs, and contribute to the normalization of extremist narratives. The results further indicate that psychological factors, particularly emotional engagement and repeated exposure, play a key role in shaping the impact of such content. This process not only increases the likelihood of online radicalization but also contributes to broader social issues, including social polarization and the spread of hate speech.

Therefore, combating extremist propaganda requires a comprehensive and multi-level approach, including stronger platform regulation, improved content moderation, and the promotion of media literacy and critical thinking skills. Future research should focus on empirical investigations and longitudinal studies to better understand the long-term effects of digital radicalization and to develop more effective counter-strategies.

References.

1. Berger, J. M. (2018). *Extremism*. MIT Press.
2. Conway, M. (2017). Determining the role of the internet in violent extremism and terrorism: Six suggestions for progressing research. *Studies in Conflict & Terrorism*, 40(1), 77–98. <https://doi.org/10.1080/1057610X.2016.1157408>
3. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). *Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches* (5th ed.). SAGE Publications.
4. Dillman, D. A., Smyth, J. D., & Christian, L. M. (2014). *Internet, phone, mail, and mixed-mode surveys: The tailored design method* (4th ed.). Wiley
5. Holt, T. J., Freilich, J. D., & Chermak, S. M. (2025). Online radicalization and its connection to real-world violence: publication Recent trends and implications. *Terrorism and Political Violence*. Advance online.
6. Sunstein, C. R. (2017). *#Republic: Divided democracy in the age of social media*. Princeton University Press.
7. Winter, C., Meleagrou-Hitchens, A., Maher, S., & Sheehan, M. (2020). Online extremism: Research trends and policy responses. International Centre for the Study of Radicalisation (ICSR).

Hamroyev Temurbek Jamshid o'g'li,
Mustaqil izlanuvchi

MIGRATSION OILALARDA O'SAYOTGAN O'SMIRLARNING IJTIMOY MUHITGA INTEGRATSIYALASHUVI VA PSIXOLOGIK MOSLASHUVI

Annotatsiya. Mazkur maqola migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi hamda psixologik moslashuv jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda migratsiya sharoitida voyaga yetayotgan o'smirlarning ijtimoiylashuv xususiyatlari, yangi muhitga moslashish darajasi, emotsional holati va shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar kompleks tarzda o'rganiladi. Shuningdek, oila muhitining o'zgarishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi, madaniy moslashuv omillari va ta'lim muassasalarining roli muhim determinant sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsion oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarning muvaffaqiyatli integratsiyasi ko'p jihatdan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijobiy kommunikativ muhit va psixologik yordam tizimining mavjudligiga bog'liq. Maqola natijalari ijtimoiy-pedagogik va psixologik xizmat tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: migratsiya, migratsion oila, o'smirlar, ijtimoiy integratsiya, psixologik moslashuv, ijtimoiylashuv, emotsional holat, ijtimoiy muhit

Аннотация. Данная статья посвящена анализу процессов социальной интеграции и психологической адаптации подростков, растущих в миграционных семьях. В исследовании рассматриваются особенности социализации подростков в условиях миграции, уровень их адаптации к новой социальной среде, эмоциональное состояние и изменения в системе межличностных отношений. Особое внимание уделяется таким факторам, как трансформация семейной среды, уровень социальной поддержки, культурная адаптация и роль образовательных учреждений. Результаты исследования показывают, что успешная интеграция подростков в миграционных семьях во многом зависит от наличия поддерживающей социальной среды, благоприятных коммуникативных условий и системы психологической помощи. Полученные данные имеют важное значение для совершенствования социальной и психологической поддержки подростков.

Ключевые слова: миграция, миграционная семья, подростки, социальная интеграция, психологическая адаптация, социализация, эмоциональное состояние, социальная среда

Annotation. This article is devoted to the analysis of social integration and psychological adaptation processes of adolescents growing up in migrant families. The study examines the characteristics of adolescent socialization under migration conditions, their level of adaptation to a new social environment, emotional states, and changes in interpersonal relationships. Special attention is given to factors such as transformations in the family environment, levels of social support, cultural adaptation, and the role of educational institutions. The results indicate that successful integration of adolescents in migrant families largely depends on supportive social environments, positive communication conditions, and the availability of psychological assistance systems. The findings can be used to improve social and psychological support mechanisms for adolescents.

Key words: migration, migrant family, adolescents, social integration, psychological adaptation, socialization, emotional state, social environment

Dolzarbliigi. Hozirgi globallashuv jarayonlari, mehnat migratsiyasining kengayishi va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning keskin o'zgarishi sharoitida migratsion oilalar sonining ortib

borishi jamiyat oldida yangi ijtimoiy-psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, migratsion jarayonlar ta'sirida voyaga yetayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga moslashuvi, ularning psixologik barqarorligi, shaxslararo munosabatlarga kirishuvchanligi hamda ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish darajasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat, o'z navbatida, yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgan ijtimoiylashuv jarayonining murakkablashuvi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, bu borada qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6017-son Farmoni yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy-axloqiy rivojini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy muammolarga moslashuvchanligini ta'minlashni davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilaydi. Ushbu hujjatda yoshlarning psixologik barqarorligini mustahkamlash, ularni turli ijtimoiy tahdidlardan himoya qilish hamda moslashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash zarurligi alohida ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son Qarori yoshlar bilan ishlashning yangi tizimini joriy etish, ularning ijtimoiy muammolarini kompleks hal etish, shu jumladan, migratsiya sharoitida voyaga yetayotgan yoshlarning psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni belgilab beradi. Mazkur qarorda yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etish va ularning jamiyatga integratsiyasini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni doirasida yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning psixologik salomatligini saqlash va rivojlantirish, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga mansub bolalar va o'smirlarni qo'llab-quvvatlash masalalari alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlar aynan ana shunday e'tibor talab etuvchi guruhlardan biri hisoblanadi.

Migratsion oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar ko'pincha ota-onaning uzoqda bo'lishi, ijtimoiy nazoratning susayishi, madaniy va kommunikativ muhitning keskin o'zgarishi kabi omillar ta'sirida psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularning emotsional holatida beqarorlik, ijtimoiy munosabatlarda muammolar, o'ziga ishonchning pasayishi hamda ijtimoiy muhitga integratsiyalashuv jarayonida murakkabliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois, mazkur muammoni chuqur ilmiy o'rganish, uning pedagogik va psixologik determinantlarini aniqlash hamda samarali yechimlar ishlab chiqish zamonaviy ilm-fan va amaliyot oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va psixologik moslashuvi masalasi nafaqat nazariy, balki katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini qo'llab-quvvatlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Migratsiya jarayonlari va uning shaxs rivojiga ko'rsatadigan ta'siri masalasi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida murakkab, ko'p qirrali hamda tizimli yondashuvni talab qiluvchi muammo sifatida talqin etiladi, chunki migratsiya nafaqat geografik hududning o'zgarishi, balki shaxsning ijtimoiy, madaniy, psixologik va kommunikativ makonining tubdan transformatsiyalanishi bilan bog'liq jarayondir, ayniqsa bu jarayon o'smirlar davriga to'g'ri kelganda uning ta'siri yanada keskinroq namoyon bo'ladi, zero o'smirlar davri shaxs rivojining eng nozik, identifikatsiya shakllanishi, ijtimoiy rol va qadriyatlar tizimi tarkib topadigan bosqich hisoblanadi, shu bois migratsion oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarning ijtimoiylashuvi va psixologik moslashuvi muammosi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Xorijiy olimlardan Urie Bronfenbrenner tomonidan ishlab chiqilgan ekologik tizimlar nazariyasi ushbu jarayonni tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, mazkur nazariyaga ko'ra, shaxs

rivoji bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy tizimlar - mikro (oila, tengdoshlar), mezo (maktab va oila o'rtasidagi aloqalar), ekzo (ota-onaning ish muhiti) va makro (madaniyat, jamiyat qadriyatlar) ta'siri ostida shakllanadi, migratsiya esa aynan shu tizimlarning aksariyatini bir vaqtning o'zida o'zgartirib yuboradi, natijada o'smir yangi ijtimoiy muhitga moslashishda ichki psixologik zo'riqish, identifikatsion noaniqlik va ijtimoiy aloqalarning uzilishi kabi muammolar bilan yuzma-yuz keladi, bu esa uning ijtimoiy integratsiya darajasini pasaytirishi mumkin.

Migratsiya sharoitida shaxsning madaniy va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan olimlardan biri Jon Berry bo'lib, uning akkulturatsiya nazariyasi migratsiya kontekstida psixologik moslashuv strategiyalarini tushuntirishda keng qo'llaniladi, u tomonidan taklif etilgan integratsiya, assimilyatsiya, separatsiya va marginalizatsiya strategiyalari o'smirlarning yangi ijtimoiy muhitga qanday moslashishini aniqlashda muhim indikator sifatida qaraladi, ayniqsa integratsiya strategiyasi - ya'ni shaxsning o'z milliy madaniyatini saqlagan holda yangi madaniyatga moslashuvi - psixologik barqarorlik va ijtimoiy muvaffaqiyatni ta'minlovchi optimal model sifatida e'tirof etiladi, aksincha, marginalizatsiya yoki separatsiya holatlari o'smirning ijtimoiy izolyatsiyasi, o'ziga ishonchsizlik va emotsional beqarorlikni kuchaytirishi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Shu bilan birga, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida o'smirlik davri "identifikatsiya va rol chalkashuvi" bosqichi sifatida talqin qilinadi, migratsiya sharoitida ushbu bosqichning murakkablashuvi kuzatilib, o'smirning o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy rolni qabul qilishi va kelajak rejalari shakllanishida qiyinchiliklar yuzaga keladi, bu esa uning psixologik moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, Albert Bandura tomonidan asoslangan ijtimoiy o'rganish nazariyasi migratsion muhitda o'smirlarning xulq-atvori va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o'smir yangi muhitda mavjud bo'lgan xulq-atvor modellari, ijtimoiy me'yorlar va kommunikativ uslublarni kuzatish va ularga taqlid qilish orqali o'z xulqini shakllantiradi, bu jarayonda ijobiy ijtimoiy namunalarning mavjudligi, qo'llab-quvvatlovchi muhit va psixologik xavfsizlik hissi muhim rol o'ynaydi, aks holda salbiy ijtimoiy ta'sirlar o'smirning deviant xulq-atvoriga moyilligini kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya nazariyalari ham migratsiya sharoitida o'smirlarning o'zini "kimman?" degan savolga javob topish jarayonida ichki ziddiyatlarga duch kelishini, bu esa ularning ijtimoiy moslashuv darajasiga ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham migratsion jarayonlarning oila va shaxs rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, S. Alimov, F. Parmonov, Sh. To'rayev, I. Daminov kabi olimlarning ishlari migratsion oilalarda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolarni tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, ularda ota-onaning uzoqda bo'lishi natijasida bolalarda emotsional bo'shliq, nazoratning susayishi, ijtimoiy rol modellari yetishmasligi kabi holatlar yuzaga kelishi qayd etiladi, bu esa o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi jarayonini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, D.A. Majidova, D.F. Xusanova, A.A. Bazarov kabi tadqiqotchilar o'smirlarning psixologik moslashuvi jarayonida oilaviy muhit, pedagogik ta'sir va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining hal qiluvchi rol o'ynashini asoslab beradilar, ular tomonidan o'smirlarning emotsional barqarorligi, kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarurligi ta'kidlanadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va psixologik moslashuvi masalasi turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan bo'lsa-da, ushbu jarayonning pedagogik-psixologik determinantlarini kompleks tizim sifatida o'rganish, ularni aniq mezonlar asosida baholash va amaliyotga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish hali yetarli darajada tadqiq etilmagan, ayniqsa zamonaviy

ta'lim muassasalari sharoitida o'smirlarning moslashuv mexanizmlarini chuqur o'rganish zarurati mavjud bo'lib, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Asosiy qism. Migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va psixologik moslashuvi murakkab, ko'p bosqichli hamda o'zaro bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'lib, bunda shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va ta'lim tizimining ta'siri muhim determinantlar sifatida ishtirok etadi, ayniqsa migratsiya jarayonida o'smirlar yangi ijtimoiy makonga kirib kelar ekan, ular ilgari shakllangan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor modellari bilan yangi muhit talablari o'rtasida muvozanat topishga majbur bo'ladilar, bu esa ularning psixologik holatida ichki ziddiyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi, natijada moslashuv jarayoni nafaqat tashqi ijtimoiy sharoitga moslashish, balki ichki psixologik qayta tuzilishni ham talab etadi. Shu jihatdan qaraganda, o'smirlarning ijtimoiy integratsiyasi jarayonida ularning kommunikativ kompetensiyasi, emotsional barqarorligi, refleksiv fikrlash qobiliyati va ijtimoiy rollarni qabul qilish darajasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Migratsion oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarning psixologik moslashuvi ko'pincha oilaviy munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ota-onaning uzoqda bo'lishi yoki oilaning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi jarayonida yuzaga keladigan muammolar o'smirlarning emotsional holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu holatda o'smirlar o'zlarini yolg'iz his qilishlari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi, xavotir va ishonchsizlik kabi psixologik kechinmalarni boshdan kechirishlari mumkin, bu esa ularning ijtimoiy faolligini pasaytiradi va tengdoshlar bilan samarali muloqotga kirishishiga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, migratsiya sharoitida o'smirlar yangi madaniy qadriyatlar, til muhitining o'zgarishi va ijtimoiy stereotiplar bilan to'qnash kelib, o'z identifikatsiyasini qayta shakllantirish zaruriyatiga duch keladi, bu jarayon esa psixologik moslashuvning eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy muhitga integratsiyalashuv jarayonida ta'lim muassasalarining roli alohida ahamiyat kasb etadi, chunki maktab yoki texnikum o'smir uchun asosiy ijtimoiylashuv maydoni sifatida xizmat qiladi, bu yerda u nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi va ijtimoiy rollarni egallaydi, shu sababli ta'lim muhitining ijobiy yoki salbiy xarakteri o'smirning moslashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar ta'lim muassasasida qo'llab-quvvatlovchi, inkluziv va psixologik jihatdan qulay muhit yaratilgan bo'lsa, migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy integratsiyasi ancha samarali kechadi, aksincha, diskriminatsiya, ijtimoiy ajratish yoki e'tiborsizlik holatlari o'smirning ijtimoiy izolyatsiyasiga olib kelishi mumkin. Shu bois, pedagoglar tomonidan individual yondashuvni qo'llash, o'smirlarning psixologik holatini inobatga olish va ularni faol ijtimoiy muhitga jalb etish muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

O'smirlarning psixologik moslashuvini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi, jumladan, oila, tengdoshlar guruhi va psixologik xizmatning o'zaro hamkorligi muhim rol o'ynaydi, chunki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lgan sharoitda o'smirlar o'z muammolarini yengilroq hal qiladilar, stressga chidamliligi ortadi va yangi muhitga moslashuvi tezlashadi, ayniqsa psixologik xizmat tomonidan olib boriladigan individual va guruhviy mashg'ulotlar o'smirlarning emotsional barqarorligini mustahkamlash, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'smirlarning o'z-o'zini anglash darajasi, refleksiya qobiliyati va kelajakka nisbatan ijobiy motivatsiyasini shakllantirish psixologik moslashuv jarayonining muhim komponentlari sifatida namoyon bo'ladi. Migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va psixologik moslashuvi o'zaro bog'liq bo'lgan pedagogik va psixologik omillar tizimi asosida amalga oshib, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun kompleks

yondashuv, ya'ni individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ta'lim muhitini optimallashtirish va psixologik xizmat tizimini rivojlantirish zarur hisoblanadi, aynan shu yondashuv o'smirlarning ijtimoiy integratsiyasini muvaffaqiyatli ta'minlash, ularning psixologik salomatligini mustahkamlash va jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston fuqarolarining asosiy migratsiya yo'nalishlari (2024-yil holati, ming kishi)

Davlat nomi	Migrantlar soni (ming kishi)	Ulushi (%)
Rossiya	1450	63,0
Qozog'iston	310	13,5
Janubiy Koreya	120	5,2
Turkiya	105	4,6
Birlashgan Arab Amirlklari	80	3,5
Boshqa davlatlar	235	10,2
Jami	2300	100

Keltirilgan statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston fuqarolarining tashqi mehnat migratsiyasi asosan bir nechta davlatlar - ayniqsa Rossiya Federatsiyasida yuqori darajada jamlangan bo'lib, umumiy migrantlarning katta qismi aynan ushbu yo'nalishda to'planganligi kuzatiladi, bu holat tarixiy-iqtisodiy aloqalar, til muhitining o'xshashligi hamda migratsiya tartiblarining nisbatan soddaligi bilan izohlanadi, ya'ni Rossiyada mehnat qilish uchun mavjud infratuzilma va shakllangan migrantlar diasporasi yangi migrantlar uchun moslashuv jarayonini nisbatan yengillashtiradi, natijada bu davlat asosiy migratsiya markaziga aylanadi, ilmiy manbalarda ham O'zbekistonlik migrantlarning qariyb 60 foizdan ortig'i aynan Rossiyada faoliyat yuritishi qayd etilgan .

Ikkinchi muhim yo'nalish sifatida Qozog'iston Respublikasi ajralib turadi, bu yerda migrantlar ulushi Rossiyaga nisbatan kamroq bo'lsa-da, barqaror va ortib borayotgan tendensiyaga ega, bu esa hududiy yaqinlik, o'zaro iqtisodiy integratsiya va migratsiya siyosatining nisbatan ochiqligi bilan bog'liq, ayniqsa so'nggi yillarda ayrim siyosiy va iqtisodiy omillar sabab Rossiyadan Qozog'istonga yo'nalgan migratsiya oqimining qayta taqsimlanishi kuzatilmoqda, bu esa migratsiya geografiasining diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, jadvalda aks etgan Janubiy Koreya, Turkiya va Birlashgan Arab Amirlklari kabi davlatlar ulushi nisbatan kichik bo'lsa-da, ularning ahamiyati tobora ortib borayotganini kuzatish mumkin, chunki ushbu davlatlarda mehnat sharoitlarining yuqoriligi, rasmiy bandlik dasturlarining mavjudligi va yuqori daromad imkoniyatlari migrantlar uchun jozibadorlikni oshirmoqda, ayniqsa Janubiy Koreyada tashkil etilgan mehnat migratsiyasi dasturlari o'zbekistonlik fuqarolar uchun qonuniy va xavfsiz ishlash imkonini yaratmoqda, bu esa migratsiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tayotganini anglatadi.

“Boshqa davlatlar” kategoriyasiga kiruvchi yo'nalishlar esa migratsiya oqimining asta-sekin global xarakter kasb etayotganini ko'rsatadi, ya'ni o'zbekistonlik migrantlar Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlarga ham chiqishni boshlagan, bu esa migratsiya geografiasining kengayib borayotganini bildiradi, biroq bu yo'nalishlar hali umumiy migratsiya tarkibida kichik ulushni egallaydi, chunki ushbu davlatlarda migratsiya talablari qat'iyroq va moslashuv jarayoni murakkabroq hisoblanadi. Mazkur statistik ko'rsatkichlar nafaqat iqtisodiy migratsiya jarayonini, balki uning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini ham aks ettiradi, chunki migrantlarning asosiy qismi uzoq muddat chet davlatlarda faoliyat yuritishi natijasida oilaviy muhitda vaqtinchalik yoki doimiy ajralish holatlari yuzaga keladi, bu esa migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ota-onaning uzoqda bo'lishi o'smirlarning emotsional ehtiyojlari qondirilmaligiga, ijtimoiy nazoratning

susayishiga va mustaqil qaror qabul qilish jarayonida qiyinchiliklarga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, jadvalda aks etgan migratsiya oqimining asosiy yo'nalishlari o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va psixologik moslashuvi jarayoniga bilvosita, ammo kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki migratsiya intensivligi qanchalik yuqori bo'lsa, migratsion oilalar soni ham shunchalik ortadi, bu esa ijtimoiy-pedagogik va psixologik xizmat tizimiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi, ayniqsa o'smirlar bilan ishlashda ularning emotsional holatini barqarorlashtirish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarurati keskin ortadi. Mazkur jadval tahlili migratsiya jarayonining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham chuqur ta'sirga ega ekanligini ko'rsatib, migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiylashuvi va moslashuvi muammosini kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va psixologik moslashuvi murakkab, ko'p omilli hamda o'zaro bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'lib, bunda shaxsning individual xususiyatlari, oilaviy muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va ta'lim tizimining ta'siri hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, ayniqsa migratsiya sharoitida yuzaga keladigan oilaviy ajralish, ota-onaning uzoqda bo'lishi va ijtimoiy nazoratning susayishi o'smirlarning emotsional holatiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, migratsion oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarning aksariyatida ijtimoiy integratsiya va psixologik moslashuv darajasi o'rta pog'onada bo'lib, bu ularning yangi ijtimoiy muhitga qisman moslashganligini, biroq hali to'liq barqaror integratsiya jarayoni shakllanmaganligini anglatadi, shu bilan birga ayrim o'smirlarda past darajadagi moslashuv, emotsional beqarorlik va kommunikativ qiyinchiliklar kuzatilgani ushbu muammoning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, o'smirlarning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ko'p jihatdan ta'lim muassasalarida yaratilgan ijobiy psixologik muhit, pedagoglarning individual yondashuvi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligiga bog'liq bo'lib, ayniqsa tengdoshlar bilan ijobiy muloqot, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanganligi va refleksiv fikrlash qobiliyati o'smirlarning moslashuv jarayonini sezilarli darajada yengillashtirishi aniqlangan.

Bundan tashqari, migratsiya jarayonining geografik ko'lami va intensivligi ortib borayotgani migratsion oilalar sonining ham ko'payishiga olib kelayotganligi, bu esa o'z navbatida o'smirlarning ijtimoiylashuvi va psixologik moslashuviga oid muammolarni yanada keskinlashtirayotganligi kuzatiladi, shu sababli mazkur muammoni hal etishda kompleks yondashuvni qo'llash, ya'ni pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarni uyg'un holda hisobga olish zarurati yuzaga keladi. Migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va psixologik moslashuvini ta'minlash uchun ta'lim tizimida qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, psixologik xizmatni takomillashtirish, o'smirlarning emotsional va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish hamda oilaviy va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi, aynan shu yondashuv orqali o'smirlarning sog'lom rivojlanishi, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va kelajakda faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Urie Bronfenbrenner. The Ecology of Human Development. - Cambridge: Harvard University Press, 1979. - 330 p.
2. John W. Berry. Immigration, Acculturation, and Adaptation. - Applied Psychology, 1997. - Vol. 46(1). - P. 5–34.
3. Erik Erikson. Identity: Youth and Crisis. - New York: W.W. Norton & Company, 1968. - 336 p.
4. Albert Bandura. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. - 247 p.
5. S. Alimov. Migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari. - Toshkent: Fan, 2018. - 210 b.
6. F. Parmonov. Mehnat migratsiyasi va oilaviy munosabatlar transformatsiyasi. - Toshkent: Innovatsiya, 2020. - 198 b.
7. Sh. To‘rayev. Migratsion oilalarda bolalar tarbiyasi muammolari. - Toshkent: O‘qituvchi, 2019. - 176 b.
8. Migration Data Portal. Central Asia Migration Overview. - URL: <https://www.migrationdataportal.org> (migratsiya statistikasi va hududiy tahlillar uchun)
9. International Organization for Migration (IOM). Uzbekistan Migration Profile. - URL: <https://www.iom.int> (O‘zbekiston migratsiya oqimlari va ijtimoiy ta’siri bo‘yicha ma’lumotlar)
10. World Bank. Migration and Remittances Data. - URL: <https://www.worldbank.org> (xalqaro migratsiya va pul o‘tkazmalari statistikasi)
11. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. - URL: <https://stat.uz> (O‘zbekiston bo‘yicha demografik va migratsion ko‘rsatkichlar)
12. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. - URL: <https://mehnat.uz> (tashqi mehnat migratsiyasi va bandlik bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar)

Shokirov Mubin Rustamovich,
f.f.f.d (PhD) dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti
Ergasheva Iroda Qosimovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti
ergasevairoda87@gmail.com

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI
TA‘MINLASHNING IJTIMOYIY-SIYOSIY VA HUQUQIY ASOSLARI:
SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR**

*"Inson qadri – eng oliy qadriyatdir".
Shavkat Mirziyoyev*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari kompleks tarzda tahlil etilgan. Tadqiqotda inson huquqlarining nazariy-huquqiy mohiyati, ularning shakllanish jarayoni hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari ilmiy yondashuv asosida o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakatda inson huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy normalar, milliy qonunchilik tizimi va institutsional mexanizmlar tahlil qilinadi.

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida inson qadri va manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shu bilan birga, inson huquqlarini ta‘minlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, erkinliklar, huquqiy davlat, Konstitutsiya, ijtimoiy-siyosiy asoslar, huquqiy mexanizmlar, islohotlar, Yangi O‘zbekiston.

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ социально-политических и правовых основ обеспечения прав и свобод человека в Республике Узбекистан. Исследование рассматривает теоретическую и правовую сущность прав человека, процесс их формирования и этапы исторического развития на основе научного подхода. Также анализируются конституционные нормы, национальная законодательная система и институциональные механизмы, направленные на обеспечение прав человека в стране. В статье рассматриваются реформы, проведенные в Республике Узбекистан в годы независимости, в частности, меры, направленные на обеспечение человеческого достоинства и интересов в рамках стратегии развития «Новый Узбекистан». Одновременно выявляются проблемы, возникающие в процессе обеспечения прав человека, и предлагаются основные направления их устранения.

Ключевые слова: права человека, свободы, верховенство права, Конституция, социально-политические основы, правовые механизмы, реформы, Новый Узбекистан.

Abstract. This article comprehensively analyzes the socio-political and legal foundations of ensuring human rights and freedoms in the Republic of Uzbekistan. The study studies the theoretical and legal essence of human rights, the process of their formation and the stages of historical development based on a scientific approach. It also analyzes the constitutional norms, national legislative system and institutional mechanisms aimed at ensuring human rights in the country. The article covers the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, in particular, measures aimed at ensuring human dignity and interests within the framework of the "New Uzbekistan"

development strategy. At the same time, the problems arising in the process of ensuring human rights are identified and the main directions for their elimination are proposed.

Key words: *human rights, freedoms, rule of law, Constitution, socio-political foundations, legal mechanisms, reforms, New Uzbekistan.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi har qanday davlatning demokratik rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Inson huquqlari – bu nafaqat huquqiy kategoriya, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy qadriyatlar tizimining ajralmas qismidir. Shu sababli inson huquqlarini ta'minlash, ularni himoya qilish va amaliyotga joriy etish har qanday davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng inson huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Mamlakatda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, inson huquqlarini ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari yaratildi, milliy qonunchilik xalqaro standartlarga moslashtirildi hamda inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlar shakllantirildi.

So'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida inson qadri ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar inson huquq va erkinliklarini yanada kengroq ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur ilmiy ishning dolzarbligi shundaki, inson huquqlarini ta'minlash tizimini kompleks o'rganish, uning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning nazariy, huquqiy va ijtimoiy-siyosiy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilish hamda ularning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

I bob. Inson huquqlarining nazariy-huquqiy asoslari.

1.1. Inson huquqlari tushunchasi va uning nazariy mohiyati

Inson huquqlari tushunchasi insoniyat taraqqiyoti davomida shakllangan va rivojlangan muhim ijtimoiy-huquqiy kategoriya hisoblanadi. U insonning tug'ilganidan boshlab unga tegishli bo'lgan tabiiy huquqlar majmuasini anglatadi. Ushbu huquqlar davlat tomonidan berilmaydi, balki davlat ularni tan oladi va himoya qiladi.

Inson huquqlarining nazariy asoslari tabiiy huquq konsepsiyasiga borib taqaladi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, insonning asosiy huquqlari tabiatan mavjud bo'lib, ular ajralmas va daxlsizdir. Zamonaviy huquqshunoslikda inson huquqlari quyidagi jihatlari bilan tavsiflanadi: tabiiyligi, universalligi, ajralmasligi, tengligi hamda davlat tomonidan kafolatlanganligi.

Inson huquqlari tushunchasi faqat yuridik mazmun bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli inson huquqlarini ta'minlash masalasi kompleks yondashuvni talab etadi.

1.2. Inson huquqlarining asosiy prinsiplari

Inson huquqlarini ta'minlash bir qator muhim prinsiplarga asoslanadi. Avvalo, universallik prinsipi barcha insonlar millati, irqi, dini, jinsi va boshqa belgilaridan qat'i nazar teng huquqlarga ega ekanligini anglatadi. Bu prinsip inson huquqlarining umumiy va hamma uchun bir xil ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Shuningdek, tenglik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipi har bir shaxsning qonun oldida tengligini ta'minlaydi hamda hech qanday kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligini

belgilaydi. Bu esa jamiyatda adolat va tenglikni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajralmaslik prinsipi inson huquqlari insondan ajratib bo'lmashligini, ya'ni ularni hech kim tortib ololmasligini anglatadi. Bu huquqlar insonning tabiiy va tug'ma huquqlari sifatida e'tirof etiladi.

Dinamik o'zgarish ko'rsatkichi

Metodologik qism bo'yicha umumiy xulosa: Tadqiqot metodologiyasi o'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tizimli va kompleks yondashuv asosida ishlab chiqildi. Nazariy va empirik metodlar uyg'unligi tolerantlikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarni aniqlash hamda ularning rivojlanish dinamikasini baholash imkonini berdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'smir yoshdagi o'quvchilarda tolerantlikni rivojlantirish murakkab, ko'p bosqichli psixologik jarayon bo'lib, u empatiya, refleksiya, ijtimoiy identifikatsiya kabi mexanizmlar orqali amalga oshadi. Tolerantlikni rivojlantirish o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi, shaxslararo munosabatlar barqarorligi va ijtimoiy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida psixologik qulay muhit yaratish, o'smirlarning yosh xususiyatlarini inobatga olish va tizimli psixologik-pedagogik ta'sirni amalga oshirish orqali tolerantlikni samarali rivojlantirish mumkin. Tadqiqot davomida

empatiya, refleksiya va ijtimoiy identifikatsiya tolerantlikni rivojlantirishning asosiy psixologik mexanizmlari ekanligi aniqlandi.[7] Empatiya o'smirlarning boshqalarning hissiy holatini tushunishi va ularga nisbatan ijobiy munosabat bildirishiga xizmat qilsa, refleksiya o'z xatti-harakatlarini ongli baholash va ijtimoiy me'yorlar asosida tartibga solish imkonini beradi. Ijtimoiy identifikatsiya esa o'smirlarning tengdoshlar guruhi orqali tolerant xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishiga zamin yaratadi.[7] Shuningdek, ta'lim muhitining psixologik iqlimi va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati alohida ta'kidlandi. Psixologik jihatdan qulay, o'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan ta'lim muhiti o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi va tolerantlik darajasini oshiradi.[8] O'qituvchining shaxsiy namunalari, muloqot madaniyati va psixologik qo'llab-quvvatlashi tolerant xulq-atvor shakllanishida muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi: birinchidan, tolerantlik o'smir shaxsining ijtimoiy-psixologik yetukligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi; ikkinchidan, tolerantlikni rivojlantirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik ta'sirni talab etadi; uchinchidan, ta'lim jarayonida empatiya va refleksiyani rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi.[9] Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalar maktab psixologlari, sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari tomonidan tarbiyaviy ishlar, psixologik treninglar hamda profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda qo'llanishi mumkin.[9] Kelgusida ushbu muammo bo'yicha tadqiqotlarni kengroq empirik tanlanma asosida olib borish, shuningdek, tolerantlikni rivojlantirishning yosh va individual xususiyatlarga mos modellari ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. {9}

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vigotskiy L.S. Psixologiya razvitiya lichnosti. – Moskva: Pedagogika, 1991.
2. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti. – Moskva: MGU, 2002.
3. Bojovich L.I. Lichnost i yeye formirovaniye v detskom vozraste. – Moskva: Prosveshcheniye, 2008.
4. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – Sankt-Peterburg: Piter, 2015.
5. G'oziev E.G'. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
7. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
8. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979.
9. Abdullayeva Sh. O'quvchilarda tolerantlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2018.

Namozov Baxrom,
Surxondaryo viloyati Boysun tumani 49 maktab psixologi
Ibrohimov Anvarjon Nurullayevich,
Surxondaryo viloyati. Bandixon Tumani 32 -maktab psixologi

7-SINF O'SMIRLARIDA EMOTSIONAL BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING ROLI

Annotatsiya. Mazkur maqolada 7-sinf o'smirlarida emotsional barqarorlikni rivojlantirishda maktab psixologining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. O'smirlik davri inson hayotidagi murakkab psixologik bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda emotsional beqarorlik, ichki ziddiyatlar, o'z-o'zini anglash jarayonining kuchayishi kuzatiladi. Ayniqsa, 7-sinf o'quvchilarida stress, xavotir, agressivlik kabi holatlar tez-tez namoyon bo'ladi. Shu bois maktab psixologi tomonidan olib boriladigan diagnostik, profilaktik va korreksion ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada psixologning individual va guruhiy ishlari, psixologik treninglar, suhbatlar va maslahatlar orqali o'quvchilarda emotsional barqarorlikni shakllantirish usullari yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilishning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tizimli psixologik yondashuv o'smirlarning emotsional holatini yaxshilash va ularning ijtimoiy moslashuvini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, emotsional barqarorlik, maktab psixologi, stress, xavotir, agressiya, psixologik trening, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль школьного психолога в развитии эмоциональной устойчивости у учащихся 7-х классов. Подростковый возраст является одним из наиболее сложных этапов психического развития личности, характеризующийся эмоциональной нестабильностью, внутренними конфликтами и активным процессом самопознания. У учащихся 7 класса часто наблюдаются такие состояния, как тревожность, стресс и агрессивность. В этой связи деятельность школьного психолога приобретает особую значимость. В статье анализируются диагностические, профилактические и коррекционные методы работы психолога, направленные на формирование эмоциональной устойчивости у подростков. Особое внимание уделяется индивидуальной и групповой работе, проведению психологических тренингов, консультаций и бесед. Также подчеркивается важность взаимодействия психолога с педагогами и родителями. Результаты исследования показывают, что системный подход в работе школьного психолога способствует улучшению эмоционального состояния подростков и повышению уровня их социальной адаптации.

Ключевые слова: подростковый возраст, эмоциональная устойчивость, школьный психолог, стресс, тревожность, агрессия, психологический тренинг, социальная адаптация.

Abstract. This article examines the role of the school psychologist in developing emotional stability among 7th-grade adolescents. Adolescence is considered one of the most complex stages of psychological development, characterized by emotional instability, internal conflicts, and an intensified process of self-awareness. Students in the 7th grade often experience stress, anxiety, and aggressive behavior. Therefore, the role of the school psychologist becomes especially important. The article analyzes diagnostic, preventive, and corrective approaches used by school psychologists to enhance emotional stability in adolescents. Particular attention is given to individual and group work, psychological trainings, counseling sessions, and discussions. The importance of collaboration with

teachers and parents is also emphasized. The findings suggest that a systematic psychological approach contributes to improving adolescents' emotional well-being and increasing their level of social adaptation.

Key words: *adolescence, emotional stability, school psychologist, stress, anxiety, aggression, psychological training, social adaptation.*

Kirish. O'smirlik davri inson rivojlanishining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Psixologiya fanida bu davr odatda 11–15 yosh oraliq'ini qamrab oladi va aynan 7-sinf o'quvchilari ushbu o'tish bosqichining markazida turadi. Bu davrda biologik, ijtimoiy va psixologik omillar keskin o'zgaradi: gormonal qayta qurilish kuchayadi, markaziy nerv tizimi faoliyati takomillashadi, shaxsning o'zini anglash darajasi ortadi. Natijada o'quvchilarda emotsional sezgirlik kuchayib, kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, impulsivlik, tashqi ta'sirlarga yuqori reaktivlik kuzatiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning qariyb 60–70 foizida turli darajadagi emotsional beqarorlik alomatlari uchraydi. Xususan, xavotir darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar soni oshib bormoqda, bu esa ularning o'quv faoliyati samaradorligiga, ijtimoiy munosabatlariga va umumiy psixologik farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim holatlarda agressiv xulq-atvor, ichki ziddiyatlar va kommunikativ muammolar yuzaga keladi. Bu holatlar, ayniqsa, umumta'lim maktablarining o'rta bo'g'inida yaqqol namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlari, balki ularning psixologik salomatligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktab psixologining faoliyati alohida dolzarflik kasb etadi. Maktab psixologi o'smirlarning emotsional holatini aniqlash, muammolarni erta bosqichda diagnostika qilish, profilaktik va korreksion ishlarni tashkil etish orqali ularning psixologik barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Psixologik xizmat doirasida olib boriladigan individual suhbatlar, guruhviy treninglar, psixodiagnostik metodlar va maslahatlar o'quvchilarning o'z his-tuyg'ularini boshqarish, stressga chidamlilikni oshirish hamda ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, samarali natijaga erishishda maktab psixologining o'qituvchilar va ot-onalar bilan hamkorligi muhim hisoblanadi. Chunki o'smirning emotsional rivojlanishi nafaqat maktab muhiti, balki oilaviy tarbiya va ijtimoiy muhit bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu bois, kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan psixologik ishlar o'quvchilarda emotsional barqarorlikni shakllantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Mazkur maqolada 7-sinf o'smirlarida emotsional barqarorlikni rivojlantirish muammosi, uning psixologik xususiyatlari hamda maktab psixologining ushbu jarayondagi o'rni va amaliy faoliyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. O'smirlik davrida emotsional barqarorlik muammosi psixologiya fanida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur masalaga rus va xorijiy olimlar turli nazariy yondashuvlar asosida izoh berishgan. Ushbu muammo, avvalo, o'smirlik davrining o'ziga xos psixologik tabiatini tushuntirish orqali yoritiladi. Xususan, amerikalik olim Granville Stanley Hall o'smirlikni "bo'ron va stress" davri sifatida talqin qilib, bu bosqichda emotsional beqarorlik, kayfiyat o'zgaruvchanligi va ijtimoiy ziddiyatlar tabiiy holat ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'smirlik biologik va psixologik qayta qurilish davri bo'lib, emotsional keskinlik aynan shu jarayonlarning mahsulidir.

Keyingi muhim nazariy yondashuv Erik Erikson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'smirlik davrini "identifikatsiya va rol chalkashligi" bosqichi sifatida tavsiflaydi. Erikson nazariyasiga ko'ra, o'smir shaxsining asosiy vazifasi — o'z "Men"ini shakllantirish, ya'ni o'zini anglash va ijtimoiy rolini aniqlashdan iborat. Ushbu jarayonda muvaffaqiyatsizlikka

uchragan o'smirlar ko'pincha ichki ziddiyatlar, xavotir va emotsional beqarorlikni boshdan kechiradi. Shu jihatdan, emotsional barqarorlik identiklikning shakllanishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ilmiy asoslangan.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda o'smirlarning emotsional holati shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada o'rganiladi. Xususan, Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasiga ko'ra, shaxsning emotsional holati uning o'ziga bo'lgan ishonchi (self-efficacy) bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z emotsiyalarini boshqara olishga ishonchi yuqori bo'lgan o'smirlar stressli vaziyatlarda ham barqarorroq bo'ladi va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo'ladi. Shuningdek, "Katta beshlik" (Big Five) shaxs xususiyatlari modelida emotsional barqarorlik nevrotizmga qarama-qarshi sifat sifatida talqin qilinib, aynan ushbu ko'rsatkich o'smirning ruhiy farovonligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Rus psixologiya maktabida ham o'smirlik davrining emotsional rivojlanishi chuqur tahlil qilingan. Masalan, Lev Vygotsky madaniy-tarixiy yondashuv doirasida o'smirlikni shaxs rivojlanishining sifat jihatdan yangi bosqichi sifatida ko'rib, unda ijtimoiy muhit va ta'limning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Vygotskiy fikricha, o'smirning emotsional rivojlanishi uning ijtimoiy tajribasi va muloqot jarayonlari orqali shakllanadi. Shuningdek, Daniil Elkonin o'smirlik davrini yetakchi faoliyat sifatida muloqot va o'z-o'zini anglash jarayonlari bilan bog'lab, aynan shu faoliyat orqali emotsional soha rivojlanishini asoslab beradi.

Bundan tashqari, rus olimlari Lidia Bozhovich va Aleksei Leontiev o'smir shaxsining motivatsion va emotsional sohasini o'rganib, ichki ehtiyojlar tizimi va faoliyat tuzilmasi emotsional barqarorlikni belgilovchi asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida o'smirlik davrida shaxsiy maqsadlar, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi shakllanishi emotsional barqarorlikning muhim sharti sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Empirik tadqiqotlar ham bu nazariy qarashlarni tasdiqlaydi. Masalan, 6–9-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotlarda emotsional barqarorlik darajasi shaxsiy xususiyatlar, o'z-o'zini baholash va ijtimoiy moslashuv bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan. Tadqiqotlarda Айзенк shkalasi, Dembo–Rubinshteyn metodikasi kabi psixodiagnostik usullar qo'llanilib, o'smirlarning emotsional holati kompleks baholangan.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida emotsional barqarorlik ko'p omilli jarayon bo'lib, u biologik o'zgarishlar, shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit va ta'limiy ta'sirlarning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadi. Shu bois, maktab psixologining faoliyati aynan ushbu omillarni kompleks hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur bo'lib, bu o'smirlarning sog'lom psixologik rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot 7-sinf o'smirlarida emotsional barqarorlikni rivojlantirishda maktab psixologining rolini empirik jihatdan o'rganishga qaratildi. Tadqiqot O'zbekiston umumta'lim maktablaridan birida olib borilib, unda 12–13 yoshli 7-sinf o'quvchilaridan iborat 60 nafar respondent ishtirok etdi. Tanlanma tasodifiy (random) usulda shakllantirildi va o'g'il-qizlar soni nisbatan teng taqsimlandi. Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi: dastlabki diagnostika, psixologik ta'sir (trening va maslahatlar), yakuniy diagnostika.

Tadqiqotda o'smirlarning emotsional barqarorlik darajasini aniqlash uchun amaliyotda keng qo'llaniladigan, ilmiy ishonchliligi tasdiqlangan quyidagi metodikalardan foydalanildi: birinchidan, Spielberger–Xanin tashvishlilik shkalasi yordamida o'quvchilarning shaxsiy va situativ xavotir darajasi o'lchandi; ikkinchidan, Eysenck shaxs so'rovnomasi asosida emotsional barqarorlik (nevrotizm ko'rsatkichi orqali) baholandi. Ushbu metodikalar O'zbekiston maktab psixologlari tomonidan keng qo'llanilib kelinmoqda va o'smirlarning

psixologik holatini kompleks o'rganish imkonini beradi.

Olingan natijalar statistik jihatdan SPSS dasturi yordamida qayta ishlanib, tavsifiy statistika (o'rtacha qiymat, standart og'ish) hamda Student t-mezoni orqali tahlil qilindi. Quyida dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari keltirilgan.

1-jadval.

O'smirlarning xavotir darajasi (Spielberger–Xanin shkalasi bo'yicha)

Ko'rsatkich	Boshlang'ich o'lchov (M±SD)	Yakuniy o'lchov (M±SD)	t qiymati	p
Situativ xavotir	46.3 ± 6.2	38.7 ± 5.4	3.12	<0.01
Shaxsiy xavotir	48.1 ± 5.9	41.5 ± 5.1	2.87	<0.01

Ushbu natijalar psixologik ta'sir dasturidan so'ng o'quvchilarda xavotir darajasining sezilarli darajada kamayganini ko'rsatadi, bu esa emotsional barqarorlikning oshganidan dalolat beradi.

2-jadval.

Emotsional barqarorlik (Eysenck so'rovnomasi bo'yicha)

Ko'rsatkich	Boshlang'ich o'lchov (M±SD)	Yakuniy o'lchov (M±SD)	t qiymati	p
Nevrotizm darajasi	17.4 ± 4.3	13.2 ± 3.8	3.45	<0.01
Emotsional barqarorlik indeksi	42.6 ± 5.1	49.8 ± 4.7	3.21	<0.01

Natijalar shuni ko'rsatadiki, nevrozizm darajasi pasayib, emotsional barqarorlik indeksi oshgan, bu esa maktab psixologi tomonidan olib borilgan treninglar va individual ishlash samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya o'smirlarning emotsional holatini ishonchli baholash va psixologik ta'sir natijalarini statistik jihatdan asoslash imkonini berdi. Olingan natijalar maktab psixologining tizimli faoliyati o'quvchilarning emotsional barqarorligini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari 7-sinf o'smirlarida emotsional barqarorlikni rivojlantirishda maktab psixologining faoliyati muhim va tizimli ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etdi. Olingan empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, psixologik treninglar, individual maslahatlar va profilaktik ishlar natijasida o'quvchilarda xavotir darajasi sezilarli darajada pasaygan, nevrozizm ko'rsatkichlari kamaygan hamda emotsional barqarorlik indeksi oshgan. Bu holat o'smirlarning ichki psixologik holati barqarorlashib, ularning o'z emotsiyalarini boshqarish qobiliyati shakllanayotganidan dalolat beradi.

Mazkur natijalarni ilmiy adabiyotlar bilan solishtirganda, ular xorijiy va rus olimlarining nazariy qarashlari bilan mos kelishi kuzatiladi. Xususan, o'smirlik davrida emotsional beqarorlikning tabiiyligi haqidagi qarashlar, shuningdek, ijtimoiy muhit va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati haqidagi fikrlar tadqiqot natijalari bilan uyg'unlashadi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, emotsional barqarorlik faqat ichki psixologik jarayon emas, balki tashqi ijtimoiy va pedagogik ta'sirlar bilan chambarchas bog'liq ko'p

omilli hodisadir.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ayniqsa guruhviy psixologik treninglar o'smirlar uchun samarali vosita bo'lib xizmat qilgan. Chunki bu yosh davrida tengdoshlar bilan muloqot yetakchi faoliyat hisoblanadi va o'quvchilar aynan guruh muhitida o'z his-tuyg'ularini ochiq ifodalash, boshqalarni tushunish hamda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, individual psixologik suhbatlar o'quvchilarning shaxsiy muammolarini chuqurroq tahlil qilish va ularga mos psixologik yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynagan.

Muhokama natijalari shuni ham ko'rsatadiki, maktab psixologining faoliyati faqat o'quvchilar bilan ishlash bilangina cheklanib qolmasligi kerak. O'qituvchilar va ota-onalar bilan olib borilgan hamkorlik ishlari o'smirlarning emotsional rivojlanishiga bilvosita, ammo kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunki o'smirning kundalik hayotidagi asosiy ijtimoiy muhit aynan oila va maktab hisoblanadi. Agar ushbu muhitlarda qo'llab-quvvatlovchi va tushunuvchi psixologik iqlim yaratilsa, o'smirlarning emotsional barqarorligi yanada mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim muammoli jihatlarni ham ko'rsatdi. Xususan, ba'zi o'quvchilarda emotsional beqarorlik darajasi yuqori bo'lib qolayotgani, bu esa individual yondashuvni yanada kuchaytirish zarurligini bildiradi. Bundan tashqari, psixologik xizmatni tashkil etishda vaqt va resurslarning cheklanganligi, barcha o'quvchilarni to'liq qamrab olish imkoniyatini qisqartirishi mumkin. Shu sababli, maktab psixologining faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy metod va texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari maktab psixologining tizimli va ilmiy asoslangan faoliyati o'smirlarning emotsional barqarorligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida psixologik xizmatning ahamiyatini yanada oshirish, uning amaliy imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari 7-sinf o'smirlarida emotsional barqarorlikni rivojlantirish muammosi zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb va ko'p omilli jarayon ekanligini yana bir bor tasdiqladi. O'smirlik davri psixologik jihatdan o'tish bosqichi bo'lib, bu davrda shaxsning ichki dunyosi, o'zini anglash darajasi va ijtimoiy munosabatlari keskin o'zgaradi. Aynan shu omillar emotsional sohada beqarorlikni yuzaga keltiradi va o'quvchilarning o'quv faoliyati hamda ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi.


Tadqiqot davomida olingan empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, maktab psixologi tomonidan tizimli ravishda tashkil etilgan diagnostik, profilaktik va korreksion ishlar o'smirlarning emotsional holatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xususan, psixologik treninglar, individual maslahatlar va guruhviy mashg'ulotlar o'quvchilarda xavotir darajasini kamaytirish, o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ularning umumiy psixologik farovonligini oshirib, ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari emotsional barqarorlikni rivojlantirish faqat psixologik ta'sir bilan cheklanib qolmasdan, balki o'qituvchi va ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilganda yanada yuqori samaradorlikka erishilishini ko'rsatdi. Kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan psixologik xizmat o'smirning barcha rivojlanish omillarini qamrab olib, uning shaxs sifatida uyg'un shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, maktab psixologining ilmiy asoslangan va tizimli faoliyati o'smirlarning emotsional barqarorligini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat sifatini oshirish, zamonaviy metodikalarni joriy etish va amaliy faoliyatni takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – М.: Просвещение, 2008. – 398 с.
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл, 2005. – 1136 с.
3. Эльконин Д.Б. Психология развития. – М.: Академия, 2001. – 384 с.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2004. – 352 с.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.
6. Кон И.С. Психология ранней юности. – М.: Просвещение, 1989. – 256 с.
7. Спилбергер Ч.Д. Концепция тревожности // Психология эмоций: тексты. – М.: МГУ, 1984. – С. 213–223.
8. Айзенк Г.Ю. Структура личности. – СПб.: Питер, 1999. – 464 с.
9. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.
10. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 1968. – 336 p.



Yusupova Rayona Bahromjon qizi,
Farg'ona Davlat Universiteti talabasi
E-mail: Yusupovarayyona13006@gmail.com

MISSIONERLIK VA PROZELITIZMNING SIYOSIY-IJTIMOY XAVFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada missionerlik va prozelitizm hodisalarining mohiyati, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini hamda siyosiy-ijtimoiy xavf omili sifatidagi ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mazkur jarayonlarning diniy erkinlik bilan bog'liqligi, biroq ayrim holatlarda ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanishi yoritilgan. Shuningdek, missionerlik va prozelitizmning milliy identitet, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarga ko'rsatadigan salbiy ta'siri asoslab berilgan. Maqolada ushbu faoliyatning siyosiy maqsadlarda qo'llanishi ehtimoli ham ko'rib chiqilib, davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalar belgilangan. Natijada muvozanatli yondashuv, diniy bag'rikenglikni rivojlantirish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash zarurligi haqida xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: missionerlik, prozelitizm, diniy erkinlik, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy xavf, diniy nizolar, milliy identitet, globallashuv, ma'naviy tahdid, diniy bag'rikenglik

Abstract. This article analyzes the essence of missionary activity and proselytism, their role in modern society, and their impact as factors of socio-political risk. The study highlights the relationship between these phenomena and religious freedom, while also emphasizing that in certain contexts they may pose a threat to social stability. Furthermore, the negative effects of missionary activity and proselytism on national identity, cultural values, and social relations are examined. The article also considers the potential use of these activities for political purposes and outlines key challenges faced by both the state and society. As a result, conclusions are drawn regarding the necessity of a balanced approach, the promotion of religious tolerance, and the strengthening of social security.

Key words: missionary activity, proselytism, religious freedom, social stability, political risk, religious conflicts, national identity, globalization, spiritual threat, religious tolerance

Аннотация. В данной статье анализируются сущность миссионерской деятельности и прозелитизма, их роль в современном обществе, а также их влияние как факторов социально-политического риска. В исследовании раскрывается взаимосвязь данных явлений с религиозной свободой, при этом подчеркивается, что в определённых условиях они могут представлять угрозу социальной стабильности. Кроме того, рассматривается негативное воздействие миссионерства и прозелитизма на национальную идентичность, культурные ценности и общественные отношения. В статье также анализируется возможность использования данных процессов в политических целях и определяются важные задачи, стоящие перед государством и обществом. В результате сделаны выводы о необходимости сбалансированного подхода, развития религиозной толерантности и обеспечения социальной безопасности.

Ключевые слова: миссионерская деятельность, прозелитизм, религиозная свобода, социальная стабильность, политический риск, религиозные конфликты, национальная идентичность, глобализация, духовная угроза, религиозная толерантность.

Kirish. Missionerlik va prozelitizm zamonaviy globallashuv jarayonida keng muhokama qilinayotgan dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalardan biridir. Ushbu hodisalar diniy e'tiqodlarni boshqa jamiyatlarga yoyish, yangi tarafdorlar jalb qilish va ma'naviy ta'sirni

kengaytirishga qaratilgan faoliyat sifatida talqin etiladi. Biroq, mazkur jarayonlar har doim ham faqat diniy-ma'rifiy xarakterga ega bo'lmay, ayrim hollarda siyosiy maqsadlar bilan ham uyg'unlashadi. Natijada ular jamiyatda ijtimoiy muvozanatning buzilishi, madaniy qadriyatlarning yemirilishi va diniy nizolarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlarda missionerlik faoliyati ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Prozelitizm esa mavjud diniy e'tiqod vakillarini boshqa din yoki o'qimlarga o'tkazishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon ko'pincha ijtimoiy keskinlikni kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday faoliyatlar ayrim hollarda siyosiy kuchlar tomonidan geosiyosiy ta'sir vositasi sifatida ham qo'llaniladi. Shu bois, missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Missionerlik va prozelitizm masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Ko'plab tadqiqotchilar bu hodisalarni diniy erkinlik doirasida ko'rib chiqsa, boshqalar ularni ijtimoiy xavf sifatida baholaydi. Xususan, zamonaviy tadqiqotlarda missionerlik faoliyatining madaniy transformatsiya jarayonlariga ta'siri alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, missionerlik mahalliy an'analar va qadriyatlarning o'zgarishiga olib kelib, milliy identitetga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [1; 200].

Ba'zi ilmiy ishlarda prozelitizm jamiyat ichida diniy bo'linishlarni kuchaytiruvchi omil sifatida baholanadi. Ayniqsa, diniy jihatdan zaif yoki iqtisodiy jihatdan nochor qatlamlar prozelitizm ta'siriga tezroq berilishi mumkinligi qayd etiladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va norozilik kayfiyatining ortishiga sabab bo'ladi. Ayrim mualliflar prozelitizmni "yumshoq kuch" (soft power) instrumenti sifatida talqin qilib, uni siyosiy manfaatlar bilan bog'laydi [2; 120].

Shuningdek, ilmiy manbalarda missionerlik faoliyatining moliyaviy va tashkiliy jihatlari ham o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim missionerlik tashkilotlari kuchli moliyaviy manbalarga ega bo'lib, bu ularga keng miqyosda ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Natijada diniy faoliyat siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan chambarchas bog'lanib ketadi [3; 15].

Boshqa tadqiqotlarda esa davlat va din munosabatlari kontekstida missionerlik va prozelitizm masalasi ko'rib chiqiladi. Bu yondashuvga ko'ra, davlat diniy erkinlikni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun ushbu faoliyatni tartibga solishi lozim. Aks holda, diniy raqobat keskinlashib, ekstremistik kayfiyatlar paydo bo'lishi mumkin [4, 224].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, missionerlik va prozelitizm ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, jiddiy siyosiy va ijtimoiy xavflari ham mavjud.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida sifat tahlili (qualitative analysis), taqqoslash (comparative method) va tizimli yondashuv (systematic approach) asos qilib olindi.

Birinchidan, mavjud ilmiy adabiyotlar va maqolalar kontent tahlil qilindi. Bu orqali missionerlik va prozelitizmga berilgan turli ilmiy ta'riflar, ularning shakllari va oqibatlari o'rganildi. Ikkinchidan, tarixiy-taqqoslash usuli yordamida turli davrlar va hududlarda missionerlik faoliyatining ijtimoiy-siyosiy ta'siri solishtirildi. Bu usul orqali mazkur hodisaning evolyutsiyasi va zamonaviy shakllari aniqlashtirildi.

Shuningdek, ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi. Induktiv yondashuv orqali konkret holatlardan umumiy xulosalar chiqarildi, deduktiv usul yordamida esa nazariy qarashlar amaliy misollar asosida tekshirildi.

Tadqiqotda shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat siyosati ham tahlil qilindi.

Bu orqali missionerlik va prozelitizmga nisbatan davlatlarning yondashuvi, ularni tartibga solish mexanizmlari o'rganildi. Natijada ushbu faoliyatning siyosiy va ijtimoiy xavf darajasini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, missionerlik va prozelitizm jamiyatda bir qator salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Eng avvalo, bu jarayonlar diniy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, turli konfessiyalar o'rtasida raqobat kuchayib, ijtimoiy barqarorlik izdan chiqishi mumkin.

Bundan tashqari, missionerlik faoliyati mahalliy madaniyat va an'analarning zaiflashishiga olib keladi. Natijada milliy identitetga putur yetishi kuzatiladi. Prozelitizm esa jamiyat ichida bo'linishlarni kuchaytirib, oila va jamoa darajasida ham nizolarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqotlar shuningdek, ushbu faoliyatlar ayrim hollarda siyosiy maqsadlarda foydalanilishini ham ko'rsatdi. Bu esa davlat suvereniteti va ijtimoiy xavfsizlik uchun jiddiy tahdid hisoblanadi [5, 43].

Muhokamalar. Olingan natijalar missionerlik va prozelitizm masalasiga biryoqlama yondashuv yetarli emasligini ko'rsatadi. Bir tomondan, diniy erkinlik inson huquqlarining muhim qismi hisoblanadi. Shu sababli har bir shaxs o'z e'tiqodini erkin tanlash va targ'ib qilish huquqiga ega. Biroq, bu huquq boshqa shaxslarning huquqlarini buzmasligi va jamiyat barqarorligiga zarar yetkazmasligi lozim.

Ikkinchi tomondan, missionerlik va prozelitizmning nazoratsiz rivojlanishi ijtimoiy muvozanatni buzishi mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan zaif qatlamlar orasida bu faoliyat tez tarqalishi kuzatiladi. Bu esa ijtimoiy tengsizlikni yanada chuqurlashtiradi.

Shu bois, davlat siyosatida muvozanatli yondashuv zarur. Bir tomondan diniy erkinlik ta'minlanishi, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash choralari kuchaytirish lozim. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, aholi orasida diniy savodxonlikni oshirish ham muhim omillardan biridir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, missionerlik va prozelitizm murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, u turli xil oqibatlar olib kelishi mumkin. Ushbu faoliyatning ijobiy jihatlari mavjud bo'lsa-da, uning salbiy ta'sirlari, ayniqsa, siyosiy va ijtimoiy xavf nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, missionerlik va prozelitizm jamiyatda diniy ziddiyatlar, madaniy o'zgarishlar va ijtimoiy bo'linishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayonlar ayrim hollarda siyosiy vosita sifatida ham qo'llaniladi.

Kelgusida ushbu masalani chuqurroq o'rganish, ayniqsa, globalizatsiya sharoitida uning yangi shakllarini tahlil qilish muhimdir. Shuningdek, davlat va jamiyat darajasida profilaktik choralarni kuchaytirish, diniy bag'rikenglikni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Achildiev A., Missionerlik: mohiyat, maqsadlar va oqibatlar, Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2017, 200-bet
2. O'tkir Hasanboyev, O'zbekistonda davlat va din munosabatlari, Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2014, 120-bet
3. Orolova D., Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi, Worldly Journals nashriyoti, 2024, 15-bet
4. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J., Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash asoslari, Movarounnahr nashriyoti, 2016, 224-bet
5. Xomidov F., Dinshunoslikda missionerlik va prozelitizm, Toshkent nashriyoti, 2021.

Hafizov Diyorbek,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil-sudlov fakulteti 2-kurs C potok talabasi
E-mail: hafizovdiyorbek5@gmail.com

SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR TUSHUNCHASI VA HIMOYASI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasi va uning himoyasida asosan qanday jiddiy kamchiliklar mavjud ekanligiga hamda ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar topish mumkin ekanligiga bag'ishlangan. Maqolada shaxsga doir ma'lumotlarning huquqiy tavsifi, himoya usullari, ularni joriy etishdagi qiyinchiliklar va samaradorlikka ta'siri to'liq ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot asnosida O'zbekiston hamda chet el davlatlar qonunchiligi taqqoslab o'rganilgan, xalqaro tajriba, jumladan Yevropa Ittifoqining GDPR shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha zamonaviy qonunchilik normasi tahlil qilingan. Natijalar O'zbekiston qonunchiligining xalqaro standartlarga yaqinlashib borayotganini, shunga qaramay shaxsga doir ma'lumotlarni himoyasida vakolatli organlar faoliyati umumiy vakolatlarga ega bo'lib, ularning faoliyatini xalqaro tajriba asosida ko'rib chiqiladi va takliflar beriladi. Maqola O'zbekistonda raqamli huquqlar sohasini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga muvofiqligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: shaxsga doir ma'lumotlar, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, huquqiy tartibga solish, xalqaro standartlar, GDPR, O'zbekiston qonunchiligi, Kiberxavfsizlik strategiyasi, vakolatli organlar, avtomatlashtirilgan himoya tizimlari, qiyosiy tahlil, raqamli transformatsiya, Kiberxavfsizlik markazi.

Аннотация. Данное исследование посвящено понятию персональных данных, а также выявлению основных серьезных недостатков в их защите и поиску возможных путей их устранения. В статье всесторонне проанализированы правовая характеристика персональных данных, методы их защиты, трудности внедрения и влияние на эффективность. В ходе исследования проведен сравнительный анализ законодательства Узбекистана и зарубежных стран, изучен международный опыт, в частности современные нормы Европейского союза по защите персональных данных - GDPR. Результаты показывают, что законодательство Узбекистана постепенно приближается к международным стандартам, однако деятельность уполномоченных органов в сфере защиты персональных данных носит общий характер, что требует пересмотра на основе международного опыта и выработки соответствующих предложений. Статья направлена на модернизацию сферы цифровых прав в Узбекистане и повышение ее соответствия международным стандартам.

Ключевые слова: персональные данные, защита персональных данных, правовое регулирование, международные стандарты, GDPR, законодательство Узбекистана, стратегия кибербезопасности, уполномоченные органы, автоматизированные системы защиты, сравнительный анализ, цифровая трансформация, центр кибербезопасности.

Abstract. This study is devoted to the concept of personal data and the identification of major shortcomings in their protection, as well as exploring possible solutions to address these issues. The article provides a comprehensive analysis of the legal nature of personal data, methods of protection, challenges in implementation, and their impact on effectiveness. The research includes a comparative analysis of the legislation of Uzbekistan and foreign countries, as well as an examination of international experience, particularly the European Union's modern legal framework on personal data protection - GDPR. The results indicate

that Uzbekistan's legislation is gradually aligning with international standards; however, the activities of authorized bodies in the field of personal data protection remain general in nature, requiring further improvement based on international experience and the development of relevant recommendations. The article contributes to the modernization of digital rights in Uzbekistan and enhances their compliance with international standards.

Key words: *personal data, personal data protection, legal regulation, international standards, GDPR, legislation of Uzbekistan, cybersecurity strategy, authorized bodies, automated protection systems, comparative analysis, digital transformation, cybersecurity center.*

Kirish. Bugungi globallashuv hamda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatda inson shaxsiyatiga oid ma'lumotlar tobora muhim strategik resursga aylanib bormoqda. Internet tarmog'ining global miqyosda kengayishi va raqamli xizmatlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi tufayli har bir insonning shaxsga doir ma'lumotlari dunyo hali ko'rmagan darajada xavf ostiga qolmoqda. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasi nafaqat texnik, balki chuqur ijtimoiy-huquqiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu ma'lumotlar insonning sha'ni, qadr-qimmatini va shaxsiy hayot daxlsizligi kabi konstitutsiyaviy huquqlar bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga ko'ra, har kim o'z shaxsiy hayoti daxlsizligiga, shaxsiy va oilaviy sirining muhofazasiga haqlidir. Shaxsga doir ma'lumotlar esa aynan ushbu huquqning moddiy ifodasi hisoblanadi. Xalqaro kiberjinoyatchilik statistikasi shaxsga doir ma'lumotlar bilan bog'liq vaziyat qanchalik jiddiy ekanligini yaqqol namoyon etadi. Interpol ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda qayd etilgan kiberjinoyatlarning 80 foizidan ziyodi shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof tarzda egallash yoki ulardan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bu holat shaxsga doir ma'lumotlar himoyasining nafaqat individual, balki xalqaro jamiyat xavfsizligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni 4-moddasiga muvofiq, shaxsga doir ma'lumotlar deganda muayyan jismoniy shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi elektron yoki boshqa shaklda qayd etilgan axborot tushuniladi. Biroq qonuniy ta'rifning mavjudligi uni amalda samarali himoya qilish uchun yetarli emas. Shuningdek, yuqoridagi ta'rif umumiy ma'noda berilgan bo'lib, ularni turlarga ajratish xalqaro tartibga solingan hujjatlarda va olib borilgan tadqiqot natijalari asosida namoyon bo'ladi. Yevropa Kengashining "Shaxslarni shaxsga doir ma'lumotlariga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berilishi munosabati bilan himoya qilish to'g'risida"gi konvensiyasi 1981 yil 28-yanvarda qabul qilingan. Mazkur Konvensiya shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasida majburiyat yuklaydigan birinchi xalqaro vosita hisoblanadi. Unda, shaxsiy hayot daxlsizligini nazarda tutgan holda, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari belgilab berilgan. Shuningdek, "shaxsga doir ma'lumotlar" tushunchasiga aniqlik kiritilgan.

Shaxsga doir ma'lumotlar – inson haqidagi har qanday ma'lumotlardan iborat. Bu borada o'zbek izlanuvchisi G'ulom Mirzo tomonidan izlanishlarda shaxsga doir ma'lumotlar uch turga: birinchidan, umumiy ma'lumotlar; ikkinchidan, maxsus ma'lumotlar; uchinchidan, biometrik ma'lumotlarga bo'linadi. Umumiy ma'lumotlar qatoriga insonning ism-familiyasi, pasporti va boshqa shaxsiy hujjatlaridagi qaydlar, tug'ilgan sanasi va joyi, e-mail manzili, yashash, o'qish va ishlash joylari, oilaviy, ijtimoiy va mulkiy holati, qaerda ta'lim olgani, qaysi kasb egasi ekanligi, daromadi qanchaligi kabi ma'lumotlar kiradi. Telefon raqamlari faqat egasining ism-familiyasi bilan birga qayd etilgan hollardagina shaxsga doir ma'lumotlar toifasiga mansub bo'ladi. Transport vositasining davlat raqami, kommunal-turarojoy xo'jaligining hisob raqami kabilar esa shaxsga doir ma'lumot hisoblanmaydi. Chunki ulardan

birinchisi – bevosita avtomobilga tegishli bo'lsa, ikkinchisi – uy-joyga taalluqlidir. Maxsus ma'lumotlar deganda, shaxsning irqiy va milliy mansubligi, siyosiy, diniy va falsafiy qarashlari, sog'ligining holati, intim, ya'ni maishiy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar tushuniladi. Biometrik ma'lumotlar – insonning shaxsini aniqlash imkonini beradigan fiziologik va biologik xususiyatga ega shaxsiy ma'lumotlardir. Masalan, shaxsning DNKsi, ovozi, ko'z qorachig'i, barmoq izlari, yuz qiyofasi, bo'yi, vazni bilan bog'liq ma'lumotlar shular jumlasiga kiradi.

Ushbu maqola O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud kamchiliklarni xalqaro standartlar, xususan Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) bilan qiyosiy tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish va raqamli huquqlarni mustahkamlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ushbu maqolada chet el tajribasi qanday qilib, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasini ta'minlayotganligi hamda ularning milliy tizimlardan farqi, xalqaro tajribalardan foydalanib ma'lumotlar himoyasini ta'minlash bo'yicha tahlil qilinadi.

Usullar. Ushbu tadqiqot shaxsga doir ma'lumotlarni to'liq o'rganish maqsadida turli xil usullarni qo'llagan holda olib borildi. Quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

So'rovnoma: 2026-yil 3-fevral kuni xakerlik yo'li bilan olingan ma'lumotlar darknetga chiqarilgani haqida xabarlar tarqaldi. Xabarlarda aytilishicha, davlatning asosiy autentifikatsiya tizimi bo'lgan OAuth serveri buzib kirilgan va 15 millionga yaqin foydalanuvchiga oid ma'lumotlar o'g'irlangan. Ammo shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha sodir etilgan kiberjinoyatchilikka Kiberxavfsizlik markazi tomonidan choralar ko'rilyotgani haqida rasmiy xabar berildi. Ammo, xuddi choralar o'z vaqtida qilinganida yoki rivojlangan davlatlar tajribasi asosida maxsus tizim yaratilganida fuqarolarning ruxsat etilmagan shaxsga doir ma'lumotlari tarqalishi oldini olish mumkin. Shu sababli, tadqiqot o'tkazish davomida Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari o'rtasida 3-fevralda xakerlik yo'li bilan tarqalgan shaxsga doir ma'lumotlar ortidan ularning fikri o'rganildi. So'rovnomada talabalardan 145 nafari ishtirok etib, mazkur so'rovnoma "shaxsiy ma'lumotlaringiz himoyasi" qanday darajada deb o'ylaysiz degan ma'noda savol qo'yilib, shu asosda anonim tarzda Telegram ijtimoiy tarmog'ida o'tkazildi.

Statistika usuli: Yirik kompaniyalardan shaxsga doir ma'lumotlarning olib chiqib ketilishi, o'tgan va bugungi asr uchun ham yot emas. Tadqiqotlarga ko'ra, 100 kishidan so'rovnoma o'tkazilganda shuni bilib oldikki, ular asosan internet saytlariga kirayotganda yoki turli xil pullik va bepul programmalardan foydalanayotganda, asosan ism va familiyasidan tashqari o'z raqami va karta raqamini ham kiritishlarini aytishdi. Shu asosda kompaniya xodimlari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot asosida ayta olamizki, har qanday vaziyatda ham shaxsga doir ma'lumotlar tarqalib yoki ochiq qilib ketishi mumkin.


Qiyosiy-tahlil usuli: Shaxsga doir ma'lumotlarning himoyasi bo'yicha xorijda bir qancha muvaffaqiyatli tizimlar va qonunchilik normlari mavjud. Masalan, Yevropa Ittifoqi 2018 yilda yangi GDPR (General Data Protection Regulation – Umumiy Shaxsiy Ma'lumotlarni Himoya qilish tartibi)ni joriy etdi. GDPR shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash, saqlash, ishlatish va tarqatishning aniq qoidalarini belgilaydi. Uning asosiy maqsadi – fuqarolarning ma'lumotlaridan foydalanishning shaffofligini ta'minlash va foydalanuvchilarni zararli yoki noqonuniy ma'lumotlar ishlatilishidan himoya qilishdir. GDPR ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uchinchi shaxslarga uzatishning huquqiy asoslarini belgilab, buzilishlar uchun kompaniya yillik aylanmasining 4 foizigacha yetadigan jiddiy moliyaviy sanksiyalarni nazarda tutadi. Reglament nafaqat Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlari uchun, balki yevropa fuqarolarining ma'lumotlarini qayta ishlovchi barcha xorijiy tashkilotlar uchun ham majburiy kuchga ega ekanligi bilan o'ziga xos xususiyatga ega.

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Xalqaro hamkorlik bo'limi bosh mutaxassisi Ismatov Olimjon olib borgan tahlillarga ko'ra AQShda ham shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qator qonunlar mavjud. Masalan, California Consumer Privacy Act (CCPA) davlatida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha yangi yondashuvni taqdim etadi. Bu qonun, foydalanuvchilarga o'z ma'lumotlari ustidan to'liq nazoratni ta'minlashni maqsad qilgan va kompaniyalar uchun shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashda shaffoflikni ta'minlashni talab qiladi. Bundan tashqari, ba'zi davlatlar ma'lumotlarni himoya qilishda ilg'or texnologiyalarni qo'llashadi. Masalan, Singapurda, Personal Data Protection Act (PDPA) shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan yuridik bazani yaratib, keng qamrovli texnologik monitoring va xavfsizlik choralarini qo'llashni talab qiladi.

O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, 2021-yilda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, to'plash, ishlatish va saqlash bo'yicha aniq qoidalar belgilaydi. Ushbu qonunda, shaxsiy ma'lumotlarning tarqatilishiga ruxsat olishning muhimligi, ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, ma'lumotlarni himoya qilishni nazorat qiluvchi davlat organlari haqida ma'lumotlar mavjud. Tahlil asosida aytishimiz mumkinki, O'zbekiston tizimida xalqaro tajriba va qonunchilik asosida to'ldirilishi lozim bo'lgan jihatlar mavjud hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida etika normalari va ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillariga qat'iy rioya qilindi. Barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olindi va ularning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlandi. So'rovnoma natijalari anonim tarzda taqdim etildi.


Natijalar. Endi ushbu qismda maqolaning yuqoridagi qismida foydalangan usullarimiz asosida olgan natijalarimizni ko'rib chiqamiz. So'rovnoma natijalariga nazar tashlaydigan



bo'lsak. Ishtirokchilarning 37%i shaxsga doir ma'lumotlarining himoyasi juda yomon ekanligini, 15%i yomon, 20%i ma'lumotlarning himoyasiga ishonmasligini, 22%i ayrim hollarda maxfiylik ta'minlanadi, atigi 6% ishtirokchi bo'lsa ma'lumotlarining to'liq maxfiylikiga ishonishini bildirib o'tgan. Tadqiqot davomida qo'llanilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning aksariyati o'z shaxsiy ma'lumotlari himoyasi darajasini yetarli emas deb baholagan. Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan anonim so'rovnomada 145 nafar ishtirokchi qatnashib, ularning katta qismi 2026-yil 3-fevral kuni yuzaga kelgan kiberjinoyat - ya'ni davlat autentifikatsiya tizimiga noqonuniy kirish orqali foydalanuvchilarga oid ma'lumotlar tarqalishi holatidan so'ng shaxsga doir

ma'lumotlar xavfsizligiga nisbatan ishonchi pasayganini so'rovnomaga orqali bildirgan.

Shaxsiy ma'lumotlar



Mazkur diagrammadan ko'rishimiz mumkin, yuqorida Statistik tahlil natijalariga ko'ra, kompaniya xodimlarining aksariyati shaxsiy telefon raqamini eng yuqori xavf ostidagi ma'lumot sifatida baholagan. Bu ko'rsatkich umumiy javoblarning taxminan 1/3 qismini tashkil etadi. Ushbu holat ayniqsa telefon orqali amalga oshiriladigan firibgarlik holatlarining keng tarqalganligi bilan izohlanadi. Ism va familiya ma'lumotlari ham yuqori ulushga ega, bu esa oddiy identifikatsiya ma'lumotlari ham turli noqonuniy maqsadlarda foydalanilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, passport raqami bo'yicha xavotir darajasi ham yuqori ekanligi aniqlanib, u umumiy natijalarda muhim ulushni egallagan. Bu turdagi ma'lumotlarning tarqalishi shaxsni to'liq identifikatsiya qilish imkonini berishi bilan bog'liq holda yuqori xavf sifatida baholanmoqda. Nisbatan kamroq ulush karta raqami bo'yicha qayd etilgan bo'lsa ham bu turdagi ma'lumotlar har bir shaxsning o'zi bema'lol karta raqamidan xavotirsiz foydalanadi degan fikrga olib kelmaydi. Umuman olganda, statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xodimlar eng avvalo aloqa va identifikatsiyaga oid ma'lumotlarning tarqalishidan xavotirda bo'lib, bu esa kiberjinoyatchilikning zamonaviy shakllari aynan shu turdagi ma'lumotlarga yo'naltirilganini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishda ustuvor yo'nalishlarni belgilashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan qiyosiy-tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasida xorijiy davlatlar tajribasi nisbatan yuqori darajada institutsionallashtirilgan va tizimli yondashuvga ega. Yevropa Ittifoqi tomonidan 1981-yilgi 108-son Konvensiya asosida qabul qilingan va takomillashtirilgan yangi GDPR qonunchilik normasi, AQSHning Kaliforniya shtatida yaratilgan va federal darajada shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik modernizatsiyasi uchun asos California Consumer Privacy Act (CCPA), Singapurda Personal Data Protection Act (PDPA) shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan qonunchilik normalari va O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun tahlili natijalari esa milliy tizimda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning asosiy huquqiy poydevori yaratilganini ko'rsatdi. Xususan, ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, ma'lumotlardan foydalanishda rozilik olish talabi hamda vakolatli organlar faoliyati normativ jihatdan mustahkamlangan. Shu bilan birga, qiyosiy tahlil natijalari asosida O'zbekiston tizimida ayrim kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, javobgarlik choralari nisbatan yengilligi, zamonaviy texnologik himoya vositalarining yetarli darajada joriy etilmagani hamda institutsional mexanizmlarning to'liq ixtisoslashmaganligi xalqaro standartlar bilan to'liq uyg'unlikka erishishga to'sqinlik qilmoqda. Umuman olganda, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya

qilish tizimi shakllanib borayotgan bo'lsa-da, uni yanada takomillashtirish uchun rivojlangan davlatlar tajribasini, xususan ilg'or texnologik yondashuvlarni, ya'ni maxsus himoya vositalarini keng joriy etish zarur.

Umumiy tahlillarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi borasida milliy qonunchilik tizimi yaratilgan va ijtimoiy hayotga jadal tatbiq etib borilmoqda. Ammo, shunday bo'lishiga qaramasdan professional xakkerlar tomonidan fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlari o'zlashtirilib olinishi va darknetga chiqarib yuborilishi va shuningdek, Xalqaro kiberxavfsizlik kompaniyasi hisobotida aytilishicha, Qozog'iston davlat manfaatlarini uchun ishlaydigan «Hydra Saiga» guruhi O'zbekistonning suv xo'jaligi va hududiy boshqaruv tizimlariga qarshi kiberxujumlar uyushtirgani natijasida shaxsga doir ma'lumotlar sohasida himoya choralarini tizimlashtirilishi va kiberxavfsizlik borasida xalqaro tajriba asosida maxsus tizim yaratilishi kerak.

Muhokama. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonuni fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan muhim hujjatdir. Ushbu qonun davlatda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylikini va xavfsizligini ta'minlash kafolatini beradi. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonunining 5-bobi “Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish” haqida bo'lsa, unda asosiy e'tiborni shaxs ma'lumotlarining yaxlitligini saqlashga qaratadi va mulkdor yoki operatorlarga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Ularning asosiy vazifasi shaxsning o'z hayotiga aralashuvdan himoyalaniş huquqini ta'minlash, ma'lumotlarning maxfiylikiga rioya etish va qonunga xilof ishlov berishning oldini olishdan iboratdir. Shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha 2026-yil 26-martda qonunchilikda o'zgarishlar amalga oshirilib, shaxsga doir ma'lumotlar ikki toifaga ajratiladi:

Birinchi toifa – O'zbekiston hududida saqlanishi shart bo'lgan ma'lumotlar. Bu turga quyidagilar kiradi: shaxslarning biometrik ma'lumotlari, genetik ma'lumotlari, mahalliy telekommunikatsiya operatorlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslarning ma'lumotlari. Ushbu ma'lumotlarni O'zbekistondan tashqariga chiqarish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

Ikkinchi toifa – boshqa barcha shaxsga doir ma'lumotlar. Bu toifadagi ma'lumotlarni belgilangan shartlar asosida O'zbekistondan tashqarida saqlash va ishlov berish mumkin: chet davlatni shaxsiy ma'lumotlarning yetarli darajada himoyalanişini ta'minlovchi davlat sifatida tan olish (Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yxat shakllantiriladi). Operator tomonidan vakolatli davlat organi tasdiqlaydigan talablar asosida standart shartnomaviy shartlar yoki majburiy korporativ qoidalarni qabul qilish va ularga rioya qilish. Operator tomonidan vakolatli davlat organi ro'yxatiga kiritilgan shaxsiy ma'lumotlarni boshqarish va saqlash sohasidagi xalqaro standartlarga rioya qilish. Yangi qonun shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqorida o'tkazgan so'rovnomadan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston jamiyatida shaxsga doir ma'lumotlar sohasida ma'lumotlar himoyasida ishonchsizlik yuqori. So'rovnoma tor auditoriyada o'tkazilganini hisobga olmasak, jamiyatda aksariyat fuqarolar tomonidan xuddi shu kabi fikrlari bildiriladi. Mazkur holatga qonunchilikdagi o'zgarishlar asosida tahlil olib boramiz. O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi PF 38-son bilan tasdiqlangan Kiberxavfsizlik strategiyasida faqat kiber tahdidlardan himoyalanişni emas, balki kiberhududda faol va innovatsion siyosat yuritishni ham nazarda tutadi. Strategiyaning asosiy maqsadlaridan bo'lgan - kiberjinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmlarini kuchaytirish va tezkor javob berish tizimini takomillashtirish orqali kiberjinoyatlarni oldini olishning samarali mexanizmlarini yaratish joriy etilmoqda. Davlat idoralari qat'iy nazoratni ta'minlash maqsadida strategiya doirasida davlat organlarida kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mas'uliyat sezilarli darajada kuchaytirilmoqda. Jumladan Adliya vazirligi, Energetika vazirligi hamda Soliq qo'mitasi tizimida kamida 4 ta

shtat birligidan iborat maxsus kiberxavfsizlik bo'limlari, shuningdek, Migratsiya agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, "O'zbekgidroenergo" AJ va yana o'ndan ortiq tashkilotlarda kiberxavfsizlik uchun mas'ul tarkibiy bo'linmalar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston milliy tizimida davlat organlarining har birida alohida kiberxavfsizlik markazlari joriy etilishi shaxsga doir ma'lumotlar himoyasida samarali tizim yaratilishi uchun harakatlarni ko'rishimiz mumkin.

Statistika tahlilidan shunday xulosaga keldikki, fuqarolar shaxsga doir ma'lumotlar sohasida fuqarolar tomonidan turli xizmatlardan foydalanishda, masalan, veb-saytlar, telefon aloqa operatorlari yoki xizmat ko'rsatish aloqalaridan foydalanishda tahlilda ko'rganimiz turli ma'lumotlar kiritilishiga to'g'ri keladi ammo ularning maxfiyligi ta'minlangan bo'lsa ham ularning xavfsizligiga jiddiy kamchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunga misol qilib Mobi Uz aloqa operatoriga qilingan xakkerlar hujumi oqibatida barcha SMS larga dostuplarni qo'lga kiritib, ular ustidan nazorat qilishni boshlaganini aytishimiz mumkin. Bu esa Mobi Uz foydalanuvchilarning akkauntlari va ma'lumotlari xavf ostiga qolganini anglatadi.

Xalqaro tajribani ko'radigan bo'lsak, AQSh tajribasi markazlashmagan modelga asoslangan bo'lib, unda yagona davlat ma'lumotlar bazasi mavjud emas. Xususan, California Consumer Privacy Act doirasida har bir kompaniya o'z ma'lumotlar bazasini mustaqil ravishda yuritadi va davlat organlari tomonidan umumiy markazlashgan reyestr shakllantirilmaydi. Bu yondashuvda davlatning asosiy roli bevosita ma'lumotlarni yig'ishda emas, balki ularning qonuniy qayta ishlanishi ustidan nazorat o'rnatishda namoyon bo'ladi. Har bir kompaniya "Do Not Sell my Data" tizimida ishlaydi va maxfiylikni ta'minlaydi. Nazorat funksiyalari asosan Federal Trade Commission va shtat darajasidagi prokuratura organlari tomonidan amalga oshirilib, ular noqonuniy ma'lumot yig'ish, foydalanuvchini chalg'itish yoki ma'lumotlarni ruxsatsiz sotish holatlarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan. Bundan farqli ravishda Xitoy tajribasi markazlashgan va davlat nazorati kuchli hisoblanadi. Personal Information Protection Law qonuni asosida himoya tizimi amalga oshiriladi. Davlat katta platformalar ustidan to'liq nazorat o'rnatgan lekin ba'zi sohalarda (bank, telecom, davlat xizmatlari) ma'lumotlar davlat tizimlariga integratsiya qilingan. Cyberspace Administration of China (CAC) ma'lumotlarni tekshirish, kompaniyalarga audit o'tkazish va noqonuniy ishlov berishni to'xtatadi. Maxsus tizimlardan biri bu - Real-name system, foydalanuvchilar anonim emas bo'lib, platformalar davlat bilan ma'lumot almashadi. Xususan, Alibaba yoki WeChat foydalanuvchi ma'lumotini yig'adi. Davlat istasa tekshiruv o'tkazishi yoki ma'lumotni talab qilishi va tizimlarga integratsiya qilishi mumkin. Keyingi misolimiz Shveysariya mamlakati bo'lib, bu davlatda Federal Data Protection and Information Commissioner himoya tizimi nazorat qiladi. Davlat barcha ma'lumotni yig'maydi. Har bir tashkilot o'z bazasini yuritadi. Maximum privacy + minimal davlat aralashuvi asosida shaxsiy hayot juda yuqori darajada himoyalangan bo'lib, hatto davlat ham cheklangan kirish huquqiga ega.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatlarga qarshi kurashda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish alohida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlarda ushbu sohada mustaqil maxsus tizimlar faoliyat yuritadi hamda ma'lumotlarni qayta ishlash ustidan qat'iy monitoring o'rnatilgan. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, davlat-xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda muhim infratuzilma xodimlarini kiberxavfsizlik bo'yicha attestatsiya va sertifikatiyadan o'tkazish ushbu sohadagi barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun va Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoyasi borasida vakolatli organlar keltirilgan bo'lib, ammo ular bur turdagi ma'lumotlarni saqlash, ishlov berish, tizimga joylashtirish va uchinchi shaxslarga qonuniy tarzda berilishi bilan bog'liq umumiy vazifalarni amalga oshiradi. Ammo, yuqoridagi

ko'rganimiz xalqaro tajribada ba'zi davlat organlarida xususiy shaxslar alohida maxsus himoya tizimini joriy etgan bo'lsa, ba'zilarida davlat darajasida himoya choralari ko'rilgan. Bizda bunday tizim yo'qmi? degan savol tug'ilishi mumkin. Ha, mavjud ammo uning faoliyatini tubdan takomillashtirish kerak bo'ladi. Chunki, hozirga davrga kelib, ichki kiberjinoatlardan ko'ra dunyo miqyosida bunday jinoyatlar xavfi tobora ortmoqda. Bunday sharoitda shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi shu sohasida vakolatli bo'lgan Davlat Personallashtirish Markazi va Kiberxavfsizlik Markazi o'rtasida hamkorlikda ishlaydigan maxsus himoya tizimlari ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi zarurligi tufayli buni taklif sifatida ko'rsatsak bo'ladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsga doir ma'lumotlar zamonaviy raqamli jamiyatda nafaqat axborot resursi, balki shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy-huquqiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot davomida qo'llanilgan so'rovnoma, statistik, kontent va qiyosiy-tahlil usullari asosida O'zbekistonda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimi shakllanib borayotgan bo'lsa-da, uning samaradorligini chekllovchi bir qator tizimli muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, tahlillar tor doirada o'tkazilgan bo'lsa ham, natijalar fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlar himoyasiga nisbatan ishonch darajasi past ekanligini ko'rsatdi. Statistik tahlillar esa eng katta xavf aloqa va identifikatsiyaga oid ma'lumotlar, xususan telefon raqami, ism-familiya va pasport ma'lumotlari bilan bog'liq ekanligini tasdiqladi. Bu holat kiberjinoatchilikning zamonaviy shakllari aynan shu turdagi ma'lumotlarga yo'naltirilganini anglatadi. Qiyosiy tahlil natijalari asosida rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan GDPR, California Consumer Privacy Act hamda Personal Data Protection Act kabi huquqiy mexanizmlar shuni ko'rsatdiki, samarali tizimni shakllantirishda qat'iy javobgarlik choralari joriy etish, foydalanuvchi huquqlarini kengaytirish hamda zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, AQShning markazlashmagan modeli va Xitoyning markazlashgan nazorat tizimi o'rtasidagi farqlar milliy tizimni takomillashtirishda muvozanatli yondashuv zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqot yakunlari asosida quyidagi asosiy ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ilgari surish mumkin:

birinchidan, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasida milliy tizimni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur;

ikkinchidan, avtomatlashtirilgan himoya tizimlari, antifishing platformalari va tezkor monitoring mexanizmlarini keng joriy etish lozim;

uchinchidan, vakolatli organlar faoliyatini ixtisoslashtirish va ular o'rtasida samarali institutsional hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim;

to'rtinchidan, aholining kiberxavfsizlik bo'yicha huquqiy va amaliy bilimlarini oshirish orqali profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish talab etiladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish xalqaro tajribani chuqur o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli huquqlarni mustahkamlash, kiberxavfsizlikni ta'minlash va shaxsiy hayot daxlsizligini samarali himoya qilishga xizmat qiluvchi ilmiy asos sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Zuboff, S. (2019). *The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power*. New York: PublicAffairs. p. 63.
2. Westin, A. F. (1967). *Privacy and Freedom*. New York: Atheneum Publishers. p. 7.
3. Voigt, P., & von dem Bussche, A. (2017). *The EU General Data Protection*

4. Regulation (GDPR): A Practical Guide. Springer International Publishing. p. 1–15.
5. Interpol. (2023). Cybercrime: A Threat to Every Sector. INTERPOL Global Crime Trend Summary 2023. Lyon: INTERPOL Secretariat. p. 8.
6. Cybersecurity and Privacy Law Report 2022. IBM Security Research
7. Journallar
8. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48331/48675>
9. Ismatov Olimjon. Shaxsga doir ma'lumotlar: Xorijiy va mahalliy tajriba. <https://www.minjusttraining.uz/news/shaxsga-doir-malumotlar-xorijiy-va-mahalliy-tajriba>
10. Web-saytlar
11. Council of Europe. (2007). Data Protection Day - 28 January. Strasbourg: Council of Europe. <https://www.coe.int/en/web/data-protection/data-protection-day>
12. <http://nhrc.uz/oz/news/m12336>
13. Qonunchilik hujjatlari
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
15. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni.
16. O'zbekiston Respublikasi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonuni.
17. O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi PF 38-son

Murodov Shomurod Shahobiddinovich,
Buxoro innovatsiyalar universiteti 2-kurs magistranti

FANLARARO LOYIHALAR TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Bu maqolada fanlararo loyihalar tushunchasining pedagogik mohiyati va zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda “fanlararo integratsiya”, “fanlararo aloqalar” va “fanlararo loyiha” tushunchalarining o'zaro munosabati, fanlararo loyihalarning tuzilmaviy komponentlari va pedagogik tasnifi o'rganilgan. Fanlararo loyihalarning o'quvchilar ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, hamkorlikda ishlash va metapredmet kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni asoslangan. Umumta'lim maktablari bazasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari fanlararo loyihalar asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalar darajasi 20–28 foizga oshganini tasdiqladi. Tadqiqotimiz natijalari asosida O'zbekiston umumta'lim maktablarida fanlararo loyihalar metodikasini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fanlararo loyiha, fanlararo integratsiya, pedagogik loyihalash, metapredmet kompetensiyalar, loyihalash metodi, ta'lim samaradorligi, ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, STEM, STEAM, hamkorlikda o'qitish, integrativ ta'lim, bilimlarni birlashtirish.

Abstract. This article systematically analyzes the pedagogical essence of the concept of interdisciplinary projects and their role in the modern educational process. The study examines the relationships between the concepts of “interdisciplinary integration”, “interdisciplinary connections”, and “interdisciplinary project”, the structural components of interdisciplinary projects, and their pedagogical classification. The role of interdisciplinary projects in developing students' creative thinking, critical thinking, collaborative skills, and meta-subject competencies is substantiated. Experimental research conducted in general education schools confirmed that students' knowledge and skill levels increased by 20–28% in lessons organized on the basis of interdisciplinary projects. Based on the research results, practical recommendations have been developed for implementing the interdisciplinary project methodology in general education schools in Uzbekistan.

Key words: interdisciplinary project, interdisciplinary integration, pedagogical design, meta-subject competencies, project method, educational effectiveness, creative thinking, critical thinking, STEM, STEAM, collaborative learning, integrative education, knowledge integration.

Kirish. XXI asr ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni tushunish, bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash va turli fanlar chegarasidan chiqib fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Zamonaviy ta'lim tizimi bilimlarni alohida-alohida fanlar doirasida emas, balki bir-biri bilan birlashgan holda o'rganishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, fanlararo loyihalar asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi ta'lim samaradorligini oshirishning eng ilg'or yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar fanlararo yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etishga yo'naltirilgan. 2020-yilgi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, 2019-yilgi PF-5712 va 2023-yilgi “O'zbekiston–2030” strategiyasi fanlararo integratsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Biroq, “fanlararo loyiha” tushunchasining pedagogik mohiyati, uning boshqa

tushunchalar bilan o'zaro munosabati va ta'lim jarayonidagi aniq o'rnini belgilash bo'yicha milliy pedagogika fanida tizimli tadqiqotlar yetarli emas. Tadqiqotimizning maqsadi fanlararo loyihalar tushunchasining pedagogik mohiyatini aniqlash, uning tuzilmaviy komponentlari va tasnifini ishlab chiqish hamda ta'lim jarayonidagi metodologik o'rnini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Fanlararo loyihalar va loyihalash metodi masalasi pedagogika fanida uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinadi. J. Dyui o'zining "Demokratiya va ta'lim" (1916) asarida pragmatik pedagogikaning asoslarini yaratdi va ta'limni hayotiy tajriba bilan bog'lash g'oyasini ilgari surdi. V.H. Kilpatrik 1918-yilda chop etgan mashhur "Loyiha metodi" maqolasida bu yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Keyinchalik J.S. Krajcik va C.M. Czerniak loyihaga asoslangan o'qitishning zamonaviy modellarini yaratdi. J.A. Beane o'quv dasturini integrativ loyihalash masalalarini tadqiq etdi.

Fanlararo integratsiya masalalari H.H. Jacobs, R. Fogarty va S.M. Drake tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan. H.H. Jacobs fanlararo o'quv dasturlarini loyihalashning metodologik asoslarini ishlab chiqqan. R. Fogarty o'quv dasturlarini o'nta turli tarzda birlashtirish modelini taklif etgan. S.M. Drake fanlararo integratsiyaning turli shakllarini (multidistsiplinar, interdistsiplinar, transdistsiplinar) tasniflab bergan. STEM va STEAM ta'lim yo'nalishida R.W. Bybee va G. Yakmanning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. L. Darling-Hammond loyihaga asoslangan o'qitishning o'quvchilar rivojlanishidagi ta'sirini meta-tahlillar asosida asoslagan.

MDH mamlakatlarida I.D. Zverev va V.N. Maksimova fanlararo aloqalar nazariyasining didaktik asoslarini yaratgan. E.S. Polat loyihalash metodi nazariyasini rivojlantirgan va uning yangi axborot texnologiyalari bilan uyg'unligini asoslab bergan. O'zbekiston pedagogikasida N.A. Muslimov pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini, R.J. Ishmuhamedov innovatsion ta'lim texnologiyalarini, Sh. Sharipov pedagogik prognostika masalalarini, B. Ziyomuhammadov pedagogika nazariyasini, J.G. Yuldashev va S.A. Usmonov pedagogik texnologiyalar asoslarini, D.I. Ro'ziyeva pedagogika nazariyasi va tarixi masalalarini tadqiq etgan. Biroq, fanlararo loyiha tushunchasining pedagogik mohiyatini yaxlit tahlil qiladigan va uning milliy ta'limdagi o'rnini aniqlaydigan tadqiqotlar hali yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda aralash metodlar yondashuvi qo'llanildi. Nazariy tahlilda tarixiy-qiyyosiy metod, sintez, tushunchalarni tahlil qilish, tizimli yondashuv va modellashtirish usullaridan foydalandik. Empirik qism umumta'lim maktablari bazasida 14 oy davomida uch bosqichda olib borildi: aniqlovchi (3 oy), shakllantiruvchi (10 oy) va nazorat-yakunlovchi (1 oy) bosqichlar. Tajribaga jami 120 o'quvchi (60 tajriba guruhi, 60 nazorat guruhi) va 8 o'qituvchi jalb qilindi.

Diagnostik vositalar sifatida ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, fanlararo bilim, hamkorlikda ishlash va loyiha natijalarini baholash rubrikalari ishlab chiqildi. O'quvchilarning fanlararo kompetensiyalari darajasi to'rt mezon asosida baholandi: bilimlarni birlashtirish qobiliyati, muammoni aniqlash va tahlil qilish, ijodiy yechim topish hamda loyihani taqdim etish. Statistik tahlilda o'rtacha arifmetik, Student t-mezone va foizli taqsimot usullari qo'llanildi. Tadqiqotning ishonchliligi Cronbach alfa koeffitsienti orqali tekshirildi (0,85).

Tadqiqot natijalari va muhokama. Nazariy tahlil natijalari fanlararo loyiha tushunchasining pedagogik mohiyatini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotimizda fanlararo loyiha quyidagicha aniqlandi: bu o'quvchilarning bir qancha o'quv fanlari bilimlari va ko'nikmalarini birlashtirgan holda aniq pedagogik maqsad yo'lida amalga oshiradigan, yakuniy mahsuli bor bo'lgan mustaqil tadqiqotchilik-amaliy faoliyatidir. Fanlararo loyihaning asosiy komponentlariga quyidagilar kiradi: pedagogik maqsad, fanlararo mavzu, muammoli

vaziyat, o'quvchilarning mustaqil faoliyati, o'qituvchining yo'naltiruvchi roli, yakuniy mahsulot va refleksiya bosqichi.

Fanlararo loyihalarning pedagogik tasnifi tadqiqot natijasida quyidagi asoslarda ishlab chiqildi. Davomiyligi bo'yicha: qisqa muddatli (1–2 dars), o'rta muddatli (1–4 hafta) va uzoq muddatli (1 chorak va undan ortiq). Ishtirokchilar soni bo'yicha: individual, juftlik, kichik guruhli va jamoa loyihalari. Fanlararo bog'liqlik darajasi bo'yicha: multidistsiplinar (bir qancha fanlar yonma-yon), interdistsiplinar (fanlar o'zaro chambarchas birlashgan) va transdistsiplinar (fan chegaralari yo'qolgan) loyihalar. Mazmun bo'yicha: tadqiqotchilik, ijodiy, amaliy-yo'naltirilgan, axborot va rolli loyihalar.

Fanlararo loyihalarning ta'lim jarayonidagi o'rni ularning bir qancha pedagogik vazifalarni birgalikda bajarishida namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular o'quvchilarda bilimlarni birlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi, ya'ni turli fanlardan olingan ma'lumotlarni yaxlit tarzda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. Ikkinchidan, fanlararo loyihalar real hayotiy muammolarni hal qilish vaziyatlarini yaratib, nazariya va amaliyot o'rtasidagi ko'prikn ta'minlaydi. Uchinchidan, ular o'quvchining faol sub'ekt pozitsiyasini shakllantiradi, bilishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi.

To'rtinchidan, fanlararo loyihalar hamkorlikdagi o'rganish, muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Beshinchidan, ular o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni, muammoni turli jihatdan ko'rish qobiliyatini shakllantiradi. Oltinchidan, yakuniy mahsulot yaratish orqali o'quvchilarda mas'uliyat hissi, o'z-o'zini tashkil etish va maqsadga yo'nalish qobiliyati rivojlanadi. Shu bilan bir vaqtda, fanlararo loyihalar o'qituvchilarning pedagogik hamkorligini, fanlar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan ishni va maktabning yagona ta'lim muhitini shakllantirishga hissa qo'shadi.

Empirik tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan nazariy asoslarning amaliy samaradorligini tasdiqladi. Tajriba boshida tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan muhim emas edi ($p > 0,05$). Tajriba yakunida tajriba guruhidagi o'quvchilarning fanlararo bilim va ko'nikmalar darajasi o'rtacha 20–28 foizga oshdi. Eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari "bilimlarni birlashtirish qobiliyati" (27,8%) va "ijodiy yechim topish" (26,3%) mezonlari bo'yicha kuzatildi. Nazorat guruhida o'sish atigi 5–7 foiz oralig'ida bo'ldi. Student t-mezon natijalari farqning yuqori statistik mohiyatligini ($p < 0,001$) tasdiqladi.

Sifatli tahlilda tajribada qatnashgan o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbat va o'quvchi-ota-onalar anketalari ijobiy o'zgarishlarni qayd etdi: o'quvchilarning darsdagi faolligi ko'tarilgan (94%), mustaqil tadqiqot olib borishga qiziqishi oshgan (89%), jamoada ishlash ko'nikmalari yaxshilangan (96%), turli fanlar bilimlarini birlashtirishga qodirligi rivojlangan (88%). O'qituvchilar fanlararo loyihalar o'zlarining pedagogik ijodkorligini ham oshirishini ta'kidladi.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqotimiz natijalari asosida O'zbekiston ta'lim tizimi uchun bir qator amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik. Birinchidan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga davlat ta'lim standartlariga fanlararo kompetensiyalarni va loyiha faoliyatini aniq kiritish, o'quv dasturlarida fanlar o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatib berish zarur. Ikkinchidan, maktab rahbariyatiga o'qituvchilar o'rtasida fanlararo hamkorlikni rag'batlantirish, yagona loyiha kunlari va haftalarini joriy etish, fanlararo metod birlashmalari tashkil qilishni tavsiya qilamiz.

Uchinchidan, o'qituvchilarga loyihalash metodi bo'yicha muntazam malaka oshirib borish, darslarda qisqa fanlararo loyihalardan boshlab, asta-sekin murakkabroq loyihalarga o'tishni taklif qilamiz. To'rtinchidan, oliy pedagogik ta'lim muassasalariga bo'lajak pedagoglarni tayyorlash dasturlariga "Fanlararo loyihalash metodikasi" maxsus kursini kiritish, amaliyot davrida talabalarga fanlararo loyihalar ishlab chiqish topshirig'ini berishni tavsiya qilamiz. Beshinchidan, maktab-oila-jamoatning loyiha faoliyatidagi hamkorligini

rivojlantirish - ota-onalarni va mahalla vakillarini loyihalar taqdim etish va baholashga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fanlararo loyiha o'quvchilarning turli o'quv fanlari bilimlari va ko'nikmalarini birlashtirgan holda aniq pedagogik maqsad yo'lida amalga oshiradigan mustaqil tadqiqotchilik-amaliy faoliyat sifatida aniqlandi. Uning asosiy tuzilmaviy komponentlari va pedagogik tasnifi ishlab chiqildi. Fanlararo loyihalarning ta'lim jarayonidagi o'rni bilimlarni birlashtirish, nazariya va amaliyotni bog'lash, faol ta'limni tashkil etish, hamkorlikni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni shakllantirish hamda maqsadga yo'nalish ko'nikmalarini tarbiyalashda namoyon bo'ladi.

Umumta'lim maktablari bazasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari fanlararo loyihalar metodikasining yuqori pedagogik samaradorligini tasdiqladi - tajriba guruhida o'quvchilarning fanlararo bilim va ko'nikmalar darajasi 20–28 foizga, nazorat guruhida atigi 5–7 foizga oshdi. Kelajakda fanlararo loyihalarni raqamli ta'lim platformalari bilan birlashtirish, sun'iy intellekt asosidagi loyiha yo'naltirish tizimlari, STEAM ta'limining milliy modeli va xalqaro baholashlarga (PISA, TIMSS) tayyorgarlikdagi fanlararo yondashuv istiqbolli tadqiqot yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. - New York: Macmillan, 1916. - 434 p.
2. Kilpatrick W.H. The Project Method // Teachers College Record. - 1918. - Vol. 19. - P. 319–335.
3. Krajcik J.S., Czerniak C.M. Teaching Science in Elementary and Middle School: A Project-Based Learning Approach. - New York: Routledge, 2018. - 350 p.
4. Beane J.A. Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education. - New York: Teachers College Press, 1997. - 180 p.
5. Jacobs H.H. Interdisciplinary Curriculum: Design and Implementation. - Alexandria: ASCD, 1989. - 97 p.
6. Fogarty R. How to Integrate the Curricula. - Thousand Oaks: Corwin Press, 2009. - 160 p.
7. Drake S.M., Burns R.C. Meeting Standards Through Integrated Curriculum. - Alexandria: ASCD, 2004. - 181 p.
8. Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. - Arlington: NSTA Press, 2013. - 130 p.
9. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education // Pupils' Attitudes Towards Technology. - 2008.
10. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. - San Rafael: Autodesk Foundation, 2000. - 46 p.
11. Zverev I.D., Maksimova V.N. Mezhpredmetnye svyazi v sovremennoy shkole. - Moskva: Pedagogika, 1981. - 160 s.
12. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. - Москва: Академия, 2005. - 272 с.
13. Muslimov N.A. va boshq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: Sano-standart, 2015. - 280 b.
14. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent: Nisholiq, 2008. - 180 b.
15. Ro'ziyeva D.I. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2022. - 256 b.

Nasrullayeva Sohiba Sharofovna,
Buxoro innovatsiyalar universiteti 2-kurs magistranti

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA TA'LIM JARAYONIDAGI METODOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Bu maqolada kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik mohiyati va zamonaviy ta'lim jarayonidagi metodologik ahamiyati tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining farqi, kompetensiyaning tuzilmaviy komponentlari, kalit kompetensiyalar tasnifi hamda kompetensiyaviy yondashuvning an'anaviy bilimga asoslangan paradigmadan shaxsga yo'naltirilgan paradigmaga o'tishdagi o'rni o'rganilgan. Buxoro shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi bazasida 110 o'quvchi ishtirokida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqqan metodikamizning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhida o'quvchilarning kompetensiyalar darajasi +25,2 foizga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi +6,1 foizni tashkil etdi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya, kompetentlik, ta'lim jarayoni, metodologik asoslar, kasbiy kompetensiya, ta'lim paradigmasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, kalit kompetensiyalar, kompetensiyalar tasnifi, pedagogik texnologiyalar, tayanch kompetensiyalar.

Abstract. This article systematically analyzes the pedagogical essence of the competency-based approach and its methodological importance in the modern educational process. The study examines the difference between the concepts of "competence" and "competency", the structural components of competence, the classification of key competencies, and the role of the competency-based approach in transitioning from the traditional knowledge-based paradigm to a student-centered paradigm. The results of experimental research conducted at secondary school No. 9 in Bukhara city with the participation of 110 students confirmed the high effectiveness of the methodology developed on the basis of the competency-based approach. In the experimental group, the level of students' competencies increased by +25.2%, while in the control group this figure was only +6.1%. Based on the research results, practical recommendations have been developed for the effective implementation of the competency-based approach in the general secondary education system of Uzbekistan.

Key words: competency-based approach, competence, competency, educational process, methodological foundations, professional competence, educational paradigm, student-centered learning, interactive learning, key competencies, competency classification, pedagogical technologies, core competencies.

Kirish. XXI asr ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchi va talabalarda olgan bilimlarini hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo'llay olish, mustaqil fikrlash, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish hamda doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. An'anaviy ta'lim paradigmasi asosan bilimlarni mexanik tarzda yodlashga yo'naltirilgan bo'lib, u bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmayapti. Shu sababli jahon pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv (competency-based approach) zamonaviy ta'lim tizimining yetakchi metodologik asoslaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar

kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim jarayoniga keng joriy etishga yo'naltirilgan. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2019-yilgi PF-5712-son Farmon va 2023-yilgi "O'zbekiston-2030" strategiyasi kompetensiyaviy yondashuvning O'zbekiston ta'lim tizimi uchun rasmiy metodologik asos ekanligini tasdiqladi. Davlat ta'lim standartlarida umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish etib belgilangan.

Biroq, kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik mohiyati va metodologik asoslari bo'yicha milliy ta'lim amaliyotida yetarlicha tizimli tadqiqotlar olib borilmagan. O'qituvchilarning aksariyati kompetensiyaviy yondashuv mohiyatini yetarli darajada anglamaydi, kompetensiyalarni baholashning aniq mezonlari ishlab chiqilmagan, an'anaviy va kompetensiyaviy yondashuvlarni birlashtirishning metodologik asoslari to'liq o'rganilmagan. Bu tadqiqotimizning maqsadi kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik mohiyatini tizimli tahlil qilish, uning ta'lim jarayonidagi metodologik ahamiyatini asoslash hamda amaliy samaradorligini empirik tekshirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Kompetensiyaviy yondashuv masalasi jahon pedagogika fanida keng o'rganilgan. Amerikalik psixolog D. Maklelland 1973-yilda chop etilgan asos soluvchi maqolasida an'anaviy intellekt testlarining kasbiy muvaffaqiyatni bashorat qilishda yetarli emasligini isbotlab, muvaffaqiyatning asosiy bashoratchisi shaxsning kompetensiyalari ekanligini asoslagan. Uning nazariyasini R. Boyatzis (1982) "Kompetent menejer" asarida rivojlantirib, kompetensiyaning motiv, xususiyat, o'z-o'zini anglash, bilim va ko'nikma komponentlarini ajratib bergan. Britaniyalik olim J. Raven (1984) kompetensiyaning motivatsion, kognitiv va xulq-atvorli komponentlarini tizimga solgan. L. va S. Spenserlar (1993) kompetensiya modelini kasbiy ta'limga qo'llash asoslarini yaratgan.

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy ildizlari L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi, J. Dyuning pragmatik pedagogika g'oyalari va A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasiga borib taqaladi. Xalqaro tashkilotlardan YuNESKO (Delors hisoboti, 1996) va OECD (DeSeCo loyihasi) kompetensiyaviy ta'limning xalqaro metodologik asoslarini yaratdi. MDH mamlakatlarida I.A. Zimnyaya, A.V. Xutorskoy, V.I. Baydenko, E.F. Zeyer kabi olimlar kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqqan. Xususan, Xutorskoy kalit kompetensiyalarning pedagogik tasnifini yaratgan, Zimnyaya esa ta'limdagi kompetensiyaviy yondashuvning natijaga yo'naltirilgan asoslarini asoslagan.

O'zbekiston pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv masalasi bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. N.A. Muslimov bo'lajak pedagoglarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqqan. U.I. Inoyatov ta'lim sifatini baholash va kompetensiyaviy yondashuvning o'zaro bog'liqligini asoslab bergan. R.J. Ishmuhamedov interfaol ta'lim texnologiyalari orqali kompetensiyalarni shakllantirish yo'llarini tadqiq etgan. Sh. Sharipov, B. Ziyomhammadov, M. Quronov, O. Musurmonova, D.I. Ro'ziyeva kabi olimlar ham shu yo'nalishda muhim ilmiy ishlar amalga oshirgan. Shunga qaramay, kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik mohiyatini yaxlit tahlil qilish va uning metodologik ahamiyatini empirik asoslashga bag'ishlangan tadqiqotlar hali yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda aralash metodlar yondashuvi qo'llanilgan. Nazariy qismda tarixiy-qiyosiy tahlil, sintez, umumlashtirish va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik qism Buxoro shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi bazasida 2025-yil yanvar oyidan 2026-yil fevral oyigacha, jami 14 oy davomida uch bosqichda amalga oshirildi: aniqlovchi (3 oy), shakllantiruvchi (10 oy) va nazorat-yakunlovchi (1 oy) bosqichlar. Tajribamizda jami 110 o'quvchi ishtirok etdi: tajriba guruhida 56 ta (7-"A" va 8-"A" sinflari), nazorat guruhida 54 ta

(7-“B” va 8-“B” sinflari).

O‘quvchilarning kompetensiyalari darajasini diagnostika qilish uchun maxsus ishlab chiqqan baholash vositalari tizimi qo‘llanildi - kommunikativ, axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik va fanga oid kompetensiyalarni uch darajali rubrika (yuqori, o‘rta, boshlang‘ich) asosida baholash mezonlari. Ma‘lumotlar matematik-statistik metodlar - Student t-mezone, o‘rtacha arifmetik, standart og‘ish, foizli taqsimot yordamida qayta ishlandi. Tadqiqotning ishonchliligi Cronbach alfa koeffitsienti orqali tekshirildi va u 0,87 ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik mohiyati bir qator o‘zaro bog‘liq xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, kompetensiyaviy yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan xarakterga ega bo‘lib, ta‘lim jarayonining markaziga o‘quvchi shaxsini qo‘yadi. Ikkinchidan, u faoliyatga asoslangan bo‘lib, bilimlar quruq nazariy ma‘lumot sifatida emas, balki real vaziyatlarda qo‘llanadigan vosita sifatida talqin etiladi. Uchinchidan, natijaga yo‘naltirilgan - ta‘lim jarayonining maqsadi aniq, o‘lchanadigan kompetensiyalar ko‘rinishida belgilanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining farqi alohida ahamiyatga ega. Kompetensiya shaxs oldiga qo‘yilgan obyektiv, normativ xarakterdagi talablar va sifatlar majmuasi bo‘lib, u ta‘lim jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘lgan qobiliyatlardir. Kompetentlik esa bu kompetensiyalarning shaxsda ro‘yobga chiqqan, egallangan va shaxsiy tajribada namoyon bo‘layotgan ko‘rinishidir. Ya‘ni, kompetensiya ta‘limning maqsadi, kompetentlik esa uning natijasidir. A.V. Xutorskoy tasnifiga ko‘ra, umumiy o‘rta ta‘limda shakllantirilishi zarur bo‘lgan yetti kalit kompetensiya mavjud: qadriyatga-mazmunga oid, umummadaniy, o‘quv-kognitiv, axborot, kommunikativ, ijtimoiy-mehnat va shaxsni o‘z-o‘zini takomillashtirish kompetensiyalari.

Kompetensiyaviy yondashuvning ta‘lim jarayonidagi metodologik ahamiyati uning barcha komponentlariga - maqsadlar, mazmun, metodlar, shakllar, vositalar va natijalarni baholash tizimiga ta‘sir qilishida namoyon bo‘ladi. Ta‘lim maqsadlari aniq, o‘lchanadigan kompetensiyalar ko‘rinishida belgilanadi. Ta‘lim mazmuni real hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltiriladi. O‘qitish metodlari an‘anaviy frontal tushuntirish sxemasidan mustaqil tadqiqot, muammoli o‘qitish, loyihalash, keys-stadi kabi interfaol metodlarga o‘tadi. Baholash tizimi bilim hajmini emas, kompetensiyalar darajasini o‘lchaydi.

Empirik tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuvning yuqori pedagogik samaradorligini tasdiqladi. Tajriba boshida tajriba va nazorat guruhlarida o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan muhim emas edi ($p > 0,05$), ya‘ni guruhlar boshlang‘ich sharoitlari bo‘yicha teng edi. Tajriba yakunida tajriba guruhida kompetensiyalar darajasi 53,4 foizdan 78,6 foizgacha (+25,2%), nazorat guruhida esa 54,1 foizdan 60,2 foizgacha (+6,1%) ko‘tarildi. Tajriba guruhi nazoratdan 4,1 barobar yuqori natija ko‘rsatdi.

Har bir tayanch kompetensiya bo‘yicha tajriba guruhi 17–22 foiz oralig‘ida ustunlikka erishdi. Eng katta farq axborot bilan ishlash kompetensiyasi bo‘yicha kuzatildi (21,6%), bu raqamli ta‘lim resurslari, keys-metod va loyihaviy faoliyatning tizimli qo‘llanilishi natijasidir. Kommunikativ kompetensiya bo‘yicha 18,1% farq bahs-munozaralar va hamkorlikda ishlashning qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Matematik-statistik tahlil natijalari tajriba natijalarining yuqori ishonchliligini tasdiqladi: Student t-mezone temp = 19,24 bo‘lib, kritik qiymatdan ($t_{kr} = 1,98$, $p = 0,05$) ancha yuqori, statistik mohiyatliligi $p < 0,001$ darajasida.

Sifatli tahlilda 8 nafar o‘qituvchi va 44 nafar ota-ona bilan olib borilgan suhbat va anketalar quyidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatdi: o‘quvchilarning darsdagi faolligi oshgan (98%), mustaqil tadqiqot va loyiha ishlariga qiziqishi kuchaygan (92%), hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari yaxshilangan (95%), tanqidiy fikrlash rivojlangan (89%). Ota-onalarning 91%i

farzandlarining mustaqil o'rganish va oilada muloqot madaniyatining yaxshilanganligini tasdiqladi.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqotimiz natijalari asosida O'zbekiston ta'lim tizimi uchun bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqdik. Birinchidan, vazirlik darajasida kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim tizimining barcha bosqichlarida izchil joriy etishni davom ettirish, davlat ta'lim standartlarini xalqaro ilg'or tajriba asosida takomillashtirib borish va pedagog kadrlarning malakasini uzluksiz oshirish tizimini yangilash zarur. Ikkinchidan, ta'lim muassasalari darajasida o'qituvchilar uchun kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha tizimli metodik seminarlarni tashkil etish, raqamli ta'lim infratuzilmasini yangilash va fanlararo hamkorlikni rag'batlantirish lozim.

Uchinchidan, o'qituvchilar darajasida an'anaviy bilim uzatuvchi roldan o'quv faoliyatining yo'naltiruvchisi rolga o'tish, darslarda interfaol metodlarni (loyihalash, muammoli o'qitish, keys-stadi, bahs-munozaralar) qo'llash, formativ va summativ baholashni birlashtirish hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish tavsiya etiladi. To'rtinchidan, oliy pedagogik ta'lim muassasalariga bo'lajak pedagoglar tayyorlash dasturlariga kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha maxsus fanlarni kiritish va magistratura bosqichida shu yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni maqsadli tayyorlashni tavsiya qilamiz.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy pedagogika fanining markaziy metodologik paradigmasi bo'lib, bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va motivatsiyani birlashtirgan holda shaxsning real faoliyatida namoyon bo'luvchi kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv an'anaviy bilimga asoslangan paradigmadan shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan paradigмага sifat jihatidan o'tishni anglatadi. "Kompetensiya" ta'limning maqsadi, "kompetentlik" esa uning natijasi sifatida aniq farqlanadi.

Buxoro shahar 9-maktab bazasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqqan metodikamizning yuqori samaradorligini empirik tasdiqladi. Tajriba guruhida kompetensiyalar darajasining +25,2 foizga (nazorat guruhida +6,1%) oshishi, 4,1 barobar ustunlik va statistik mohiyatlilik ($p < 0,001$) tadqiqotimiz ilmiy farazining asoslanishini tasdiqladi. Kelajakda bu yo'nalishda sun'iy intellekt asosidagi personallashtirilgan ta'lim platformalarining roli, inklyuziv ta'limda kompetensiyaviy yondashuv usullari va xalqaro baholashlarga (PISA, TIMSS) tayyorgarlikdagi metodologik masalalarni tadqiq etish istiqbolli yo'nalish bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. McClelland D.C. Testing for Competence Rather Than for "Intelligence" // American Psychologist. - 1973. - Vol. 28. - No. 1. - P. 1-14.
2. Boyatzis R.E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. - New York: John Wiley & Sons, 1982. - 308 p.
3. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. - Oxford: Oxford Psychologists Press, 1984. - 251 p.
4. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. - New York: John Wiley & Sons, 1993. - 384 p.
5. Delors J. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. - Paris: UNESCO Publishing, 1996. - 266 p.
6. OECD. The Definition and Selection of Key Competencies: Executive Summary. - Paris: OECD Publishing, 2005. - 20 p.

7. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. - 42 с.

8. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - № 2. - С. 58–64.



Nazarova Gulira'no Xamidovna,
Buxoro innovatsiyalar universiteti 2-kurs magistranti

NEYRO-LINGVISTIK DASTURLASH (NLP) TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA YOZMA ISHLARNI BAHOLASHDAGI O'RNI

Annotatsiya. Bu maqolada neyro-lingvistik dasturlash (Natural Language Processing, NLP) texnologiyalarining pedagogik mohiyati va o'quvchilarning yozma ishlarini avtomatik baholashdagi o'rni tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda NLP texnologiyasining asosiy komponentlari - tokenizatsiya, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, semantik tahlil, so'z embeddinglari va neyron tarmoqli til modellari - ularning yozma ishlarni baholashdagi qo'llanilish imkoniyatlari o'rganilgan. An'anaviy va avtomatik baholash tizimlarining qiyosiy tahlili o'qituvchi vaqtini 60–70 foizga tejash, baholashning obyektivligini oshirish va o'quvchilarga tez qaytish aloqasini ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatdi. O'zbek tilidagi yozma ishlarni avtomatik baholashning lingvistik xususiyatlari va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston ta'lim tizimida NLP asosidagi avtomatik baholash tizimini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: neyro-lingvistik dasturlash, NLP, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik baholash, yozma ishlar, insho baholash, sun'iy intellekt, mashina o'rganish, neyron tarmoqlar, BERT, transformer modellar, formativ baholash, ta'lim texnologiyalari, raqamli pedagogika, o'zbek tili NLP.

Abstract. This article systematically analyzes the pedagogical essence of Natural Language Processing (NLP) technologies and their role in the automatic assessment of students' written works. The study examines the main components of NLP technology - tokenization, morphological analysis, syntactic analysis, semantic analysis, word embeddings, and neural network language models - and their application possibilities in assessing written works. The comparative analysis of traditional and automatic assessment systems demonstrates the possibilities of saving teachers' time by 60–70 percent, increasing the objectivity of assessment, and providing fast feedback to students. The linguistic features and promising development directions of automatic assessment of written works in the Uzbek language have been identified. Based on the research results, practical recommendations have been developed for implementing NLP-based automatic assessment systems in the education system of Uzbekistan.

Key words: natural language processing, NLP, automatic assessment, written works, essay scoring, artificial intelligence, machine learning, neural networks, BERT, transformer models, formative assessment, educational technologies, digital pedagogy, Uzbek language NLP.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o'rni sezilarli darajada oshib bormoqda. Ayniqsa, neyro-lingvistik dasturlash (Natural Language Processing, NLP) texnologiyalari ta'lim sohasining turli yo'nalishlarida keng qo'llanilmoqda. NLP - bu sun'iy intellektning inson tilini tushunish, tahlil qilish va yaratish bilan shug'ullanuvchi yo'nalishi bo'lib, u kompyuter lingvistikasi, mashina o'rganish va kognitiv fanlarning kesishmasida joylashgan. Bugungi kunda NLP texnologiyalari yozma ishlarni avtomatik baholash, matnlarni tahlil qilish, plagiatni aniqlash, shaxsga moslashgan ta'limni tashkil etish kabi pedagogik masalalarda samarali qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2020-yil 17-fevraldagi PF-5953-son Farmon, 2022-yildagi "Raqamli O'zbekiston–2030"

strategiyasi va 2023-yilgi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi bu yo‘nalishning rivojlanishiga huquqiy asos yaratdi. Biroq, milliy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari - o‘zbek tilining boy morfologiyasi, agglyutinatív tuzilishi, mahalliy ta’lim standartlari - NLP asosidagi baholash tizimlarini yaratishda maxsus yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotimizning maqsadi NLP texnologiyalarining pedagogik mohiyatini aniqlash, ularning yozma ishlarni baholashdagi o‘rni va qo‘llanilish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. NLP asosida yozma ishlarni avtomatik baholash g‘oyasi 1960-yillarning o‘rtalarida amerikalik olim E.B. Page tomonidan ilgari surildi. Uning 1966-yilda ishlab chiqqan Project Essay Grader (PEG) tizimi avtomatik insho baholashning ilk namunasi hisoblanadi. Keyinchalik J. Burstein va uning hamkorlari ETS (Educational Testing Service) tashkilotida e-rater avtomatik baholash tizimini yaratdi. Bu tizim TOEFL va GRE imtihonlarida milliondan ortiq inshoni avtomatik baholashda qo‘llaniladi. Y. Attali va J. Burstein (2006) e-rater tizimining arxitekturasi, baholash algoritmlari va aniqlik ko‘rsatkichlarini batafsil bayon etgan.

M. Shermis va J. Burstein 2003-yilda tahrir qilgan “Automated Essay Scoring: A Cross-Disciplinary Perspective” asari bu yo‘nalishdagi fundamental ishlardan biri hisoblanadi. S. Dikli (2006) avtomatik insho baholash tizimlarining umumiy tahlilini taqdim etdi. Z. Ke va V. Ng (2019) avtomatik insho baholash bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarning keng sharhini yaratdi. M. Uto va T. Okano (2021) neyron tarmoqlarga asoslangan insho baholash modellarining yangi imkoniyatlarini ko‘rsatdi.

2017-yilda A. Vaswani va hamkasblari “Attention is All You Need” asarida transformer arxitekturasini taklif etdi va bu NLP sohasidagi inqilobning boshlanishi bo‘ldi. 2018-yilda J. Devlin va hamkasblari ishlab chiqqan BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) modeli matnlarni tushunishning yangi bosqichini ochdi. 2020-yilda T.B. Brown va hamkasblari tomonidan taqdim etilgan GPT-3 modeli generativ til modellarining kuchli imkoniyatlarini namoyish etdi. D. Jurafsky va J.H. Martinning “Speech and Language Processing” darsligi NLP sohasining asosiy nazariy manbalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek tili NLP sohasida B. Elov, D. Rizayeva, U. Salayev, M. Nazirova kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Ularning ishlarida o‘zbek tilining morfologik xususiyatlari, tokenizatsiya muammolari, o‘zbek tilidagi matn korpuslarini yaratish masalalari yoritilgan. Pedagogika fani nuqtai nazaridan N.A. Muslimov, R.J. Ishmuhamedov va boshqa o‘zbek olimlarining innovatsion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha ishlari sun‘iy intellekt asosidagi pedagogik tizimlarning metodologik asoslarini yaratishga hissa qo‘shadi. Shunga qaramay, NLP texnologiyalarining pedagogik mohiyatini va yozma ishlarni baholashdagi konkret o‘rnini yaxlit tahlil qiluvchi milliy tadqiqotlar hali yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda aralash metodlar yondashuvi qo‘llanildi. Nazariy qismda NLP sohasidagi asosiy tushunchalar va texnologiyalarning tahlili, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalandik. Empirik qismda ikki yondashuv bir-biriga qiyoslandi: an’anaviy qo‘lda baholash va NLP asosidagi avtomatik baholash. Tadqiqotga Buxoro viloyati umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalaridan jami 200 ta yozma ish jalb qilindi. Har bir ish ikkita mustaqil ekspert tomonidan baholandi va parallel ravishda ishlab chiqqan NLP asosidagi tizim orqali ham baholandi.

Tizim samaradorligini baholashda quyidagi mezonlar qo‘llanildi: aniqlik (accuracy), Pirson korrelyatsiya koeffitsienti (ekspert baholari bilan), Cohen kappa koeffitsienti (kelishuv darajasi), F1-score, baholash tezligi va foydalanuvchi qoniqish darajasi. NLP tizimi zamonaviy transformer arxitekturasiga asoslangan bo‘lib, o‘zbek tiliga moslashtirilgan BERT modelidan foydalanildi. Matematik-statistik tahlil SPSS 28 dasturida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. NLP texnologiyasining pedagogik mohiyati uning yozma matnlarni tahlil qilish va baholash imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotimizda

NLPning ettita asosiy komponenti aniqlandi. Birinchidan, tokenizatsiya - matnni eng kichik ma'noli birliklarga (tokenlarga) ajratish jarayoni. O'zbek tilida bu jarayon tilning agglyutinativ tuzilishi tufayli maxsus yondashuv talab qiladi. Ikkinchidan, morfologik tahlil - har bir so'zning asosini, shakli, va grammatik xususiyatlarini aniqlash. Uchinchidan, sintaktik tahlil - gap tuzilishini, gap bo'laklari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash.

To'rtinchidan, semantik tahlil - matnning ma'nosini, so'zlar va iboralar o'rtasidagi ma'no munosabatlarini aniqlash. Beshinchidan, so'z embeddinglari (word embeddings) - so'zlarni matematik vektor shaklida ifodalash. Word2Vec, GloVe va fastText kabi modellar bu yo'nalishning asosiy vositalari hisoblanadi. Oltinchidan, neyron tarmoqli til modellari - BERT, GPT, T5 kabi transformer asosidagi modellar. Bu modellar matn kontekstini chuqur tushunish imkonini beradi. Yettinchidan, generativ modellar - yangi matn yaratish qobiliyatiga ega modellar (GPT-3, GPT-4, ChatGPT).

Yozma ishlarni avtomatik baholashda NLP texnologiyalari uch asosiy yo'nalishda qo'llaniladi. Birinchi yo'nalish - yuzaki xususiyatlar tahlili (surface features): so'z va gap uzunligi, lug'at boyligi, grammatik xatolar soni, punktuatsiya. Ikkinchi yo'nalish - lingvistik sifat tahlili: grammatik to'g'rilik, sintaktik murakkablik, uslubiy muvofiqlik. Uchinchi yo'nalish - mazmun tahlili: mavzuga mosligi, dalillash mantiqi, argumentlar kuchi, g'oyalar izchilligi. Zamonaviy tizimlar bu uch yo'nalishni bir vaqtda birlashtirgan holda ishlaydi.

An'anaviy va NLP asosidagi baholash tizimlarining qiyosiy tahlili bir qator muhim farqlarni aniqladi. An'anaviy baholashda o'qituvchi bir inshoni baholash uchun o'rtacha 8–12 daqiqa sarflaydi, NLP tizimi esa xuddi shu ishni 3–5 soniyada bajaradi - ya'ni 150–200 barobar tez. Bir o'quv guruhidagi 30 nafar o'quvchining yozma ishlarini qo'lda baholash 4–6 soat vaqtni olsa, avtomatik tizim uni 2–3 daqiqada yakunlaydi. Bu o'qituvchi vaqtini 60–70 foizga tejash imkonini beradi va u vaqtni boshqa pedagogik vazifalarga yo'naltirish mumkin.

Empirik tadqiqot natijalari NLP asosidagi baholash tizimining yuqori aniqligini tasdiqladi. 200 ta yozma ish ustida o'tkazilgan sinovda tizim baholari va ekspert baholari o'rtasidagi Pirson korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,84$ ($p < 0,001$) ni tashkil etdi - bu yuqori darajada pozitiv bog'liqlikni ko'rsatadi. Cohen kappa koeffitsienti 0,78 bo'lib, "yaxshi kelishuv" zonasiga to'g'ri keladi. Umumiy aniqlik (accuracy) 82 foizni tashkil etdi. Ikki ekspert o'rtasidagi aniqlik (inter-rater reliability) 87 foiz bo'lib, tizim va ekspert o'rtasidagi farq atigi 5 foizni tashkil etadi. Bu avtomatik baholash sifatining ekspert baholashga deyarli teng bo'lishini ko'rsatadi.

NLP asosidagi avtomatik baholashning pedagogik ustunliklari aniqlandi. Birinchidan, obyektivlik - tizim hech qanday shaxsiy bo'lmagan omillar (charchoq, kayfiyat, psixologik bosim) ta'siriga uchramaydi. Ikkinchidan, izchillik - bir xil kritiyalar bo'yicha barcha ishlarni bir xil tarzda baholaydi. Uchinchidan, tezkorlik - o'quvchilar baholarini deyarli zudlik bilan olishadi, bu formativ baholash nuqtai nazaridan muhim. To'rtinchidan, batafsil fikr-mulohaza - tizim nafaqat ball, balki konkret xatolar va takomillashtirish tavsiyalarini taqdim eta oladi. Beshinchidan, masshtablilik - tizim minglab ishlarni bir vaqtda qayta ishlay oladi.

Shu bilan birga, NLP asosidagi baholashning ma'lum cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, ijodiy, noyob g'oyalarni baholashda tizim an'anaviy namunalarga suyanib, ortodoks bo'lmagan yondashuvlarni past baholashi mumkin. Ikkinchidan, ritorik va uslubiy nozikliklarni to'liq tushinishda cheklovlar bor. Uchinchidan, madaniy kontekst va badiiy qiymatlarni baholash hali ham inson ekspertining vazifasi bo'lib qolayapti. Shuning uchun zamonaviy pedagogikada gibril yondashuv tavsiya etiladi: tizim birinchi bosqich baholashni va qaytarim-xususiyatli tahlilni amalga oshiradi, o'qituvchi esa yakuniy baholash va ijodiy jihatlarni o'rganadi.

O'zbek tilidagi yozma ishlarni NLP asosida baholashning o'ziga xos qiyinchiliklari aniqlandi. Birinchidan, o'zbek tili agglyutinativ til bo'lib, bir o'zakdan o'nlab so'z shakllari

hosil bo'лади (masalan, “kitob → kitobim → kitobimdagi → kitobimdagilar → kitobimdagilardan”). Bu tokenizatsiya va morfologik tahlilni murakkablashtiradi. Ikkinchidan, katta hajmli o'zbek tili matn korpuslari yetarli emas - zamonaviy til modellarini o'rgatish uchun kamida millionlab so'zdan iborat yuqori sifatli korpus zarur. Uchinchidan, o'zbek tili NLP vositalari (morfologik analizatorlar, sintaksis tahlilchi, NER tizimlari) hali yetarlicha rivojlanmagan. To'rtinchidan, milliy ta'lim standartlariga mos baholash kriteriyalarini shakllantirish zarur.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqotimiz natijalari asosida O'zbekiston ta'lim tizimi uchun bir qator amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik. Birinchidan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga o'zbek tiliga moslashgan NLP asosidagi baholash tizimini milliy oliy ta'lim muassasalariga pilot tarzda joriy etish, yirik o'zbek tili matn korpuslarini yaratish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish va o'zbek tili uchun maxsus BERT modelini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashni tavsiya qilamiz. Ikkinchidan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga umumta'lim maktablarida NLP asosidagi formativ baholash tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish, o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil qilish lozim.

Uchinchidan, oliy pedagogik ta'lim muassasalariga bo'lajak pedagoglarni tayyorlash dasturlariga “Ta'limda sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari” maxsus kursini kiritish tavsiya etiladi. To'rtinchidan, o'qituvchilarga gibridd baholash modelini qo'llash - avtomatik tizimdan dastlabki baholash va batafsil fikr-mulohaza olish uchun, o'zining ijodiy baholash va shaxsiy mentorlik uchun vaqtni tejash imkonini beradi. Beshinchidan, ilmiy jamoatchilikka o'zbek tili uchun ochiq manbali (open-source) NLP vositalari va tildagi matn korpuslarini yaratishda faol ishtirok etish, xalqaro NLP konferensiyalarida o'zbek tili masalalarini yoritishni tavsiya qilamiz.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, NLP texnologiyalari zamonaviy pedagogikaning muhim vositasi sifatida yozma ishlarni avtomatik baholashning samarali vositasini taqdim etadi. Tokenizatsiya, morfologik va semantik tahlil, so'z embeddinglari va neyron tarmoqli til modellari yozma matnlarni ko'p qirrali tahlil qilish imkonini beradi. An'anaviy va avtomatik baholash tizimlarining qiyosiy tahlili ikkinchi yondashuvning muhim ustunliklarini – o'qituvchi vaqtini 60–70 foizga tejash, baholashning obyektivligi, izchilligi va tezkorligini – tasdiqladi.

Empirik tadqiqot natijalari NLP asosidagi baholash tizimining ekspert baholash bilan yuqori korrelyatsiyasini ($r = 0,84$, $p < 0,001$) va 82 foiz aniqlik darajasini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ijodiy, ritorik va madaniy jihatlarni baholashda ma'lum cheklovlar mavjud, shuning uchun gibridd yondashuv tavsiya etiladi. O'zbek tilining agglyutinativ xususiyatlari va katta korpuslarning yetishmasligi milliy NLP tizimlarini yaratishda maxsus yondashuvni talab qiladi. Kelajakda o'zbek tili uchun maxsus BERT, GPT modellarini yaratish, millatlararo hamkorlik asosida yirik korpuslarni shakllantirish, sun'iy intellekt va pedagogning hamkorligida gibridd baholash modellarini ishlab chiqish istiqbolli tadqiqot yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Page E.B. The Imminence of Grading Essays by Computer // Phi Delta Kappan. - 1966. - Vol. 47. - P. 238–243.
2. Shermis M.D., Burstein J. (eds.) Automated Essay Scoring: A Cross-Disciplinary Perspective. - Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2003. - 238 p.
3. Attali Y., Burstein J. Automated Essay Scoring with e-rater v.2 // Journal of Technology, Learning, and Assessment. - 2006. - Vol. 4. - No. 3. - P. 1–30.

Toshpo'latova Guliniso Rajab qizi,
TDTU tayanch doktoranti
Baxtiyorova Zarnigor Alisher Qizi,
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Unda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, interfaol metodlardan samarali foydalanish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarining ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta'lim sifati, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik mahorat, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы повышения качества образования на основе современных педагогических подходов. Подчеркивается важность внедрения инновационных технологий в образовательный процесс, развития самостоятельного мышления учащихся, эффективного использования интерактивных методов и принципов лично-ориентированного образования. Также рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования знаний, навыков и компетенций на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: Современные педагогические подходы, качество образования, интерактивные методы, инновационные технологии, компетентностный подход, лично-ориентированное образование, информационно-коммуникационные технологии, педагогические навыки, независимое мышление, эффективность образования.

Abstract. This article analyzes the issues of improving the quality of education based on modern pedagogical approaches. It highlights the importance of introducing innovative technologies into the educational process, developing independent thinking of students, effective use of interactive methods, and the principles of person-centered education. It also considers the theoretical and practical aspects of the formation of knowledge, skills, and competencies based on a competency-based approach.

Key words: modern pedagogical approaches, quality of education, interactive methods, innovative technologies, competency-based approach, person-centered education, information and communication technologies, pedagogical skills, independent thinking, educational effectiveness.

Kirish. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv davrida ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Jamiyat taraqqiyoti bevosita bilimli, keng dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlay oladigan hamda zamonaviy ko'nikmalarni egallagan yosh avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

An'anaviy o'qitish metodlari asosan bilimlarni tayyor holda yetkazishga yo'naltirilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga

qo'yadi. Bunda o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinib, uning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy faoliyatga tayyorligi rivojlantiriladi. Natijada, ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ularni real hayotiy vaziyatlarda o'z bilimlarini qo'llashga o'rgatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirish hamda pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashga qaratilgan.

Jumladan, John Dewey ta'limda tajribaga asoslangan o'qitish (learning by doing) g'oyasini ilgari surib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash muhimligini ta'kidlagan. Uning fikricha, bilim amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi va bu ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi va "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi o'quvchilarning bilim olish jarayonida o'qituvchi va tengdoshlar bilan hamkorlik qilishining ahamiyatini ochib beradi. Bu yondashuv zamonaviy interfaol metodlarning nazariy asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari, Jean Piaget ning kognitiv rivojlanish nazariyasi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalasida B. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya o'quvchilarning bilim darajalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu model ta'lim maqsadlarini aniq belgilash va baholash tizimini takomillashtirishda keng qo'llaniladi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada raqamli ta'lim muhitini yaratish, masofaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirish hamda multimedia vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishi va faolligini oshirish mumkinligi ko'plab tadqiqotlarda asoslab berilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va milliy ta'lim modelini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Ularning ilmiy ishlari ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, metodik ta'minot va texnologik infratuzilma muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirish masalalarini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uyg'unligiga asoslanib, ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilishga yo'naltirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari sohasidagi ilmiy manbalarni tahlil qilish tashkil etdi. Ushbu bosqichda ilmiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilib, zamonaviy

pedagogik yondashuvlarning mohiyati va ularning ta'lim sifatiga ta'siri aniqlashtirildi.

Amaliy qismda esa quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Kuzatish metodi – dars jarayonida o'quvchilarning faolligi, interfaol metodlarga munosabati va o'zlashtirish darajasi o'rganildi.

So'rovnoma (anketa) metodi – o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazildi.

Suhbat (intervyu) metodi – pedagoglarning tajribasi, muammolari va takliflarini aniqlash uchun qo'llanildi.

Tajriba-sinov (eksperiment) metodi – zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar bilan an'anaviy darslar taqqoslandi.

Taqqoslash va tahlil qilish metodi – olingan natijalar umumlashtirilib, samaradorlik darajasi baholandi.

Tajriba-sinov ishlari umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida olib borildi. Tadqiqot davomida eksperimental va nazorat guruhleri shakllantirilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar (interfaol metodlar, AKT vositalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) asosida tashkil etilgan darslarning o'quvchilarning bilim darajasi va motivatsiyasiga ta'siri o'rganildi.

Natijalarni qayta ishlashda statistik tahlil usullaridan foydalanilib, o'rtacha ko'rsatkichlar, foizli taqqoslash va dinamik o'sish darajalari aniqlandi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligi va aniqligini ta'minladi.

Mazkur metodologiya zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ta'lim sifatini oshirishdagi samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari va tahlili (Results and Discussion)

Olib borilgan tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida eksperimental va nazorat guruhlarida o'quvchilarning bilim darajasi, faolligi hamda darslarga bo'lgan qiziqishi muntazam ravishda kuzatilib, tahlil qilindi.

Eksperimental guruhlarda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari qo'llanilganda o'quvchilarning darsdagi ishtiroki sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Xususan, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanib, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati kuchaydi. Nazorat guruhlarida esa an'anaviy usullarda o'qitish natijasida bunday o'sish nisbatan past darajada kuzatildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtacha 15–20 foizga yuqori bo'ldi. Shuningdek, o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi va ijodiy faolligi oshgani qayd etildi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligi ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

So'rovnoma va intervyu natijalari ham o'qituvchilarning aksariyati zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni qo'llab-quvvatlashini ko'rsatdi. Ular interfaol metodlar orqali darsni qiziqarli va samarali tashkil etish imkoniyati kengayganini ta'kidladilar. Biroq ayrim pedagoglar tomonidan texnik vositalarning yetishmasligi va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanish darajasining pastligi muammo sifatida qayd etildi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligi nafaqat ularni qo'llash, balki ularni to'g'ri tanlash va tizimli ravishda joriy etishga ham bog'liq. Ayniqsa, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, raqamli kompetensiyasi va innovatsion fikrlashi muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirishda yuqori natijalar berishini tasdiqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Xususan, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlarini qo'llash o'quvchilarning bilim darajasini, mustaqil fikrlashini va o'quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, bunday yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va natijador tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy mahorati, innovatsion faoliyati va raqamli kompetensiyalariga bog'liq. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va metodik ta'minoti ham muhim omil hisoblanadi.

Tavsiyalar.

Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlardan tizimli va maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish;

O'qituvchilarning malakasini oshirish, ularning innovatsion va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

Dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish;

O'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish;

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar bilan ta'minlashni kuchaytirish;

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali yuqori natijalarga erishish, raqobatbardosh va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mamarizayevich S. A., Qizi M. S. A. PEDAGOGIK TA'LIM SOHALARIDA AXBOROT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 4. – C. 278-281.

2. Shoimov N. N. TO DETERMINE THE OPTIMAL NEUROPROTECTIVE TREATMENT TYPE IN ISOLATED CLOSED HEAD INJURY VICTIMS BY COMPARATIVE COMPARISON OF STANDARD THERAPY AND KALLIDINOGENESIS //CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 74-83.

3. Mamarizaevich S. A. Informatics and Information Technology the Essence of Sciencelararo Integration in Teaching //JournalNX. – C. 145-147.

4. Shoimov A. M., Xujaqulova Y. J. METHODOLOGY FOR USING INTERACTIVE METHODS IN PHYSICS LESSONS //GOLDEN BRAIN. – 2025. – T. 3. – №. 17. – C. 113-118.

5. Jo'rayev A. R., Sh N. Shadiyeva, AM Shoyimov "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarining o'rni. UzMU xabarleri. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022 y. – № 1/12/1. Toshkent sh. 168-171 b.

6. Shoimov A., Tojiyeva I., Shodiyeva G. Talabalarni Axborot Ta'lim Muhitida Kasbiy Kompetentligini Boshqarishning Pedagogik-psixologik Xususiyatlari //Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali. – C. 676733.

7. Mamarizayevich S. A., Qizi M. S. A. PEDAGOGIK TA'LIM SOHALARIDA AXBOROT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 4. – C. 278-281.

Nabiyev Muhridin Baxtiyor o'g'li,
Farg'ona Davlat Universiteti
Maxsus huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: muhridin2210.deka@gmail.com
ORCID ID 0009-0000-3745-5699

O'ZBEKISTON EKOLOGIK QONUNCHILIGIDA BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARINING HUQUQIY IFODASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologik qonunchilik tizimida barqaror rivojlanish tamoyillarining huquqiy ifodasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda barqaror rivojlanish konsepsiyasining mazmun-mohiyati, uning ekologik huquq bilan o'zaro bog'liqligi hamda milliy qonunchilikda aks etish darajasi o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari asosida ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari tahlil etiladi. Maqolada barqaror rivojlanish tamoyillarini huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurati asoslab berilib, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, ekologik qonunchilik, ekologik huquq, ekologiyalashgan qonunchilik, barqaror rivojlanish tamoyillari, normativ-huquqiy asos, ekologik siyosat, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Аннотация. В данной статье анализируется правовое выражение принципов устойчивого развития в экологическом законодательстве Республики Узбекистан. В исследовании рассматривается сущность концепции устойчивого развития, ее взаимосвязь с экологическим правом и степень отражения в национальном законодательстве. Также проводится анализ действующих нормативно-правовых актов и механизмов реализации экологической политики. Обосновывается необходимость укрепления принципов устойчивого развития в правовой системе и предлагаются научно обоснованные рекомендации по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: устойчивое развитие, экологическое законодательство, экологическое право, экологизация законодательства, принципы устойчивого развития, нормативно-правовая база, экологическая политика, охрана окружающей среды.

Abstract. This article analyzes the legal expression of sustainable development principles in the environmental legislation of the Republic of Uzbekistan. The study examines the essence of the sustainable development concept, its relationship with environmental law, and its reflection in national legislation. It also analyzes current legal frameworks and mechanisms for implementing environmental policy. The paper substantiates the need to strengthen sustainable development principles in the legal system and proposes scientifically grounded recommendations for improving legislation.

Key words: sustainable development, environmental legislation, environmental law, ecologization of legislation, sustainable development principles, legal framework, environmental policy, environmental protection.

Kirish. Zamonaviy global rivojlanish jarayonlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari alohida dolzarflik kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, yer va suv resurslarining degradatsiyasi kabi muammolar insoniyat oldida barqaror rivojlanish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu nuqtai nazardan, barqaror

rivojlanish tamoyillarini huquqiy jihatdan mustahkamlash va ularni milliy qonunchilik tizimiga integratsiya qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Barqaror rivojlanish tushunchasi ilk bor XX asr oxirida xalqaro darajada shakllanib, unda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlash g'oyasi ilgari surilgan. Mazkur konsepsiya keyinchalik xalqaro huquqiy hujjatlar va dasturlarda, xususan, barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida o'z aksini topdi. Natijada ekologik huquq doirasida yangi yo'nalish - barqaror rivojlanish huquqi shakllana boshladi.

O'zbekiston Respublikasida ham barqaror rivojlanishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan strategik dasturlar ekologik qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ekologik qonunchilikda barqaror rivojlanish tamoyillarining to'liq va tizimli ifodalanishi hamon dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston ekologik qonunchiligida barqaror rivojlanish tamoyillarining huquqiy ifodalanishini tahlil qilish, mavjud normativ-huquqiy asoslarni o'rganish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv va doktrinal usullardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va uning huquqiy asoslari zamonaviy xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning nazariy asoslari ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, keyinchalik xalqaro huquq doirasida mustaqil yo'nalish sifatida rivojlandi.

Xorijiy olimlardan Philippe Sands o'z asarlarida barqaror rivojlanish prinsiplarini xalqaro ekologik huquqning ajralmas qismi sifatida baholab, uning huquqiy mexanizmlarini atroflicha tahlil qiladi. Marie-Claire Cordonier Segger esa barqaror rivojlanish huquqining evolyutsiyasini o'rganib, uning global huquqiy tizimdagi o'rnini asoslab beradi. Shuningdek, John C. Dernbach barqaror rivojlanishga erishishda integratsiyalashgan qaror qabul qilishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining xalqaro huquqdagi shakllanishi Rio Declaration on Environment and Development va boshqa xalqaro hujjatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ekologik xavfsizlik, ehtiyotkorlik prinsipi va "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili kabi asosiy g'oyalar mustahkamlangan.

Shunga qaramasdan, mavjud ilmiy tadqiqotlarda ekologik qonunchilikda barqaror rivojlanish tamoyillarining kompleks va tizimli tahlili yetarli darajada yoritilmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot barqaror rivojlanish tamoyillarining ekologik qonunchilikdagi huquqiy ifodalanishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda bir qator bir-birini to'ldiruvchi doktrinal (nazariy-huquqiy) usul, tizimli-huquqiy tahlil usul, qiyosiy-huquqiy usul kabi ilmiy metodlardan foydalanildi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida ekologik qonunchilik tizimi barqaror rivojlanish tamoyillarini bosqichma-bosqich o'zida aks ettirib bormoqda. Xususan, 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu barqaror rivojlanishning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanganligini anglatadi.

Shuningdek, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, "Ekologik ekspertiza,

atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari, jumladan, ekologik xavfsizlik, ehtiyotkorlik (precautionary principle), tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi prinsiplar o'z ifodasini topgan. Masalan, ekologik ekspertiza institutining joriy etilishi har qanday xo'jalik faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini oldindan baholash orqali barqaror rivojlanish talablarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"da 2030-yilgacha bo'lgan davrda ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha strategik vazifalar belgilangan. Mazkur hujjat barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy darajada amalga oshirishning muhim huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi.

2022-yil 21-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" ham barqaror rivojlanish tamoyillarining institutsional va normativ asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar ekologik qonunchilikda ayrim tizimli muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Birinchidan, barqaror rivojlanish tamoyillari ko'plab normativ-huquqiy hujjatlarda umumiy qoidalar darajasida ifodalangan bo'lib, ularning aniq huquqiy mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Masalan, "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili ayrim normativ hujjatlarda nazarda tutilgan bo'lsa-da, uni amaliyotda qo'llash mexanizmlari to'liq shakllanmagan.

Ikkinchidan, ekologik nazorat va monitoring tizimida samaradorlik yetishmasligi kuzatiladi. Davlat ekologik nazorati organlari faoliyatining institutsional jihatdan takomillashtirilishi zarur bo'lib, bu barqaror rivojlanish tamoyillarining amalda ta'minlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, ekologik qonunchilikni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Holbuki, xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, ekologik axborotdan foydalanish va qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash tamoyili barqaror rivojlanishning muhim elementi hisoblanadi.

Muhokama natijalariga ko'ra, O'zbekiston ekologik qonunchiligida barqaror rivojlanish tamoyillarini yanada samarali ifodalash uchun quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish zarur: birinchidan, barqaror rivojlanish tamoyillarini alohida normativ darajada mustahkamlash va ularning aniq huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish; ikkinchidan, ekologik nazorat va monitoring tizimini kuchaytirish; uchinchidan, ekologik boshqaruvda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish; to'rtinchidan, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida ekologik qonunchilik tizimi barqaror rivojlanish tamoyillarini muayyan darajada o'zida aks ettirayotganini ko'rsatdi. Xususan, konstitutsiyaviy normalar hamda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, ekologik ekspertiza va tabiiy resurslardan foydalanishga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ekologik muvozanatni saqlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi asosiy tamoyillar mustahkamlangan.

O'zbekiston ekologik qonunchiligini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirish uchun ushbu tamoyillarni aniq huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlash, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish va ekologik boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2023
2. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – p. 43.
3. United Nations. Rio Declaration on Environment and Development. – 1992;
4. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. – 2015.
5. Atruf-muhit va rivojlanish bo'yicha Rio Deklaratsiyasi (1992 yil 14 iyun).
6. Mensah J. Sustainable Development: Meaning, History, Principles and Pillars // Cogent Social Sciences. – 2019. – Vol. 5. – p. 3–5.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni “Atruf-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi to'g'risida”.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son qarori “2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”.
9. Barral V. Sustainable Development in International Law: Nature and Operation of an Evolutive Legal Norm // European Journal of International Law. – 2012. – p. 379–406.
10. Dernbach J.C. Achieving Sustainable Development: The Centrality and Multiple Facets of Integrated Decision Making // Indiana Journal of Global Legal Studies.
11. Schrijver N. The Evolution of Sustainable Development in International Law: Inception, Meaning and Status. Leiden: Martinus Nijhoff Publishers, 2008. – p. 25.
12. Cordonier Segger M.C. The Role of International Sustainable Development Law in the Evolution of International Law // International Sustainable Development Law. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – P. 5–8.
13. Xolmo'minov, J. “Ekologiya huquqi” darslik. Toshkent 2025.

Xamroyev Mansur Choriyevich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

MIGRANTLAR BILAN ISHLASHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada migrantlar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar zamonaviy jamiyat sharoitida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Migratsiya jarayonlari migrantlarning shaxsiy rivoji, emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda migrantlar orasida uchraydigan psixologik stress, xavotir, ijtimoiy begonalashuv, madaniy shok, til va muloqot to'siqlari, shuningdek, diskriminatsiya va stigma bilan bog'liq muammolar yoritiladi. Alohida e'tibor migrantlar bilan ishlovchi mutaxassislar - psixologlar, ijtimoiy xodimlar va pedagoglar duch keladigan kasbiy qiyinchiliklarga qaratiladi. Migrantlar bilan samarali ishlash uchun madaniyatlararo kompetensiya, empatiya, tolerantlik va kommunikativ ko'nikmalarning ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashning individual, guruhiy va institutsional mexanizmlari tahlil qilinib, migrantlarning psixologik farovonligini ta'minlash va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: migrantlar, ijtimoiy-psixologik muammolar, moslashuv, madaniyatlararo muloqot, diskriminatsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash.

Аннотация. В статье рассматриваются социально-психологические проблемы работы с мигрантами в условиях современных миграционных процессов. Миграция оказывает значительное влияние на эмоциональное состояние, социальную адаптацию и психологическое благополучие мигрантов. В работе анализируются такие проблемы, как стресс, тревожность, социальная отчужденность, культурный шок, языковые и коммуникативные барьеры, а также проявления дискриминации и социальной стигматизации. Особое внимание уделяется трудностям, с которыми сталкиваются специалисты, работающие с мигрантами, включая психологов, социальных работников и педагогов. Подчеркивается значение межкультурной компетентности, эмпатии, толерантности и профессиональных коммуникативных навыков в процессе взаимодействия с мигрантами. В статье обосновывается необходимость комплексного социально-психологического сопровождения мигрантов, включающего индивидуальные и групповые формы помощи, а также институциональные меры поддержки. Сделан вывод о том, что эффективная работа с мигрантами способствует не только их успешной интеграции, но и укреплению социальной стабильности принимающего общества.

Ключевые слова: мигранты, социально-психологические проблемы, социальная адаптация, культурный шок, дискриминация, психологическая помощь.

Abstract. This article examines the socio-psychological problems associated with working with migrants in the context of contemporary migration processes. Migration significantly affects migrants' emotional well-being, social adaptation, and psychological stability. The study analyzes key challenges faced by migrants, including psychological stress, anxiety, social alienation, culture shock, language and communication barriers, as well as experiences of discrimination and social stigma. Particular attention is paid to the professional difficulties encountered by specialists working with migrants, such as psychologists, social workers, and educators. The article emphasizes the importance of intercultural competence, empathy, tolerance, and effective communication skills in providing psychosocial support to migrant populations. Various individual, group-based, and

institutional support mechanisms are discussed as essential components of effective work with migrants. The findings highlight that comprehensive socio-psychological support not only facilitates migrants' successful integration into host societies but also contributes to social cohesion and long-term social stability.

Key words: *migrants, socio-psychological problems, social adaptation, culture shock, discrimination, psychosocial support.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlari dunyoning deyarli barcha hududlarini qamrab olib, jamiyatlarning ijtimoiy tuzilmasi va psixologik muhitga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Migrantlar sonining ortishi bilan bog'liq holda ularni qabul qiluvchi jamiyatlar oldida nafaqat iqtisodiy va huquqiy, balki murakkab ijtimoiy-psixologik muammolar ham yuzaga kelmoqda. Migrantlar bilan ishlash jarayoni shaxsning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi, emotsional barqarorligi va jamiyatga integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu jarayonlarda psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Migratsiya shaxs hayotida keskin o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi stressli vaziyat hisoblanadi. Yangi til, yangi madaniyat, notanish ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy rollar migrantlarda xavotir, ishonchsizlik, yolg'izlik hissi va psixologik zo'riqishni kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, diskriminatsiya, stigma va ijtimoiy chetlanish holatlari migrantlarning ruhiy holatini yanada murakkablashtiradi. Shu sababli migrantlar bilan ishlashda faqat tashkiliy yoki ma'muriy choralar bilan cheklanib qolmasdan, ularning psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan kompleks yondashuv zarur bo'ladi.

Migrantlar bilan ishlovchi mutaxassislar - psixologlar, ijtimoiy xodimlar, pedagoglar va boshqa soha vakillari - ko'pincha madaniyatlararo tafovutlar, kommunikativ to'siqlar va psixologik qarshiliklarga duch keladilar. Ushbu jarayonda empatiya, tolerantlik, madaniyatlararo kompetensiya va samarali muloqot ko'nikmalarining yetishmasligi ish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, migrantlarning psixologik muammolarini o'z vaqtida aniqlamaslik ularning jamiyatga moslashuv jarayonini cho'zib yuboradi va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, migrantlar bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik muammolarini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar migrantlarning psixologik farovonligini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash va qabul qiluvchi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Migrantlar bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik muammolari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish migratsiyani shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir jarayoni sifatida talqin qiladigan konsepsiyalar asosida shakllanadi. Xorijiy tadqiqotlarda migrantlar bilan ishlash masalasi, avvalo, moslashuv (adaptation), akkulturationsiya (acculturation), ijtimoiy integratsiya (integration) va psixologik farovonlik (well-being) tushunchalari bilan bevosita bog'lab izohlanadi. J. W. Berry tomonidan ishlab chiqilgan akkulturationsiya modeli migrantning qabul qiluvchi jamiyat madaniyatiga munosabati va o'z madaniy identitetini saqlash darajasiga ko'ra integratsiya, assimilyatsiya, separatsiya va marginalizatsiya strategiyalarini farqlaydi; ushbu yondashuv amaliyotda migrantlar bilan ishlashda muammolar nima uchun bir xil sharoitda ham turlicha namoyon bo'lishini tushuntiradi, chunki integratsiya strategiyasi ko'proq psixologik barqarorlik va ijobiy ijtimoiy aloqalar bilan kechsa, marginalizatsiya holatida begonalashuv, depressiv holatlar va ijtimoiy chekinish xavfi ortadi. Shu mantiqdan kelib chiqib, xorijiy

adabiyotlarda migrantlar bilan ishlashning muhim sharti sifatida qabul qiluvchi muhitning ochiqligi, diskriminatsiya darajasi va “moslashuv uchun imkoniyatlar” (til o‘rganish, ish topish, ijtimoiy xizmatlar)ning mavjudligi ko‘rsatiladi.

Madaniyatlararo moslashuv jarayonini yoritishda C. Ward, S. Bochner va A. Furnham ishlarida psixologik moslashuv (emotsional holat, qoniqish, stress) va sotsiokultural moslashuv (kundalik hayot ko‘nikmalari, muloqot, norma rioya) ajratib ko‘rsatiladi; bu ajratish migrantlar bilan ishlashda ko‘pincha xatolik qilinadigan nuqtani ko‘rsatadi: faqat rasmiy hujjatlar, ish va yashash masalalarini hal qilish migrantning emotsional iztiroblari, yolg‘izlik, ayb yoki uyat hissi kabi ichki muammolarini avtomatik bartaraf etmaydi. Demak, adabiyotlar amaliy yordamni psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan birlashtirish zarurligini asoslaydi. Xususan, R. Lazarus va S. Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stress–baholash–coping yondashuvi migrantlar duch keladigan stressorlar (til to‘siqlari, ijtimoiy maqom pasayishi, noaniqlik, huquqiy cheklovlar) shaxs tomonidan qanday baholanishi va qanday coping strategiyalari tanlanishiga qarab psixologik natijalar keskin farqlanishini ko‘rsatadi; bu esa migrantlar bilan ishlashda psixosozlik, stress-management, muammo yechishga yo‘naltirilgan copingni kuchaytirish, ijtimoiy yordam so‘rash ko‘nikmalarini o‘rgatish kabi yo‘nalishlarning ilmiy asosini beradi. Resurslar nuqtai nazaridan S. Hobfollning “resurslarni saqlash” (Conservation of Resources) nazariyasi ham migrantlar bilan ishlash muammolarini chuqurroq tushuntiradi: migratsiya ko‘pincha resurs yo‘qotish (ijtimoiy tarmoq uzilishi, til kompetensiyasi yetishmasligi, maqom pasayishi, madaniy kapitalning “ishlamasligi”) bilan boshlanadi; agar mutaxassislar resurslarni tiklash (ijtimoiy tarmoq yaratish, kasbiy qayta yo‘naltirish, huquqiy himoya, jamoaga kirish) strategiyalarini taklif qila olmasa, stress kuchayib, moslashuv cho‘ziladi.

Ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda migrantlar bilan ishlashdagi eng og‘riqli yo‘nalishlardan biri diskriminatsiya va stigma muammosi sifatida ko‘rsatiladi. Bu yerda E. Goffmannning stigma haqidagi g‘oyalari migrantlarning “boshqacha” sifatida belgilanishi ularda o‘zini past baholash, ijtimoiy chekinish, o‘zini himoya qilish uchun tajovuzkorlik yoki “ko‘rinmas bo‘lishga” intilish kabi strategiyalarni yuzaga keltirishi mumkinligini izohlaydi. Ijtimoiy identitet nazariyasi (H. Tajfel, J. Turner) esa “biz–ular” chegaralarining kuchayishi qabul qiluvchi jamiyatda ham, migrantlar guruhida ham stereotiplash va ijtimoiy masofani oshirishini, natijada muloqot sifatining pasayishi va ziddiyatlar ehtimoli ortishini ko‘rsatadi. Shuning uchun xorijiy manbalarda migrantlar bilan ishlashda faqat migrantning o‘zini “o‘zgartirish” emas, balki qabul qiluvchi jamiyatda tolerantlikni kuchaytirish, interkultural dialog, ommaviy ma’rifiy ishlar orqali ijtimoiy muhitni ham tayyorlash zarurligi ta’kidlanadi.

Rus ilmiy maktabida migratsiya muammolari ko‘proq ijtimoiy jarayon, demografik siljishlar va moslashuvning institutsional sharoitlari bilan bog‘liq holda yoritiladi, biroq bu yondashuv ijtimoiy-psixologik muammolarni tushuntirishda ham muhim nazariy tayanch beradi. L. L. Рыбаковский migratsiyani omillar va oqibatlar tizimi sifatida ko‘rib, migrantlarning moslashuvi jamiyatning ijtimoiy siyosati, mehnat bozori va ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi; bu esa amaliyotda migrantlar bilan ishlashda “faqat psixologik yordam” yetarli bo‘lmasligini, institutsional mexanizmlar (bandlik, ta’lim, huquqiy himoya, ijtimoiy xizmatlar) bilan integratsiyalashgan yondashuv zarurligini anglatadi. V. A. Ионцев migratsiya tadqiqotlarining metodologik yo‘nalishlarini umumlashtirib, migratsiyani tahlil qilishda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik indikatorlar (ijtimoiy kayfiyat, qo‘rquv va xavotir, ijtimoiy ishonch)ni ham e’tiborga olish kerakligini asoslaydi. J. A. Зайончковская hamda V. I. Мукомель ishlari migratsiya oqimlari, moslashuv va integratsiya muammolarini keng yoritib, mahalliy hamjamiyat va institutlar bilan muloqot mexanizmlarini (mahalla analogi, NNT, ijtimoiy xizmatlar, diasporalar) migrantlar farovonligi uchun muhim omil sifatida ko‘rsatadi.

Bevosita ijtimoiy-psixologik yoʻnalishda G. M. Андреева shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy persepsiya masalalarini markazga qoʻygan holda, migrantlar bilan ishlashdagi koʻplab qiyinchiliklar aslida notoʻgʻri talqin (atribusiya xatolari), stereotiplar va muloqotdagi kontekst tafovutlari bilan bogʻliqligini izohlashga yordam beradi. A. A. Леонтьевning muloqot psixologiyasi boʻyicha qarashlari esa til va muloqot toʻsiqlari faqat lugʻat bilmaslik emas, balki maʼno, intonatsiya, ijtimoiy ishoralar, masofa va odob meʼyorlari kabi noverbal va pragmatik komponentlarning mos kelmasligi tufayli ham yuzaga kelishini koʻrsatadi; shu bois migrantlar bilan ishlashda “kommunikativ kompetensiya”ni rivojlantirish treninglari va mediatorlik amaliyotlari ilmiy jihatdan asosli vosita sifatida koʻriladi. Rus etnopsixologiyasi va tolerantlik tadqiqotlarida (T. G. Солдатова maktabi) ijtimoiy masofa, ksenofobiya, stereotiplash va ijtimoiy taranglik muammolari tahlil qilinib, migrantlar bilan ishlashda konflikt profilaktikasi, tolerantlikni oshirish, guruhlararo dialoglarni tashkil etish kabi yondashuvlar taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlilining umumiy natijasi shuki, migrantlar bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik muammolari odatda bir-biriga uzviy bogʻlangan toʻrtta blokda jamlanadi: birinchisi, moslashuv va stress muammolari (xavotir, madaniy shok, resurs yoʻqotish, coping tanlovi); ikkinchisi, muloqot va madaniyatlararo toʻsiqlar (til, pragmatika, noverbal signallar, ijtimoiy meʼyorlar); uchinchisi, ijtimoiy munosabatlar va qabul qilinish (stigma, diskriminatsiya, ijtimoiy identitet, ijtimoiy masofa); toʻrtinchisi, institutsional va amaliy qoʻllab-quvvatlashning yetarliligi (bandlik, taʼlim, huquqiy himoya, psixologik xizmatlar, mediatorlik). Shu sababli zamonaviy ilmiy qarashlar migrantlar bilan ishlashda kompleks yondashuvni ustuvor deb biladi: individual konsultatsiya va psixodiagnostika guruhiy treninglar, ijtimoiy tarmoq yaratish, madaniyatlararo mediatorlik, hamjamiyatni tayyorlash hamda institutsional xizmatlar bilan uzviy bogʻlangan holda amalga oshirilgandagina ijobiy natija barqaror boʻladi. Bu yondashuv migrantning psixologik farovonligini oshirish bilan birga, qabul qiluvchi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Muhokama. Migrantlar bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik muammolarini muhokama qilish shuni koʻrsatadiki, ushbu faoliyat koʻp qatlamli va murakkab jarayon boʻlib, u nafaqat migrantlarning individual psixologik holati, balki ularni qabul qiluvchi jamiyatning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi bilan ham chambarchas bogʻliqdir. Migratsiya jarayoniga jalb etilgan shaxslar koʻpincha yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish jarayonida kuchli psixologik bosimni boshdan kechiradilar. Til toʻsiqlari, notanish ijtimoiy meʼyorlar, kasbiy maqomning pasayishi yoki yoʻqolishi, shuningdek, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tarmoqlarining uzilishi migrantlarda xavotir, ishonchsizlik, yolgʻizlik va emotsional beqarorlikni kuchaytiradi. Shu sababli migrantlar bilan ishlash jarayonida eng avvalo ularning psixologik ehtiyojlarini aniqlash va stressni kamaytirishga qaratilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokamada muhim jihatlardan biri shundaki, migrantlar bilan ishlashdagi muammolar faqat migrantning oʻziga xos xususiyatlari bilan cheklanmaydi, balki qabul qiluvchi jamiyatda mavjud boʻlgan stereotiplar, ijtimoiy masofa va diskriminatsion munosabatlar bilan ham bogʻliqdir. Migrantlar koʻpincha “begona” sifatida qabul qilinib, ijtimoiy chetlanish yoki stigma bilan yuzma-yuz keladilar. Bu holat ularning oʻzini past baholashiga, ijtimoiy faolligining pasayishiga yoki aksincha, himoyaviy va tajovuzkor xulq-atvorning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, migrantlar bilan ishlash faqat moslashuvga yordam berish emas, balki qabul qiluvchi jamiyatda tolerantlik, empatiya va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishni ham oʻz ichiga olishi lozim.

Muhokamada alohida eʼtibor migrantlar bilan ishlovchi mutaxassislarining kasbiy qiyinchiliklariga ham qaratiladi. Psixologlar, ijtimoiy xodimlar va pedagoglar koʻpincha

madaniy tafovutlar, muloqotdagi noaniqliklar va migrantlarning psixologik qarshiligi bilan duch keladilar. Agar mutaxassisda madaniyatlararo kompetensiya va empatik yondashuv yetarli bo'lmasa, yordam jarayoni samarasiz bo'lishi yoki ishonch munosabatlari shakllanmasligi mumkin. Shu bois migrantlar bilan ishlashda mutaxassislarning o'zlari uchun ham doimiy treninglar, superviziya va metodik qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, muhokamada migrantlar bilan ishlashning individual va guruhiiy shakllari o'rtasidagi muvozanat masalasi ham muhim o'rin tutadi. Individual psixologik maslahat migrantning shaxsiy muammolarini chuqurroq tahlil qilish imkonini bersa, guruhiiy treninglar va qo'llab-quvvatlovchi guruhlar ijtimoiy aloqalarni tiklash, o'zaro tajriba almashish va ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday guruhiiy ishlar migrantlarda "yolg'iz emasman" degan psixologik hissiyotning shakllanishiga yordam berib, moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

Umuman olganda, muhokama natijalari migrantlar bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik muammolari tizimli va kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Ushbu faoliyat migrantning individual psixologik holatini qo'llab-quvvatlash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, qabul qiluvchi jamiyatda ijtimoiy tayyorgarlikni kuchaytirish hamda institutsional yordam mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali samarali bo'lishi mumkin. Aynan shunday yondashuv migrantlarning psixologik farovonligini ta'minlash bilan birga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil va muhokamalar shuni ko'rsatadiki, migrantlar bilan ishlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, u migrantlarning individual psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va qabul qiluvchi jamiyat bilan o'zaro munosabatlari uyg'unligiga bevosita bog'liqdir. Migratsiya shaxs hayotida keskin o'zgarishlarni keltirib chiqarib, yangi madaniy muhit, til, ijtimoiy me'yorlar va rollarga moslashishni talab qiladi. Ushbu jarayon ko'pincha kuchli psixologik stress, xavotir, yolg'izlik hissi va emotsional beqarorlik bilan kechadi, bu esa migrantlar bilan ishlashda chuqur psixologik yondashuv zarurligini taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migrantlar bilan ishlashdagi muammolar faqat migrantning shaxsiy xususiyatlari bilan izohlanmaydi, balki qabul qiluvchi jamiyatda mavjud bo'lgan stereotiplar, diskriminatsiya va ijtimoiy masofa bilan ham chambarchas bog'liqdir. Migrantlarga nisbatan salbiy munosabatlar va stigma ularning o'zini past baholashi, ijtimoiy chekinishi yoki psixologik himoya sifatida tajovuzkor xulq-atvorni namoyon etishiga olib kelishi mumkin. Shu bois migrantlar bilan ishlash jarayoni ikki tomonlama yo'nalishga ega bo'lib, bir tomondan migrantlarning psixologik moslashuvini qo'llab-quvvatlashni, ikkinchi tomondan esa qabul qiluvchi jamiyatda tolerantlik va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishni o'z ichiga olishi lozim.

Xulosa qilish mumkinki, migrantlar bilan samarali ishlash individual psixologik yordam, guruhiiy qo'llab-quvvatlash, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va institutsional yordam mexanizmlarini uyg'unlashtirgan kompleks yondashuv asosida amalga oshirilgandagina barqaror natija beradi. Bunday yondashuv migrantlarning psixologik farovonligini ta'minlash bilan birga, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini tezlashtiradi hamda umumiy ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Berry J. W. Immigration, acculturation, and adaptation // *Applied Psychology*. – 1997. – Vol. 46, № 1. – P. 5–34.
2. Ward C., Bochner S., Furnham A. *The Psychology of Culture Shock*. – 2nd ed. –

3. London: Routledge, 2001. – 368 p.
4. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984. – 456 p.
5. Hobfoll S. E. Conservation of Resources: A New Attempt at Conceptualizing Stress // *American Psychologist*. – 1989. – Vol. 44, № 3. – P. 513–524.
6. Tajfel H., Turner J. C. An Integrative Theory of Intergroup Conflict // *The Social Psychology of Intergroup Relations*. – Monterey, CA: Brooks/Cole, 1979. – P. 33–47.
7. Goffman E. Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1963. – 147 p.
8. International Organization for Migration. World Migration Report 2022. – Geneva: IOM, 2022. – 520 p.
9. United Nations. International Migration 2020 Highlights. – New York: United Nations, 2020. – 44 p.
10. Рыбаковский Л. Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – Москва: Наука, 2003. – 256 с.
11. Ионцев В. А. Международная миграция населения: теория и история изучения. – Москва: Диалог-МГУ, 1999. – 370 с.
12. Зайончковская Ж. А. Миграция и интеграция: социально-психологические аспекты // *Социологические исследования*. – 2016. – № 8. – С. 45–54.
13. Мукомель В. И. Миграция и социальная интеграция. – Москва: Институт социологии РАН, 2011. – 324 с.

Mamatqulov Akbarjon Raim o'g'li,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA TEXNIKA TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Raqamli muhitda ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, talabalar kognitiv, motivatsion va kommunikativ faoliyatining o'zgarishi, shuningdek, virtual treninglar, simulyatsiyalar va raqamli vositalar yordamida kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish omillari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda kompetensiyalarni rivojlantirishda psixologik qo'llab-quvvatlash, refleksiya, o'zini o'zi baholash va raqamli kompetentlikning integrativ roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, texnika talabalari, psixologik mexanizmlar, motivatsiya, kognitiv jarayonlar, raqamli ta'lim.

Abstract. It explores the specific features of the educational process in a digital environment, changes in students' cognitive, motivational and communicative activities, as well as the role of virtual trainings, simulations and digital tools in enhancing professional preparation. The study highlights the significance of psychological support, reflection, self-assessment, and digital literacy as integral components of competency development.

Key words: digital technologies, professional competence, engineering students, psychological mechanisms, motivation, cognitive processes, digital education.

Аннотация. Рассматриваются особенности образовательного процесса в цифровой среде, изменения когнитивной, мотивационной и коммуникативной активности студентов, а также роль виртуальных тренингов, симуляций и цифровых инструментов в повышении профессиональной подготовки. В исследовании подчеркивается важность психологической поддержки, рефлексии, самооценки и цифровой грамотности как ключевых компонентов развития компетенций.

Ключевые слова: Цифровые технологии, профессиональная компетентность, студенты технических специальностей, психологические механизмы, мотивация, когнитивные процессы, цифровое обучение.

Kirish. Raqamli transformatsiya sharoitida yosh mutaxassislar oldiga qo'yilayotgan talablar avvalgidan mutlaqo farq qiladi. Texnika yo'nalishidagi kasblar tobora murakkablashib borar ekan, talabalarning kognitiv jarayonlari (idrok, tafakkur, xotira, e'tibor), motivatsiya tizimi, stressga chidamliligi, kreativ faoliyati va kommunikativ ko'nikmalari ham yangicha formatda shakllanishi zarur bo'lmoqda. Chunki raqamli texnologiyalar bilan ishlash jarayoni talabalardan yuqori darajadagi intellektual faollik, tezkor qaror qabul qilish, moslashuvchan fikrlash, psixologik barqarorlik va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini talab etadi. Shu bois raqamli ta'lim muhiti sharoitida kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining psixologik mexanizmlarini aniqlash, ularning tarkibini ochib berish va samarali rivojlantirish yo'llarini belgilash zamonaviy pedagogik va psixologik ilmfanning muhim vazifalaridan biridir.

Raqamli ta'limning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u o'qituvchi va talaba o'rtasidagi an'anaviy munosabatlar modelini o'zgartirib, ta'lim jarayonini interaktiv, individual, moslashuvchan va texnologik jihatdan boyitilgan ko'rinishga olib chiqmoqda. Masofaviy ta'lim, virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar, sun'iy intellektga asoslangan o'quv platformalar, raqamli o'quv modullari talabalarning kasbiy tayyorgarligida muhim psixologik jarayonlarni faollashtiradi: o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil fikrlash, refleksiya, o'zlashtirishning individual strategiyalarini ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarda kognitiv

moslashuvchanlikni namoyon etish. Bularning barchasi kasbiy kompetensiyalarning poydevorini tashkil etadi.

Biroq raqamli muhitning afzalliklari bilan bir qatorda, uning psixologik xavf omillari ham mavjud. Axborot yuklanishining ortishi, ko'p vazifalilik (multitasking), e'tiborning tez chalg'ishi, raqamli charchoq, kommunikatsiyaning virtual ko'rinishi, real o'zaro munosabatlarning qisqarishi talabalarda psixologik zo'riqish holatlariga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, raqamli kompetentlik darajasining pastligi talabaning o'z-o'zini baholashiga, motivatsiyasiga va o'quv faoliyatidagi ishtirokiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bois raqamli texnologiyalar sharoitida talabaning psixologik qo'llab-quvvatlanishi, stressni boshqarish ko'nikmalarining shakllanishi, motivatsion tizimning barqarorligi ham kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining ajralmas qismidir.

Texnika yo'nalishidagi talabalar uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish faqat texnik ko'nikmalarni egallash bilan cheklanmaydi. Aksincha, bu jarayon talabaning psixologik tayyorgarligini, intellektual salohiyatini, shaxs sifatida rivojlanish jarayonini, kasbiy identifikatsiyasini, o'z kasbiga bo'lgan ijtimoiy-motivatsion munosabatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli texnika talabalari kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik mexanizmlari - bu murakkab, ko'p omilli, o'zaro bog'langan jarayon bo'lib, unda motivatsion, kognitiv, affektiv, kommunikativ va refleksiv komponentlar o'zaro integratsiyalashadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, raqamli texnologiyalar asosida o'qitilayotgan texnika talabalari uchun mavjud psixologik holat, ta'lim muhiti va kasbiy kompetensiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan aniqlash nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy ta'lim jarayonida - o'quv rejalari, metodikalar, trening dasturlari, raqamli platformalar va psixologik xizmatlarni takomillashtirishda - muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bois bu mavzuning chuqur o'rganilishi zamonaviy ta'limning sifatini oshirishga, texnik kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga va yoshlarning kasbiy rivojlanishiga bevosita xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga chuqur kirib kelgan hozirgi davrda texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-adabiyotlar soni sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy tadqiqotchilar raqamli kompetentlik, kognitiv jarayonlar, motivatsion holat, psixologik moslashuv va professional sheriklik kabi omillarni talaba shaxsining kasbiy shakllanishida asosiy mezon sifatida ko'rsatadilar.

1. Raqamli kompetentlik nazariyalari va global ilmiy yondashuvlar

E. Ferrari, J. Voogt, R. Redecker, A. Martin kabi tadqiqotchilar raqamli kompetentlikni talabaning muvaffaqiyati uchun eng muhim ko'nikmalardan biri deb e'tirof etadilar. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar bilan ishlash nafaqat texnik malaka, balki axborotni tahlil qilish, muammoni hal etish, raqamli muhitda muloqot qilish va kreativ fikrlash jarayonlarini faollashtiradi.

Evropa Komissiyasining DigComp kompetensiya modeli ham texnika talabalari uchun zarur bo'lgan raqamli ko'nikmalarni aniq belgilab beradi. Ushbu modelda axborot savodxonligi, xavfsiz raqamli faoliyat, texnologiyalar yordamida muammolarni hal qilish va kommunikativ kompetentlik yetakchi o'rinlarda turadi.

2. Kasbiy kompetensiyalar va psixologik mexanizmlar bo'yicha ilmiy qarashlar

Kasbiy kompetensiya tushunchasi bo'yicha K. Prange, R. Boyatzis, J. Raven, L. Spencerlar olib borgan tadqiqotlarda kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati psixologik omillar bilan kuchli bog'liqligi qayd etilgan. Ayniqsa:

motivatsiya tizimi,
kognitiv qobiliyatlar,
stressga bardoshlilik,

o'zini o'zi boshqarish,
emosional barqarorlik,
ijodkorlik va tashabbuskorlik
kompetensiyalarni rivojlantiruvchi asosiy psixologik mexanizmlar hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya, xususan o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) g'oyalari raqamli texnologiyalardan foydalanishda talabalarning faoliyatga kirishish darajasiga, o'zlashtirish sur'atiga va muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3. Raqamli texnologiyalar va ta'lim psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar

Masofaviy ta'lim, virtual laboratoriyalar, AR/VR texnologiyalar va simulyatsion o'quv dasturlari talabalarning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi borasida ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Xususan:

J. Salomonning kognitiv yondashuvi raqamli vositalar talabaning idroki, xotirasi va tafakkurini qanday faollashtirishini ochib beradi.

J. Mayerning multimedia o'qitish nazariyasi raqamli muhitda axborotni qayta ishlash jarayonlarining psixologik asoslarini yoritadi.

R. Clark va D. Feldonlar raqamli ta'limning o'quv jarayonida motivatsiya va emosional holatni kuchaytirishi yoki, aksincha, pasaytirishi mumkinligini isbotlagan.

Ko'pgina tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning samaradorligi talabaning individual psixologik xususiyatlari bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Jumladan:

raqamli charchoq,
diqqatning tez chalg'ishi,
informatsion yuklanish,
raqamli stress

talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

4. Texnika talabalari kompetensiyalarini shakllantirishda virtual treninglar va simulyatsiyalarning roli

So'nggi yillarda M. Pappano, S. Johnson, A. Brown kabi tadqiqotchilar texnika yo'nalishida virtual laboratoriyalar, VR-simulyatorlar va sun'iy intellektga asoslangan o'quv tizimlari talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydilar. Psixologik nuqtai nazardan bunday texnologiyalar:

faol ishtirokni kuchaytiradi,
o'quv motivatsiyasini oshiradi,
real va xavfli tajribalarni xavfsiz tarzda mashq qilish imkonini beradi,
refleksiv fikrlashni rivojlantiradi,
xatolardan o'rganish samaradorligini oshiradi.

Bu jarayonda talabada shakllanadigan metakognitiv ko'nikmalar – o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish, o'z bilimni tahlil qilish, fikrlash strategiyalarini tanlash – muhim psixologik mexanizm sifatida ko'riladi.

5. O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida raqamli ta'lim va kompetensiya masalalari

So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari ham raqamli ta'lim, pedagogik innovatsiyalar va talabalarning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha ilmiy ishlarni keng rivojlantirmoqda. Jumladan:

A. Jabborov,
S. Qo'ysinov,
M. Jo'rayev,
Sh. Raxmatov,
N. Jo'raboeva

tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli ta'lim muhiti, texnika ta'limi sifatini oshirish, kompetensiyaga asoslangan ta'lim texnologiyalari, talabalarning motivatsion va

psixologik tayyorgarligi masalalari chuqur o'rganilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda quyidagilarga alohida urg'u beriladi:

raqamli savodxonlikni oshirish,

o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish,

texnika ta'limida AKT vositalaridan samarali foydalanish,

talabalarning psixologik qiziqishlari va motivatsiyasini mustahkamlash.

Bu ilmiy manbalar texnika talabalari kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

Raqamli texnologiyalar kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni tezlashtiradi.

Ammo psixologik omillar (motivatsiya, o'z-o'zini boshqarish, metakognitiv qobiliyatlar) jarayonni belgilovchi asosiy mexanizmlardir.

Ilmiy adabiyotlarda texnika talabalari uchun raqamli vositalar bilan ishlashda psixologik qo'llab-quvvatlash ayniqsa muhim deb e'tirof etilmoqda.

Raqamli texnologiyalar samaradorligi talabaning individual psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

Xulosa. Tadqiqot ko'rsatdiki, raqamli muhitning o'ziga xos xususiyatlari, talabaning kognitiv, motivatsion va kommunikativ faoliyati, shuningdek psixologik barqarorlik darajasi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda bevosita rol o'ynaydi.

Birinchidan, raqamli kompetentlik talabaning texnik bilimlari va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashda asosiy vosita hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsion mashg'ulotlar, AR/VR texnologiyalar va raqamli treninglar talabalarga murakkab texnik vazifalarni xavfsiz va samarali tarzda bajarish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanish talabaning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantiradi, ya'ni o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va yechim strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi.

Ikkinchidan, motivatsiya psixologik mexanizm sifatida kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot ko'rsatdiki, ichki motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar raqamli vazifalarni faol bajaradi, texnologiyalarni tez o'zlashtiradi va murakkab vaziyatlarda ijodiy yondashadi. Ichki rag'bat va tashqi rag'batning uyg'unligi talabaning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, samaradorlik va o'quv jarayonida ishtirok etishini oshiradi.

Uchinchidan, stressga bardoshlilik va raqamli charchoq kabi psixologik omillar talabaning kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga sezilarli ta'sir qiladi. Uzluksiz va intensiv raqamli muhitda ishlash ba'zi talabalar uchun diqqatning chalg'ishi, motivatsiyaning pasayishi va e'tiborning so'nishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli raqamli ta'lim jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash, stressni boshqarish strategiyalari va vaqtni samarali taqsimlash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, refleksiya va kommunikativ kompetensiyalar raqamli vositalardan foydalanish jarayonida mustahkamlanadi. Talaba o'z faoliyatini tahlil qilganda, virtual guruh ishlari va onlayn munozaralarda ishtirok etganda, u nafaqat texnik bilimlarini rivojlantiradi, balki o'z fikrini ifodalash, muammolarni birgalikda hal qilish va jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa texnika yo'nalishidagi mutaxassislarning professional salohiyatini yaxlit tarzda oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar sharoitida texnika talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni psixologik nuqtai nazardan ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, unda motivatsiya, kognitiv faollik, stressga bardoshlilik, refleksiya va kommunikativ ko'nikmalar o'zaro integratsiyalashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. New York: Freeman.
2. Boyatzis, R. E., & Spencer, L. M. (1993). *Competence at work: Models for superior performance*. New York: John Wiley & Sons.
3. Ferrari, A. (2012). *Digital competence in practice: An analysis of frameworks*. European Commission.
4. Mayer, R. E. (2005). *The Cambridge handbook of multimedia learning*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*, 55(1), 68-78.
6. Redecker, C., & Punie, Y. (2017). *European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu*. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
7. Salomon, G. (1994). *Interaction of media, cognition, and learning*. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
8. Clark, R. C., & Feldon, D. (2005). Five common misconceptions about instructional technology. *Performance Improvement*, 44(6), 35-39.

Mamatrayimov Jumanazar Mamatmurod o'g'li,
Independent Researcher Nizami National University of Uzbekistan

THE IMPACT OF PEERS AND SOCIAL MEDIA ON ADOLESCENTS' PSYCHE IN RELATION TO DESTRUCTIVE RELIGIOUS IDEAS

Annotatsiya. Ushbu maqolada tengdoshlar muhiti va ijtimoiy tarmoqlarning destruktiv diniy g'oyalarni shakllantirish va tarqatishdagi roli hamda ularning o'smirlar psixikasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri tahlil qilinadi. O'smirlar davri shaxsning o'zini anglash, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va dunyoqarashini shakllantirish jarayoni bilan tavsiflanadi. Aynan shu davrda tengdoshlar fikri va virtual makondagi axborotlar o'smirlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan manipulyativ va radikal diniy kontent o'smirlarning emotsional beqarorligi, tanqidiy fikrlash yetishmasligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojidan foydalanadi. Natijada o'smirlarda destruktiv diniy qarashlar, agressiv xulq-atvor, ijtimoiy yakkalanish va psixologik ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Maqolada mazkur jarayonlarning psixologik mexanizmlari yoritilib, profilaktika choralarini kuchaytirishda oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning o'zaro hamkorligi muhim omil sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: o'smirlar psixologiyasi, tengdoshlar ta'siri, ijtimoiy tarmoqlar, destruktiv diniy g'oyalar, radikallashtirish, psixologik xavfsizlik

Аннотация. В данной статье анализируется влияние группы сверстников и социальных сетей на формирование и распространение деструктивных религиозных идей, а также их негативное воздействие на психику подростков. Подростковый возраст является важным этапом личностного развития, когда формируются мировоззрение, ценностные ориентации и социальное поведение. В этот период подростки особенно чувствительны к мнению сверстников и информации, получаемой из цифровой среды. Социальные сети становятся эффективным инструментом психологического воздействия, где радикальные и экстремистские группы используют эмоциональную нестабильность, потребность в признании и недостаточно развитое критическое мышление подростков. Под влиянием деструктивных религиозных идей у подростков могут формироваться агрессивные установки, искажённые религиозные представления, социальная изоляция и внутренние психологические конфликты. В статье раскрываются основные психологические механизмы вовлечения подростков в подобные идеологии и подчёркивается необходимость комплексных профилактических мер. Особое внимание уделяется роли семьи, образовательных учреждений и специалистов в обеспечении психологической устойчивости подростков.

Ключевые слова: психология подростков, влияние сверстников, социальные сети, деструктивные религиозные идеи, радикализация, психологическая защита

Abstract. article explores the influence of peer groups and social media on the spread of destructive religious ideas and their impact on adolescent mental health. Adolescence is a crucial developmental stage marked by identity formation, emotional instability, and a strong need for social belonging. During this period, adolescents are particularly susceptible to peer pressure and digital information. Social media platforms create favorable conditions for the dissemination of manipulative and radical religious content, often targeting adolescents with limited critical thinking skills and a desire for social acceptance. As a result, exposure to destructive religious ideologies may lead to distorted beliefs, aggressive behavior, social isolation, and psychological distress among adolescents. The article examines key psychological mechanisms underlying adolescent vulnerability, including conformity, emotional manipulation, and cognitive immaturity. Furthermore, it emphasizes the

importance of preventive strategies aimed at strengthening adolescents' psychological resilience. The coordinated efforts of families, educational institutions, and society are highlighted as essential factors in promoting media literacy, critical thinking, and psychological well-being, thereby reducing the risks associated with radicalization in the digital environment.

Key words: *adolescent psychology, peer influence, social media, destructive religious ideas, radicalization, psychological resilience*

Introduction. In the context of rapid globalization and the accelerated development of digital technologies, social media has become an integral part of modern society, exerting a particularly strong influence on adolescents' worldviews, value systems, and behavior patterns. Adolescence represents a complex and critical stage of personal development during which individual identity is formed, social roles are internalized, and the need for peer approval significantly increases. These psychological characteristics make adolescents more vulnerable to external influences, including the impact of destructive religious ideas.

While social media and virtual communication platforms enable the rapid and widespread dissemination of information, they also create favorable conditions for the uncontrolled spread of manipulative and radical religious content. Destructive religious movements and extremist groups actively exploit adolescents' emotional instability, their need for social support, and insufficiently developed critical thinking skills in order to attract them to their ideologies. In this process, peer groups function as a powerful mediating factor, as the desire for "social acceptance" becomes one of the primary drivers of adolescent behavior.

As a result, exposure to destructive religious ideas may lead to increased aggression, intolerance, social isolation, psychological conflicts, and detachment from real-life social interactions among adolescents. Therefore, this issue should be considered not only as a matter of religious or information security but also as a significant psychological and pedagogical problem. Scientifically analyzing this phenomenon, identifying the factors influencing adolescents' mental health, and developing effective preventive measures constitute one of the most pressing challenges facing contemporary society.

Literature Review. Contemporary scientific research provides a comprehensive analysis of both the positive and negative effects of social media and peer influence on the psychological development of young people, particularly adolescents. Numerous scholars have noted that social media has become an inseparable part of adolescents' daily lives, fundamentally transforming processes such as online identity formation, self-perception, and the search for social roles. In this context, personality development becomes not only a result of positive social interaction but also highly susceptible to manipulation through content algorithms.

Russian scholars, including Yuliya R. Tagiltseva and her colleagues, emphasize that mechanisms of online recruitment into extremist communities pose a serious threat to youth socialization. Their studies demonstrate that access to extremist groups via digital platforms and the dissemination of supportive content through social networks negatively affect adolescents' overall social adaptation, simultaneously encouraging the formation of new identities based on radical narratives. In addition, research published in Russian and Central Asian academic journals examines the direct impact of social media on adolescents' mental health, highlighting how online content, manipulation, and continuous digital information flows influence psychological states and social behavior.

International research further confirms these findings by demonstrating that echo chambers and the concentration of homogeneous viewpoints within closed information

clusters accelerate radicalization processes on social media. Repetitive interactions reinforce existing beliefs, gradually drawing individuals toward extremist ideologies. Moreover, foreign studies focus on developing automated methods for detecting and monitoring radical content, analyzing recurring psychological patterns that contribute to the spread of extremist ideas in digital environments.

Local academic publications also explore the process of internalizing destructive religious ideas through online content, emphasizing the role of weakened critical thinking skills, identity uncertainty, and algorithmic content presentation. These processes have been linked to decreased psychological stability, increased stress levels, and social isolation among adolescents. Research additionally indicates that excessive social media use can negatively affect mental health, contributing to anxiety, depression, and low self-esteem.

Overall, the literature suggests that the negative influence of social media extends beyond religious radicalization. These platforms may also reinforce denominational stereotypes, intensify gender-related conflicts, and contribute to cyberbullying, all of which generate adverse psychological outcomes. Consequently, scholars stress the importance of promoting critical thinking, media culture, and digital literacy in order to maximize the positive potential of social media while minimizing its harmful effects. In general, scientific sources present a dual perspective on social media’s impact on psychological processes: on the one hand, enhancing social integration and communication, and on the other, facilitating manipulation, radicalization, and psychological stress. This underscores the necessity of strengthening adolescents’ critical awareness, educational literacy, and ability to filter information.

Research methodology. This study aims to empirically examine the impact of destructive religious ideas disseminated through peer influence and social media on adolescents’ mental health. Both quantitative and qualitative research methods were employed to achieve a comprehensive understanding of the phenomenon. The primary empirical method was a questionnaire survey, as it allows for an integrated assessment of adolescents’ behavior in social environments, patterns of social media use, and psychological conditions.

The study involved 120 adolescents aged 14–17, selected from general secondary schools and academic lyceums. The questionnaire consisted of three main sections: the first assessed the frequency and purpose of social media use, the second measured the strength of peer influence, and the third evaluated attitudes toward destructive religious content and psychological indicators such as anxiety, aggression, and social withdrawal. All items were designed using a Likert scale ranging from 1 (“strongly disagree”) to 5 (“strongly agree”).

The collected data were processed using the Statistical Package for the Social Sciences (SPSS). Descriptive statistics and correlational analysis were applied. In particular, the relationship between the intensity of social media use and susceptibility to destructive religious ideas was examined using Pearson’s correlation coefficient.

SPSS-Based Results Table

Table 1.

Correlation between the Level of Social Media Use and Susceptibility to Destructive Religious Ideas (SPSS Results)

Variables	N	Mean	Standard Deviation	Pearson r	p-value
Level of social media use	120	3.84	0.76	0.62	0.001
Susceptibility to destructive religious ideas	120	3.21	0.69		

The results presented in the table indicate a positive and statistically significant correlation between the level of social media use and susceptibility to destructive religious ideas ($r = 0.62$; $p < 0.01$). This finding suggests that adolescents who spend more time on social media are more likely to be exposed to and influenced by destructive religious content. The results empirically confirm that peer pressure and virtual environments exert a substantial influence on adolescents' psychological stability and provide a solid empirical basis for developing effective preventive strategies.

Discussion. The findings of this study highlight the significant role of peer influence and social media exposure in shaping adolescents' psychological vulnerability to destructive religious ideas. Adolescence is widely recognized as a developmental stage characterized by identity exploration, emotional instability, and an increased reliance on social approval. These psychological features make adolescents particularly susceptible to external influences, especially those originating from peer groups and digital environments. The results obtained through statistical analysis support the assumption that frequent engagement with social media platforms correlates with a higher tendency toward accepting manipulative and radical religious narratives.

Peer groups serve as a primary source of social validation during adolescence, often exerting a stronger influence than family or educational institutions. When peers normalize or endorse destructive religious content, adolescents are more likely to internalize such ideas in order to maintain a sense of belonging and acceptance. This process is intensified within online communities, where anonymity and algorithm-driven content exposure reinforce ideological conformity. Social media platforms, through selective information filtering and repetitive messaging, create echo chambers that limit adolescents' exposure to alternative viewpoints, thereby weakening critical thinking and increasing cognitive rigidity.

Moreover, the emotional dimension of social media content plays a crucial role in the radicalization process. Destructive religious narratives often appeal to adolescents' feelings of injustice, frustration, or social exclusion, offering simplified explanations and a sense of purpose. The study's results indicate that prolonged exposure to such emotionally charged content is associated with increased levels of anxiety, aggression, and social withdrawal. These psychological consequences further reduce adolescents' resilience, making them more dependent on online peer validation and ideological groups.

The discussion also underscores the importance of protective factors in mitigating these risks. Family involvement, school-based psychological support, and the development of media literacy skills emerge as essential components in strengthening adolescents' resistance to destructive influences. Encouraging open dialogue, fostering critical thinking, and promoting emotional regulation can significantly reduce the impact of harmful online and peer-driven ideologies. Overall, the findings suggest that addressing adolescent radicalization requires a multidimensional approach that integrates psychological, educational, and social interventions within both offline and digital contexts.

Conclusion. This study has examined the psychological impact of peer influence and social media on adolescents' susceptibility to destructive religious ideas within the context of contemporary digital environments. The findings confirm that adolescence is a particularly vulnerable developmental stage, characterized by identity exploration, emotional instability, and a heightened need for social belonging. These characteristics significantly increase adolescents' exposure to external influences, especially those transmitted through peer groups and social media platforms.

The analysis demonstrates that intensive social media use, combined with peer pressure, creates favorable conditions for the dissemination and internalization of manipulative and radical religious content. Destructive religious narratives often exploit adolescents' emotional

needs, offering simplified explanations, a sense of purpose, and social acceptance. As a result, adolescents may develop distorted belief systems, increased aggression, intolerance, social withdrawal, and psychological distress. The statistically significant correlation identified in the empirical findings reinforces the conclusion that digital exposure plays a crucial role in shaping adolescents' cognitive and emotional responses to harmful ideological content.

Furthermore, the study highlights that the influence of social media extends beyond religious radicalization, affecting overall psychological well-being and social behavior. Therefore, addressing this issue requires a comprehensive and multidisciplinary approach. Preventive strategies should focus on strengthening critical thinking skills, media literacy, and emotional regulation among adolescents. The active involvement of families, educational institutions, and mental health professionals is essential in fostering psychological resilience and providing adolescents with safe spaces for dialogue and support.

In conclusion, understanding the complex interaction between peer influence, social media, and adolescent psychology is vital for developing effective intervention and prevention mechanisms. By promoting informed digital engagement and reinforcing protective social environments, society can reduce the risks associated with destructive religious ideologies and support the healthy psychological development of adolescents.

List of references.

1. Бочарова Е. Е. Социальные сети как фактор влияния на формирование личности подростков. - М.: Институт психологии РАН, 2019. - 256 с.
2. Тагильцева Ю. Р., Иванов А. В. Психологические механизмы вовлечения молодежи в экстремистские интернет-сообщества // Вестник психологии. - 2020. - № 4. - С. 45–53.
3. Кондратьев М. Ю. Психология подростка: социальная ситуация развития. - М.: Академия, 2018. - 304 с.
4. Андреева Г. М. Социальная психология. - 6-е изд. - М.: Аспект Пресс, 2020. - 448 с.
5. Солдатова Г. У., Рассказова Е. И. Цифровая социализация подростков: риски и ресурсы. - М.: Просвещение, 2021. - 312 с.
6. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. - 247 p.
7. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. - New York: W. W. Norton & Company, 1968. - 336 p.

Toshmamatova Umida O'ktam qizi,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Student of the Faculty of Foreign Languages, Payariq
[E-mail:umidatoshmamatova06@gmail.com](mailto:umidatoshmamatova06@gmail.com)

SEMANTIC AND ETYMOLOGICAL FEATURES OF ETHNICALLY MOTIVATED PLACE NAMES IN UZBEK AND ENGLISH

Abstract. This article investigates the semantic and etymological characteristics of ethnically motivated place names in Uzbek and English. Ethnically marked toponyms represent an important linguistic layer through which historical identity, migration patterns, and cultural interaction are preserved. The study examines how ethnic references are encoded in place names and how these meanings evolve over time. By analyzing selected examples from both languages, the research identifies key semantic models and etymological sources that shape ethnically motivated naming practices. Uzbek toponyms are shown to preserve strong links to tribal, clan, and ethnonymic origins, while English toponyms reflect ethnic influences through historical settlement patterns and external invasions. The findings demonstrate that such toponyms function as linguistic markers of collective memory and contribute to understanding the interaction between language, ethnicity, and history.

Key words: *топонимы, этнонимические названия, семантический анализ, этимология, узбекский язык, английский язык, этническая идентичность, лингвистическое наследие.*

Аннотация. В данной статье исследуются семантические и этимологические особенности этнически мотивированных топонимов в узбекском и английском языках. Топонимы с этнической маркированностью представляют собой важный лингвистический слой, через который сохраняются историческая идентичность, миграционные процессы и культурные взаимодействия. В исследовании рассматривается, каким образом этнические элементы кодируются в географических названиях и как эти значения изменяются с течением времени. На основе анализа отобранных примеров из обоих языков выявляются ключевые семантические модели и этимологические источники, формирующие практику этнически обусловленного именования. Показано, что узбекские топонимы сохраняют тесную связь с племенными, родовыми и этнонимическими истоками, тогда как английские топонимы отражают этническое влияние через исторические процессы заселения и внешние завоевания. Полученные результаты свидетельствуют о том, что подобные топонимы функционируют как лингвистические маркеры коллективной памяти и способствуют пониманию взаимосвязи языка, этничности и истории.

Ключевые слова: *топонимия, этнонимические названия, семантический анализ, этимология, узбекский язык, английский язык, этническая идентичность, языковое наследие.*

Introduction. Place names formed on the basis of ethnic references occupy a significant position in linguistics, as they reflect both the identity and historical experiences of communities. In contemporary linguocultural studies, toponyms are increasingly viewed as repositories of encoded knowledge about ethnic origin, migration, and social organization.

Uzbek linguists such as Sh. Rahmatullayev and N. Mahmudov emphasize that many Uzbek place names originate from ethnonyms, tribal names, and clan structures, which historically played a central role in the socio-political organization of Central Asia. These scholars argue that the semantic structure of such toponyms often directly reflects ethnic affiliation, for example through the use of suffixes indicating belonging or origin [1].

At the same time, international scholars including E. M. Murzaev and R. Coates highlight that English place names also preserve ethnic traces, although often indirectly. In the case of England, ethnic motivation is linked to historical layers formed by Celtic inhabitants, Anglo-Saxon settlers, Scandinavian invaders, and Norman conquerors. As a result, ethnic identity in English toponyms is frequently embedded in etymological strata rather than explicitly expressed [2].

This article builds upon these perspectives by comparatively analyzing ethnically motivated place names in Uzbek and English. The introduction supports the above scholarly views by demonstrating that while both linguistic traditions encode ethnic identity in toponyms, the degree of transparency and semantic clarity differs significantly due to historical and cultural factors.

Literature Review. The issue of ethnically motivated toponyms has been examined in various linguistic traditions. In Uzbek linguistics, Rahmatullayev (2006) provides extensive etymological analysis of place names, identifying numerous examples derived from tribal and ethnic names. Mahmudov (2012) further develops this idea by linking such toponyms to cultural identity and historical memory [1].

Research by B. Yo'ldoshev (2015) explores the semantic classification of Uzbek toponyms, noting that ethnonym-based names form a distinct group characterized by clear referential meaning. Narimonova Z. (2007), although focusing on phraseology, demonstrates how linguistic units preserve cultural meaning, offering a methodological parallel for analyzing toponyms [3].

In international scholarship, Murzaev (1984) categorizes place names based on their origin and emphasizes the importance of ethnonymic elements. Coates (2011) examines English place names from a historical-linguistic perspective, identifying the influence of different ethnic groups [4]. Hough (2016) also highlights the role of naming practices in reflecting social identity and cultural change.

However, comparative studies focusing specifically on ethnically motivated toponyms in Uzbek and English remain limited. Existing research tends to focus on structural or historical aspects separately. This study addresses this gap by integrating semantic and etymological analysis within a comparative framework [5].

Methodology. This research is grounded in the concept of ethnically motivated toponyms as linguistic indicators of ethnic identity and historical continuity, and the methods are applied directly to reveal this concept.

Semantic analysis is used to identify how ethnic meaning is encoded in place names. For Uzbek data, this involves examining names derived from ethnonyms (names indicating tribes or clans) and analyzing how their meanings explicitly denote ethnic belonging. In English, the same approach is applied to identify implicit ethnic meanings embedded in elements such as -ing, -ham, or -by, which historically referred to specific groups [7].

Etymological tracing is employed to uncover the origin of ethnically marked components. Uzbek toponyms are analyzed by tracing Turkic roots and their interaction with Persian and Arabic elements. English examples are examined through their Celtic, Anglo-Saxon, and Norse origins, showing how ethnic layers are preserved over time.

Comparative alignment is applied by pairing Uzbek and English examples with similar semantic functions (clan-based vs. settlement-based ethnic markers) to highlight both parallels and divergences.

Contextual interpretation ensures that each toponym is analyzed within its historical and cultural background, linking linguistic structure to real ethnic processes such as migration, assimilation, and territorial organization. Through this approach, the methodology directly operationalizes the concept of ethnic motivation in toponyms rather than describing methods

in isolation [8].

Results. The analysis yields several important findings:

Uzbek toponyms often explicitly encode ethnic identity through recognizable ethnonyms and tribal names. In contrast, English toponyms tend to encode ethnic information indirectly through historical linguistic elements.

Uzbek ethnically motivated place names generally retain clear semantic connections to their origins, making their meanings accessible to modern speakers. English toponyms, however, often require historical and linguistic reconstruction to reveal their ethnic roots.

Uzbek toponyms predominantly reflect Turkic ethnonyms, with additional influence from Persian and Arabic cultures. English toponyms reveal a more layered structure, incorporating Celtic, Anglo-Saxon, and Scandinavian elements.

Uzbek ethnonymic place names tend to preserve their original meanings over time, while English toponyms frequently undergo semantic shifts, losing their original ethnic associations.

Discussion. The findings indicate that ethnically motivated toponyms function differently depending on historical and sociocultural context. In Uzbek, the strong presence of ethnonym-based place names reflects a historical emphasis on tribal identity and kinship structures. This results in a high degree of semantic transparency and cultural continuity.

In contrast, the English system reflects a more complex history of population replacement and linguistic change. Ethnic identity is encoded in deeper etymological layers rather than surface meaning, requiring scholarly analysis to uncover. This contrast highlights two different models of linguistic memory: one based on direct preservation of ethnic identity (Uzbek) and the other on layered historical accumulation (English). Both models demonstrate that toponyms serve as important tools for reconstructing ethnic and cultural history [9].

Conclusion. This study demonstrates that ethnically motivated place names in Uzbek and English reflect different patterns of semantic expression and historical development. Uzbek toponyms tend to preserve explicit ethnic meanings and stable etymological structures, while English toponyms encode ethnic identity in more complex and historically layered ways.

The comparative analysis confirms that toponyms are valuable linguistic resources for studying ethnic identity, cultural interaction, and historical processes. By integrating semantic and etymological perspectives, the research contributes to a deeper understanding of how language preserves collective memory.

References.

1. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan, 2012. – 280 b.
2. Yoʻldoshev B. Oʻzbek toponimikasining semantik tahlili. – Toshkent: Fan, 2015. – 210 b.
3. Narimonova Z. Ingliz tilidagi frazeologik ifodalar va ularning oʻzbek tilidagi ekvivalenti. – Toshkent: Lingvistika jurnali, 2007. – 192 b.
4. Murzaev E. M. Geographical Names: Their Origin and Meaning. – Moscow: Progress Publishers, 1984. – 280 p.
5. Coates R. A Linguistic Analysis of English Place-Names. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 290 p.
6. Hough C. The Oxford Handbook of Names and Naming. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – 784 p.
7. Mills A. D. A Dictionary of British Place Names. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 400 p.

Saydullayev Shohruh Shuhrat o'g'li,
TDYU Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti
E-mail: shohruhsaydullayev468@gmail.com

ABU NASR FAROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA HUQUQIY TARTIBOT

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Abu Nasr Farobiyning fundamental siyosiy-huquqiy merosini, xususan, uning “Fozil odamlar shahri” (Mabadi ara ahl al-madina al-fadila) asaridagi davlatning kelib chiqishi, boshqaruv ierarxiyasi va huquqiy me'yorlar tizimini chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutafakkirning organik davlat nazariyasi va meritokratik boshqaruv prinsiplari zamonaviy huquqiy davlatchilik nuqtayi nazaridan baholangan.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Farobiy, Fozil odamlar shahri, organik nazariya, meritokratiya, birinchi rahbar, ijthod, adolat, ijtimoiy tabaqalanish, huquqiy dinamizm.

Аннотация. В данной научной статье проводится углублённый анализ фундаментального политико-правового наследия Абу Наср Фараби, в частности его произведения «Мнения жителей добродетельного города» (Mabadi ara ahl al-madina al-fadila). Рассматриваются вопросы происхождения государства, иерархии управления и системы правовых норм. В исследовании также оцениваются органическая теория государства мыслителя и принципы меритократического управления с позиций современного правового государства.

Ключевые слова: Абу Наср Фараби, добродетельный город, органическая теория, меритократия, первый руководитель, иджтихад, справедливость, социальная стратификация, правовой динамизм

Abstract. This scientific article provides an in-depth analysis of the fundamental political and legal heritage of Abu Nasr Al-Farabi, particularly his work “The Virtuous City” (Mabadi ara ahl al-madina al-fadila). The study examines the origin of the state, the hierarchy of governance, and the system of legal norms. It also evaluates the thinker's organic theory of the state and meritocratic principles of governance from the perspective of a modern rule-of-law state.

Key words: Abu Nasr Al-Farabi, Virtuous City, organic theory, meritocracy, first leader, ijthod, justice, social stratification, legal dynamism

Kirish. Abu Nasr Farobiy falsafa va huquqshunoslik tarixida “Muallimi assoniy” (Ikkinchi muallim) unvoni bilan e'tirof etilgan bo'lib, uning asarlari Sharq va G'arb tamaddunini bir-biriga bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi. Farobiy yashagan IX-X asrlar Movarounnahrda ilm-fanning barcha sohalari, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy falsafa rivojlangan davr edi. Uning “Fozil odamlar shahri” risolasi jamiyatning kelib chiqishi, uning ontologik maqsadi va huquqiy asoslari haqidagi mukammal nazariy tizimdir. Mutafakkir uchun davlatning asosiy vazifasi -insonlarni “haqiqiy baxt-saodat”ga (As-Sa'ada) yetkazishdir. Farobiy davlatni shunchaki ma'muriy apparat sifatida emas, balki tirik organizm – inson tanasiga qiyoslagan holda talqin etadi. Ushbu organik nazariyaga ko'ra, jamiyatning barqarorligi uning boshqaruv tizimi va huquqiy tartiboti qanchalik darajada axloqiy va aqlli tamoyillarga tayanganiga bog'liqdir. Umuman, Farobiy ilmlarning quyidagi strukturasi keltiradi:

Til haqidagi ilm: U yetti bo'limdan iborat bo'lib, grammatika, poetika, to'g'ri yozuv va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Mantiq: Sakkiz bo'limdan, jumladan, tushuncha, muhokama, xulosa hamda muhokama metodiga taalluqli sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalardan iborat besh bo'limni o'z ichiga oladi.

Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, og'irlik, mexanika haqidagi ilmlardan iborat.

Ilm at-tabiiy va ilm al-ilohiy - tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.

Siyosat ilmi (ilm al-madaniy - shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), yurisprudentsiya (fiqh) va musulmon teologiyasi (kalam).

Mutakallimlar kalomni bilishning, falsafaning universal metodi, islomning nazariy asosi deb hisoblaganlari holda, Forobiy boshqa ilmlar orasida unga juda kam o'rin bergan. Bu bilan Forobiy ortodoksal islom tarafdorlari talqinidagi kalomning hamma narsani o'z ichiga olish xarakterini inkor etadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot Abu Nasr Farobiyning siyosiy-huquqiy merosini o'rganishda kompleks yondashuvni talab etadi. Maqolada qo'llanilgan metodologiya quyidagi bosqich va usullarni o'z ichiga oladi:

Huquqiy germenevtika va matniy tahlil: Tadqiqotning asosiy metodologik tayanchi sifatida huquqiy germenevtika usuli tanlangan. Ushbu metod yordamida Farobiyning "Fozil odamlar shahri" (Mabadi ara ahl al-madina al-fadila) asarining birlamchi matni chuqur tahlil qilindi. Bunda mutafakkir qo'llagan terminlar (masalan, Al-Rais al-Avval, Ijtim'a, Adolat) shunchaki falsafiy tushuncha emas, balki davlat boshqaruvi va huquqiy tartibotning fundamental normalari sifatida talqin etildi.

Tarixiy-qiyosiy tahlil: Farobiy g'oyalarining o'ziga xosligini ochib berish uchun tarixiy-qiyosiy metod qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida Farobiyning "Fozil shahri" antik davr mutafakkirlari Aflotun (Platon)ning "Respublika" va Arastu (Aristotel)ning "Siyosat" asarlaridagi modellari bilan qiyoslandi. Ushbu metod Farobiyning nafaqat yunon falsafasini davom ettirganini, balki uni Sharqiy peripatetizm va islom huquqshunosligi prinsiplari bilan qanday uyg'unlashtirganini ko'rsatishga xizmat qildi.

Tizimli yondashuv va Organik nazariya: Davlat boshqaruvini tahlil qilishda tizimli yondashuv metodidan foydalanildi. Farobiy davlatni "tirik organizm"ga (inson tanasiga) qiyoslar ekan, davlatning barcha tarkibiy qismlarini yagona funktsional tizim sifatida ko'rib chiqdi. Bu usul ijtimoiy tabaqalanishning davlat barqarorligini ta'minlashdagi tizimli o'rnini huquqiy jihatdan asoslashga yordam berdi.

Mantiqiy xulosalash (Deduksiya va Induksiya): Farobiyning o'zi "Muallimi assoniy" sifatida mantiq ilmini barcha fanlarning asosi deb bilgan. Shu sababli, tadqiqotda mantiqiy xulosalash (deduksiya) va induktiv yondashuv metodlari qo'llanildi. Xususan, mutafakkirning umumiy baxt-saodat (As-Sa'ada) haqidagi g'oyalaridan kelib chiqib, jismoniy va huquqiy shaxslarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi xususiy normalar deduktiv tarzda tahlil qilindi.

Sifat tahlili (Qualitative Research): Tadqiqotda sifatli tahlil metodlari (qualitative methods) ustuvorlik qildi. Bunda ikkilamchi manbalar - Farobiy ijodi bo'yicha dunyo olimlarining (Muhsin Mahdiy, Valzer, M.Xayrullayev va b.) ilmiy sharhlari va tahlillari o'rganilib, mutafakkirning huquqiy "ijtihad" va "legal ingenuity" (huquqiy zakovat) haqidagi konsepsiyalari umumlashtirildi.

Epistemologik tahlil: Farobiy va Arastu asarlarida keltirilgan bilimga erishishning uchta usuli: his-sezgi, birinchi (jibilliy) bilim va rigoroz tahlil (tekshiruv) tadqiqotning metodik fundamentini tashkil etdi. Bu esa Farobiyning huquqiy g'oyalari shunchaki utopik tasavvurlar emas, balki mantiqiy tekshiruv va tahlil natijasida yuzaga kelgan ilmiy xulosalar ekanligini isbotlaydi.

Natijalar. Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asari ustida olib borilgan matniy va germevntik tahlillar natijasida mutafakkirning davlat va huquq borasidagi g‘oyalari quyidagi fundamental natijalarni o‘z ichiga olishi aniqlandi:

Davlatning kelib chiqishi va ontologik mohiyati: Farobiyning fikricha, insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish va oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun bir-birlariga muhtojdirlar. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mutafakkir davlatni tirik organizmga qiyoslovchi “organik nazariya”ni ilgari surgan. Bu tizimda “fozil shahar” (al-madina al-fadila) shunchaki odamlar to‘plami emas, balki kishilarning haqiqiy baxt-saodatga (As-Sa’ada) erishish yo‘lida birlashgan mukammal siyosiy birligidir. Davlatning asosi sifatida Farobiy jamiyatni beshta qatlama ajratadi: fozillar, notiqalar, mutaxassislar (hisobchilar, tabiblar), himoyachilar va boylik yaratuvchilar. Ushbu ijtimoiy ierarxiya zamonaviy meritokratiya (loyiqlik asosida boshqaruv) tamoyilining ilk tarixiy modeli ekanligi tasdiqlandi.

Birinchi rahbar (Al-Rais al-Avval) modeli va uning kompetensiyalari: Tahlillar natijasida aniqlandiki, Farobiy fozil shahar rahbariga 12 ta tug‘ma fazilat talabini qo‘yadi. Ushbu sifatlar majmuasi bugungi kundagi davlat xizmatchilari uchun belgilangan “kompetensiyalar majmuasi”ga to‘la mos keladi.

Jismoniy va intellektual yetuklik: Sog‘lomlik, o‘tkir zehn va kuchli xotira.

Axloqiy va huquqiy tamoyillar: Haqg‘oylik, adolatparvarlik va moddiy boylikka hirs qo‘ymaslik.

Siyosiy layoqat: Ravon nutq va qat‘iyatlilik. Farobiyning eng muhim xulosalaridan biri shundaki, agar jamiyatda barcha 12 fazilatga ega bitta shaxs topilmasa, hokimiyat kollegial boshqaruv (fazilatlar kengashi) orqali amalga oshirilishi shart.

Huquqiy dinamizm va “Ijtihod” konsepsiyasi: Tadqiqot natijalari Farobiyning huquqni qotib qolgan dogma deb bilmasligini ko‘rsatdi. U “Ikkinchi darajali rahbar” (Az-Zima) uchun belgilangan sifatlar orasida huquqiy kashfiyot (ijtihod) qobiliyatini alohida ta’kidlaydi. Bu hukmdorning avvalgi rahbarlar o‘rnatgan qonunlar ruhidan kelib chiqib, yangi paydo bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar uchun yangi huquqiy normalar yaratishi kerakligini anglatadi. Farobiy uchun adolat - davlatning huquqiy asosi bo‘lib, u ne‘matlarni xizmatga ko‘ra taqsimlashda namoyon bo‘ladi.

Davlat patologiyalari: Farobiy fozil shaharning antitezisini - jamiyatni inqirozga yetaklovchi nomukammal davlat shakllarini (johil, fosiq, adashgan va beqaror shaharlar) batafsil tahlil qilgan. Johil shahar (Al-Madina al-Jahiliya) aholisi haqiqiy baxtni bilmaydilar va huquqni faqat o‘z moddiy istaklarini qondirish vositasi deb hisoblaydilar. Bunday shaharlarda huquqiy tartibotning yo‘qligi va militarizm (urushqoqlik) davlatning tanazzuliga sabab bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Huquqiy tartibotning maqsadi-Saodat: Farobiy bo‘yicha, davlatda adolat o‘rnatishning ketma-ketligi hukmdor tomonidan adolatning o‘rnatilishi va aholining ilm-ma’rifat orqali ma’naviy yetuklikka erishishidan boshlanadi. Bu jarayon huquqni shunchaki jazolash vositasi emas, balki “ruhni davolash” vositasi sifatida talqin etadi. Tadqiqot xulosalari shuni ko‘rsatdiki, Farobiyning davlat va huquq borasidagi g‘oyalari zamonaviy “Inson qadri uchun” tamoyili va huquqiy davlatchilik islohotlari bilan chuqur g‘oyaviy ildizlarga ega.

Munozara. Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi siyosiy-huquqiy g‘oyalar shunchaki o‘rta asrlar falsafasi namunasi emas, balki zamonaviy davlatchilik, xususan, bugungi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

"Inson qadri uchun" tamoyili va Fozil shahar falsafasi: Farobiyning davlatdan ko‘zlagan oliy maqsadi - aholining "haqiqiy baxt-saodat"ga (As-Sa’ada) erishishini ta’minlashdir. Bu g‘oya 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan "Inson qadri uchun" tamoyili bilan to‘la hamohangdir. Konstitutsiyada

insonning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat deb belgilanganligi Farobiy orzu qilgan fozil jamiyatning zamonaviy huquqiy ifodasidir. Mutafakkir aytganidek, "aholi qanchalik mehr-shavqatli bo'lsa, boshqaruv shunchalik ilohiy (adolatli) bo'ladi".

Ijtimoiy davlat modeli va taqsimlovchi adolat: Farobiy fozil shaharda adolatning birinchi ko'rinishi sifatida "taqsimlovchi adolat" (ne'matlarni xizmat va ehtiyojga ko'ra taqsimlash) tushunchasini ilgari suradi. Bugungi kunda O'zbekistonning o'zini "Ijtimoiy davlat" deb e'lon qilishi aynan shu adolat modelining huquqiy ko'rinishidir. Davlat tomonidan kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, bepul ta'lim va tibbiyot kafolatlari Farobiy ta'riflagan "o'zaro hamkorlik" (mutual assistance) tamoyilining amaldagi mexanizmi hisoblanadi.

Meritokratiya va rahbarlik etikasi: Farobiy tomonidan ilgari surilgan rahbarning 12 ta fazilati bugungi kun davlat xizmatchilari uchun belgilangan "Etika va odob-axloq qoidalari"ning klassik asosi bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy O'zbekistonda kadrlar siyosatining meritokratiya (loyiqlik va bilim asosida tanlash) tamoyiliga o'tishi Farobiyning "fozillar boshqaruvi" haqidagi qarashlarining mantiqiy davomidir. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurash va davlat organlarining xalq oldidagi hisobdorligi fozil shaharda adolatni saqlashning fundamental sharti sifatida talqin etiladi.

Huquqiy dinamizm va "Ijtihod": Farobiyning "huquqiy zakovat" (legal ingenuity) haqidagi qarashlari bugungi jadal islohotlar davrida qonunchilikni takomillashtirish jarayonlari uchun muhimdir. Mutafakkir hukmdorga yangi ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelganda, mavjud qonunlar ruhidan kelib chiqib yangi normalar yaratish (ijtihod) huquqini beradi. Bu esa O'zbekiston huquq tizimida "qonun ustuvorligi" bilan bir qatorda "qonunning adolatligi" tamoyilini ustuvor qo'yish zarurligini mantiqiy jihatdan asoslaydi.

Global integratsiya va "Buyuk jamiyat" g'oyasi: Farobiyning "Buyuk jamiyat" (Al-Ijtima' al-Kuzma) g'oyasi bugungi globallashuv va O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi integratsiya siyosati bilan bog'lanadi. Mutafakkirning xalqlar o'rtasidagi nizolarni "ilm va muloqot" orqali hal qilish haqidagi tavsiyalari zamonaviy xalqaro huquqdagi "tinchlikparvarlik" va "umuminsoniy birdamlik" konsepsiyalari uchun tarixiy-huquqiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asari ustida olib borilgan magistrlik darajasidagi ilmiy tahlillar quyidagi fundamental xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

Birinchi, Farobiy davlatning ontologik maqsadini insonni ham moddiy, ham ma'naviy tomondan kamolotga yetkazuvchi va uning oliy saodati – "haqiqiy baxt-saodat"ga (As-Sa'ada) erishishini ta'minlovchi oliy ijtimoiy-huquqiy institut sifatida talqin etadi. Bu esa davlatni shunchaki majburlov apparati deb biluvchi pragmatik nazariyalardan farqli o'laroq, uning insonparvarlik mohiyatini birinchi planga olib chiqadi.

Ikkinchi, mutafakkir tomonidan ilgari surilgan "Birinchi rahbar" (Al-Rais al-Avval) modeli va unga qo'yiladigan 12 ta tug'ma hamda 6 ta orttirilgan fazilat talabi zamonaviy meritokratiya (loyiqlik asosida boshqaruv) tamoyilining ilk mukammal tarixiy ko'rinishidir. Ayniqsa, hokimiyatning kollegial (jamoaviy) boshqaruv shakliga oid qarashlari bugungi kundagi demokratik institutlar va davlat boshqaruvida "tiyib turish va muvozanat" tizimi uchun nazariy asos bo'la oladi.

Uchinchi, Farobiy huquqni qotib qolgan dogma deb bilmagan, unga dinamik jarayon sifatida yondashadi. Uning "huquqiy zakovat" (ijtihod) haqidagi g'oyasi hukmdorga mavjud qonunlar ruhidan kelib chiqib, yangi ijtimoiy munosabatlar uchun yangi normalar yaratish majburiyatini yuklaydi. Bu esa huquqning doimo jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas bo'lishini ta'minlovchi muhim omildir.

To'rtinchidan, mutafakkirning "Jamoat shahri" (demokratiya) va undagi erkinliklar

borasidagi ogohlantirishlari, ya'ni huquqiy tartibot bo'lmagan joyda erkinlikning anarxiyaga aylanib ketishi haqidagi xulosalari bugungi globallashuv davrida huquqiy davlatchilikni mustahkamlash uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Farobiy orzu qilgan fozil jamiyat – bu bilim, adolat va inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyatdir. Uning huquqiy merosi bugungi Yangi O'zbekistonning islohotlar strategiyasi, xususan, “Inson qadri uchun” tamoyili va ijtimoiy davlat qurish konsepsiyasi bilan g'oyaviy jihatdan to'la mushtarak bo'lib, milliy davlatchiligimizni yanada yuksaltirishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016. – 320 b..
2. Turdiyev B.S. Exploring Political and Legal Philosophies in Transoxiana // Asian Journal of Basic Science & Research. – 2024. – Vol. 6, Issue 2. – P. 159-166.
3. Hoshimova M. Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarining ilmiy tahlili // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3, Issue 12. – P. 904-910.
4. Suleimenov P., et al. Socio-political views of Abu Nasr al-Farabi // Vestnik KazNU. – 2019. – Vol. 68, Issue 2. – P. 75-81.
5. Ahmad A. Al-Farabi: The Forgotten Genius. – Mitchell Institute Working Paper Series, 2023.
6. Quraishi M.U., Sargana M.H. Exploring Al-Farabi's Political Philosophy: Implications for Current Muslim Countries // Journal of Integrated Sciences. – 2023. – Vol. 4, Issue 1.
7. Walzer R. Al-Farabi on the Perfect State. – Oxford: Clarendon Press, 1985.
8. Fārābī, Abū al-Naṣr. Kitāb Arā' Ahl al-Madīnah al-Fāḍilah. – Beirut: Dar wa Maktabat al-Hilal, 1996.
9. Al-Farabi. Ihsa' al-'Ulum (Science Statistics). – Cairo: Anglo-Egyptian Library, 1968.
10. Bukier A.A. Utopian Literature of the Ideal Society: A Study in Al-Farabi's Virtuous City & More's Utopia // Al-Andalus Journal. – 2018. – Vol. 17.
11. Turdiyev B.S. Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan // Asian Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – Vol. 7, Issue 1. – P. 149-157.
12. O'Meara D.J. Platonopolis: Platonic Political Philosophy in Late Antiquity. – Oxford University Press, 2003.
13. Rosenthal F. Approaches of Muslim Scholars in Scientific Research. – Cairo, 1961.
14. Ibn Abi Usaybi'ah. Uyun al-Anba' fi Tabaqat al-Atibba'. – Beirut: Dar Maktabat al-Hayat.
15. Al-Farabi. Kitāb al-Musiqa al-Kabir. – Cairo: Dar al-Katib al-Arabi.
16. Nurtazina N. Al-Farabi and His Doctrine of an Ideal Society. – news.ivist.kz, 2013.
17. Zholmukhamedov N.H. Dukhovnoe nasledie Al-Farabi: istoriya i sovremennost. – Almaty, 2001.
18. Ahmad ibn Khallikan. Wafayat al-A'yan (The Obituaries of Eminent Men). – Cairo, 1881.
19. Al-Ghazali, A.H. Al-Iqtisad fi al-i'tiqad (Moderation in Belief). – Chicago University Press, 2013.

Ergashev Behzod Asat o'g'li,
Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti
Toshkent davlat yuridik universiteti
E-mail: ergashevbehzod570@gmail.com

TOMAS GOBBS VA JON LOKK FALSAFASIDA TABIIY HUQUQLAR KONSEPSIYASINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tomas Gobbs va Jon Lokk falsafasida tabiiy huquqlar konsepsiyasining mazmuni, mohiyati va o'ziga xos jihatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Gobbs tomonidan ilgari surilgan inson tabiatining konfliktli holati va mutlaq hokimiyat zarurati haqidagi qarashlar hamda Lokk tomonidan asoslangan tabiiy huquqlar – hayot, erkinlik va mulk huquqlarining ustuvorligi ilmiy jihatdan solishtiriladi. Shuningdek, ushbu ikki faylasufning davlat va jamiyat haqidagi nazariyalari, ijtimoiy shartnoma g'oyalari hamda ularning zamonaviy huquqiy tizimlarga ta'siri o'rganiladi. Maqola natijasida tabiiy huquqlar konsepsiyasining rivojlanishida Gobbs va Lokk qarashlarining tutgan o'rni va ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tabiiy huquqlar, ijtimoiy shartnoma, davlat nazariyasi, erkinlik, mulk huquqi, mutlaq hokimiyat, liberalizm, siyosiy falsafa

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ концепции естественных прав в философии Томас Гоббс и Джон Локк. Рассматриваются ключевые идеи Гоббса о естественном состоянии человека как состоянии «войны всех против всех» и необходимости сильной государственной власти, а также взгляды Локка, обосновывающие приоритет естественных прав – права на жизнь, свободу и собственность. Особое внимание уделяется теории общественного договора, роли государства и влиянию философских концепций на формирование современных правовых систем. В результате исследования раскрывается значение идей Гоббса и Локка в развитии теории естественных прав.

Ключевые слова: естественные права, общественный договор, теория государства, свобода, право собственности, абсолютная власть, либерализм, политическая философия

Abstract. This article presents a comparative legal analysis of the concept of natural rights in the philosophies of Thomas Hobbes and John Locke. The study examines Hobbes' view of the state of nature as a condition of constant conflict requiring absolute authority, alongside Locke's theory emphasizing natural rights such as life, liberty, and property. The research also explores their theories of the social contract, the role of the state, and the influence of their ideas on modern legal systems. The findings highlight the significance of Hobbes' and Locke's contributions to the development of natural rights theory and contemporary political-legal thought.

Key words: natural rights, social contract, state theory, liberty, property rights, absolute authority, liberalism, political philosophy

Kirish. Insoniyat tarixining burilish nuqtasi bo'lgan XVII–XVIII asrlar siyosiy va huquqiy tafakkur taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Aynan shu davrda davlatning kelib chiqishi, hokimiyatning manbai va shaxsning jamiyatdagi o'rni haqidagi klassik qarashlar o'rnini tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma nazariyalari egallay boshladi. Ushbu nazariyalarning shakllanishi va rivojlanishida ingliz mutafakkirlari Tomas Gobbs va Jon Lokkning xizmatlari beqiyosdir. Ularning falsafiy merosi nafaqat o'z davrining siyosiy inqirozlariga javob bo'lgan, balki zamonaviy demokratik davlatatchilik, konstitutsiyaviylik va

inson huquqlari tamoyillarining fundamental asoslarini yaratib bergan. Tomas Gobbs va Jon Lokk falsafasidagi “tabiiy holat”, “tabiiy huquq” va “ijtimoiy shartnoma” tushunchalari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Gobbsning inson tabiatiga nisbatan pessimistik va mexanik yondashuvi hamda uning asosida qurilgan mutlaq suverenitet g‘oyasi, Lokkning aql-idrok, shaxsiy erkinlik va mulk huquqiga asoslangan liberal qarashlari bilan qiyoslanadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy jarayonlar, raqamli huquqlar va davlat boshqaruvining yangi modellari sharoitida inson erkinligi va ijtimoiy tartib o‘rtasidagi muvozanatni tushunish uchun ushbu klassik nazariyalarni qayta anglash zarurati tug‘ilmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda huquqiy va falsafiy ta‘limotlarni o‘rganishning zamonaviy ilmiy-bilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ob‘ektivlik, tizimlilik va tarixiylik tamoyillari tashkil etadi. Maqolada qo‘yilgan maqsadga erishish va vazifalarni hal etish uchun quyidagi xususiy-ilmiy metodlar qo‘llanilgan:

Qiyosiy-huquqiy metod: Ushbu metod yordamida Tomas Gobbs va Jon Lokkning “tabiiy holat”, “tabiiy huquq” va “ijtimoiy shartnoma” borasidagi qarashlaridagi o‘xshashlik va farqli jihatlar aniqlangan. Xususan, Gobbsning mutlaq suverenitet konsepsiyasi va Lokkning cheklangan davlat boshqaruvi nazariyasi qiyosiy tahlil qilingan.

Tarixiy-mantiqiy metod: Mutafakkirlarning asarlari o‘sha davr Angliyasidagi notinch siyosiy va diniy mojarolar, tarixiy sharoitlar bilan bog‘liqlikda o‘rganilgan. Bu esa nazariyalarning vujudga kelish sabablarini chuqurroq anglashga xizmat qilgan.

Tahlil va sintez: Gobbs va Lokk asarlaridagi (masalan, “Leviatan” va “Davlat boshqaruvi haqidagi ikki risola”) huquqiy g‘oyalar alohida elementlarga ajratilib tahlil qilingan va umumlashtirilib, ularning zamonaviy huquqiy tizimlardagi o‘rni haqida xulosalar shakllantirilgan.

Muhokama va natijalar. XVII-XVIII asrlar jahon siyosiy, davlat boshqaruvga oid qarashlari bilan o‘tgan davr jamiyat boshqarilishi haqidagi nazariyalarga nisbatan o‘zgacha yondashuvga ega bo‘lgan ingliz mutafakkiri Jon Lokk bugungi davr uchun ham ulkan ilmiy merosga ega shaxs sifatida ko‘riladi. Mazkur mutafakkir o‘zining asarlarida, xususan, “Davlat boshqaruvi haqidagi ikki risola” da davlat boshqaruvi, hokimiyat taqsimlanishi, uning cheklanishi hamda insonning ajralmaydigan tabiiy huquqlari, fuqarolarning davlatga nisbatan munosabatlari keng miqyosda yoritib berilgan. Shuni ta‘kidlash lozimki, ushbu mulohazalar bugungi kunda rivojlangan davlatlar huquq tizimida, konstitutsiyalarida o‘z aksini topib, o‘ziga xos dasturulamal vazifasini bajarib kelmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Lokk hokimiyatlar mavjud bo‘lishini ikki bosqichga ajratadi. Ulardan biri davlatgacha bo‘lgan davr “tabiiy holat” va ijtimoiy shartnoma asosida tuzilgan davlat. Siyosiy hokimiyatni to‘g‘ri tushunish va uni asl manbasidan kelib chiqib izohlash uchun, avvalo barcha insonlar tabiatan qanday holatda bo‘lishini ko‘rib chiqishimiz kerak. Bu esa shunday bir holatki, unda har bir inson o‘z harakatlarini o‘zi xohlagancha tartibga solish va o‘z mulki hamda shaxsiga o‘zi istagancha tasarruf etish huquqiga ega bo‘ladi - tabiiy qonun doirasida, boshqa biror insondan ruxsat so‘ramasdan yoki uning irodasiga bog‘liq bo‘lmasdan hayot kechiradi. Insonlar tabiatan teng hisoblanadilar, jamiyatda amalda bo‘lgan tabiiy qonunlar asosida faoliyat yuritishlari mumkindir.

Feruza Muhiddinova “Siyosiy va huquqiy ta‘limotlar tarixi” darsligida “Lokk o‘zining o‘tmishdoshlari Nikkolo Makiavelli, Tomas Gobbs singari davlat vujudga kelgunga qadar bo‘lgan davrni “tabiiy xolat” deb belgilandi. Biroq u Gobbs qarashlaridan farqli o‘laroq, tabiiy xolatda “barchaning barchaga qarshi urush” holatida bo‘lishini inkor etadi. Davlat tarkib topgan paytgacha bo‘lgan davrda barcha teng huquqli hisoblangan. Biroq bu jamiyatda aybdorlarni jazolovchi, nizolarni xal etuvchi organ bo‘lgan emas. Bunday holatda barcha

erkin yashashi, o'zining mulkiga nisbatan bo'lgan huquqlarini amalga oshirishi mumkin bo'lgan. Ammo, muallif davlat mavjud bo'lmasdan avvalgi davrda inson o'z shaxsi hamda mulkini tasarruf etishda nazoratsiz erkinlikka ega bo'lsa ham o'zini yoki o'zining qo'lidagi biror bir mavjudodni yo'q qilishga haqli emasligini ta'kidlaydi. Jon Lokkning siyosiy falsafasi mavhum mulohazalar bo'shlig'ida shakllanmagan, balki XVII asr Angliyasining eng notinch siyosiy va diniy mojarolari avjiga chiqqan paytida shakllangan. Tabiiy huquqlar va cheklangan davlat tushunchalarining kelib chiqishini tushunish uchun avval Lokkni o'z davrining aniq tarixiy sharoitlari ichida topish kerak.

Lokkning siyosiy nazariyasining asosiy g'oyasi tabiat holati deb nomlanuvchi siyosiy holatdan oldingi holatning mavjudligidir. Lokk uchun siyosiy hokimiyatni to'g'ri tushunish uchun barcha odamlar tabiiy ravishda qanday holatda ekanligini hisobga olish kerak. Jon Lokk o'zining "hukumat haqidagi ikki risola asarida "tabiiy holat" ni quyidagicha ta'riflaydi: "Bu mukammal erkinlik holati bo'lib, unda shaxslar o'z harakatlarini tartibga solish va o'z mol-mulki va shaxslarini tabiat qonuni doirasida o'zlari xohlagan tarzda tasarruf etish erkinligiga ega. Bu shuningdek, tenglik holati sifatida ham tavsiflanadi, bunda barcha hokimiyat va yurisdiksiya o'zaro bog'liq va hech kim boshqasidan ko'ra ko'proq hokimiyatga ega emas" Ingliz olimi Bertran Rassel bu holatga quyidagicha ta'rifni aytadi: "Bu yerda gap yovvoyilar hayoti haqida emas, balki politsiya yoki sudga ehtiyoj sezmaydigan fazilatli anarhistlarning xayoliy jamiyati haqida bormoqda. Chunki ular doimo "aql-idrok"ka bo'ysunadilar. Bu aql-idrok esa tabiiy qonunlar bilan hamohangdir"

Tabiat holatini "barchaning hammaga qarshi urushi" deb ta'riflagan Tomas Gobbsdan farqli o'laroq, u hayot "yomon, shafqatsiz va qisqa" bo'lgan, Lokk umuman tinchliksevar va aql bilan boshqariladigan holatni tasavvur qilgan. Lokk tabiat holati erkinlik holati bo'lsa-da, u erkinlik holati emasligini ta'kidlagan. Shaxslar o'zlarini yo'q qilish yoki boshqalarga hayotlarida, sog'lig'ida, erkinligida yoki mulkida zarar yetkazish huquqiga ega emaslar. Bu markazlashtirilmagan holatda tabiiy holatning "ijrosi" har bir insonning qo'liga yuklatilgan. Bu shuni anglatadiki, har bir shaxs qonunni buzuvchilarni uning buzilishiga to'sqinlik qiladigan darajada jazolash huquqiga ega. Bu jazo huquqi mutlaq yoki o'zboshimchalik bilan emas; u jinoyatchini kompensatsiya va cheklash uchun zarur bo'lgan darajada jazolash uchun "xotirjam aql va vijdon"ga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Biroq, Lokk bu individual hukm qilish va jazolash vakolati jiddiy "noqulayliklarning" manbai ekanligini tan oladi, chunki odamlar ko'pincha o'z ishlarida tarafkash bo'lishadi va ehtiros yoki qasos bilan boshqariladi.

Tabiiy holat va urush holati o'rtasidagi farq Lokkning absolyutizmni rad etishida markaziy o'rin tutadi. Urush holati insoniyatning tabiiy holati emas, balki shaxslar yoki hukmdorlar aqldan voz kechib, boshqalarni o'zlarining mutlaq hokimiyati ostiga qo'yishga urinishganda yuzaga keladi. Tabiiy holatda murojaat qilish uchun yer yuzida umumiy sudya yo'qligi sababli, agar hukmdor o'z fuqarolarini qul qilishga yoki ularning mulkini tortib olishga urinsa, urush holati inqilob uchun asos bo'ladi. Nazariy jihatdan tabiiy holat tinchligiga qaramay, Lokk bu huquqlardan foydalanish "juda noaniq va doimiy ravishda boshqalarning bosqiniga duchor bo'ladigan" holat ekanligini tan oladi. Nizolarni hal qilish uchun umumiy sudyaning yo'qligi har bir mojaroning urush holatiga aylanib ketishi mumkinligini anglatadi. Ushbu "noqulayliklardan" qochish uchun shaxslar umumiy hukumat ostida bir jamoaga birlashishga va siyosiy tashkilot tuzishga rozi bo'lishadi.

Lokk uchun ijtimoiy shartnomaning mohiyati rozilikdir. Hech bir shaxs o'z roziligisiz boshqa shaxsning siyosiy hokimiyatiga bo'ysundirilmaydi. Fuqarolik jamiyatiga kirishda shaxslar barcha tabiiy huquqlaridan voz kechmaydilar; buning o'rniga ular faqat "tabiat qonunining ijro etuvchi hokimiyati"dan voz kechadilar. Ular jamiyatga qonunbuzarliklarni hukm qilish va jazolash huquqini o'tkazadilar, toki ularning hayot, erkinlik va mulkka bo'lgan qolgan huquqlari yanada ishonchli himoya qilinishi mumkin.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyatiga o'tish ikki bosqichli jarayondir: birinchidan, shaxslar jamiyat tuzishga rozi bo'lishadi, ikkinchidan, odatda ko'pchilik qoidasi asosida harakat qiladigan jamiyat hukumat tuzadi. Lokkning ko'pchilik qoidasiga qat'iy rioya qilishi pragmatik zaruratdir; jamiyat tashkil etilgandan so'ng, u bir butun sifatida harakat qilishi kerak va "ko'pchilikning irodasi va qat'iyati" bu tashkilotni oldinga siljitishning yagona yo'li hisoblanadi. Bu tamoyilsiz ijtimoiy shartnoma fikrlar turlicha bo'lishi bilanoq anarxiyaga aylanib ketadigan "ma'nosiz ishtirok" bo'lar edi.

Tomas Gobbsning siyosiy falsafasi tabiiy huquqning klassik an'anasi va umuminsoniy inson huquqlari o'rtasida muhim ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning o'zini himoya qilishga bo'lgan sub'ektiv da'vosini siyosiy qonuniylikning asosiy tamoyili sifatida qayta joylashtirish orqali Gobbs obyektiv axloqiy tartibdan individual huquqqa asoslangan tizimga o'tishni samarali ravishda boshlab berdi. Bu o'zgarish, ko'pincha mutlaq suverenitetni himoya qilish bilan bog'liq bo'lsa-da, paradoksal ravishda davlat hokimiyatini boshqariladiganlarning asosiy manfaatlarini va roziligiga asoslash orqali zamonaviy inson huquqlari doirasi uchun zamin yaratdi.

Klassik tabiiy huquq an'anaviy ravishda insonlarning "tabiiy maqsadi"ga yo'naltirilgan bo'lib, adolatli siyosiy hamjamiyat ichida fazilatni rivojlantirish va ilohiy yoki kosmik maqsadni amalga oshirishga urg'u bergan. Gobbs "eng buyuk yaxshilik" (summum bonum) ga intilishni muqarrar ravishda ijtimoiy nizolar va fuqarolar urushiga olib keladigan xavfli illyuziya sifatida rad etdi, chunki shaxslar bunday yaxshilikning mohiyati haqida kamdan-kam hollarda kelishgan.

Teleologik model o'rniga, Gobbs XVII asrning rivojlanayotgan fanlari tomonidan asoslab berilgan inson tabiatining mexanik ta'rifini taklif qildi. Uning fikricha, insonlar asosan tashqi stimullarga mexanik javoblar bilan boshqariladigan "harakatdagi jismlardan" tashkil topgan murakkab mashinalardir. Bu o'zgarish huquq tushunchasiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Agar inson xatti-harakatlarini boshqaradigan obyektiv "eng buyuk yaxshilik" bo'lmasa, yagona universal va inkor etib bo'lmaydigan axloqiy fakt zo'ravonlik bilan o'limdan qochishning "minimal yaxshiligi"ga aylanadi. O'zini himoya qilishga bo'lgan bu ishtiyok nafaqat biologik instinkt sifatida, balki inson harakatlari uchun eng kuchli va eng haqiqiy turtki sifatida taqdim etiladi, bu siyosiy tartibni qurish uchun dunyoviy va oqilona asos yaratadi.

Tabiiy huquq haqidagi Gobbs konsepsiyasini tushunish uchun avvalo uning inson motivatsiyasi va insoniyatning tabiiy holati haqidagi tavsifini o'rganish kerak. Gobbs odamlarda "faqat o'lim bilan tugaydigan doimiy va beqaror hokimiyat istagi" borligini ta'kidlagan. Bu istak, albatta, ochko'zlik yoki yovuzlikning ifodasi emas, balki umumiy hokimiyatsiz hayotning ichki xavfsizligiga oqilona javobdir. Shaxs o'zining hozirgi yaxshi yashash vositalarini boshqalarning potensial tajovuzidan himoya qilish uchun ko'proq kuchga ega bo'lmasdan turib ta'minlay olmaydi.

Gobbs sub'ekti janjalning uchta asosiy sababi bilan harakatlanadi: raqobat, ikkilanish (ishonchsizlik) va shon-sharaf. Raqobat shaxslarni foyda olish uchun bostirib kirishga undaydi; ikkilanish ularni xavfsizlik uchun bostirib kirishga undaydi; va shon-sharaf ularni obro' uchun bostirib kirishga undaydi. Bu ziddiyatlarning asosida odamlar o'rtasidagi fundamental tenglik yotadi. Gobbs shaxslar o'rtasidagi jismoniy kuch yoki aqliy tezlikdagi farqlar shunchalik ahamiyatli emaski, har qanday odam boshqasi ham intilmaydigan foydani talab qila oladi, deb ta'kidladi. Tabiat holatida eng zaif odam eng kuchlini "yashirin hiyla" yoki "boshqalar bilan ittifoq" orqali o'ldirish uchun yetarli kuchga ega.

Bu qobiliyat tengligi istalgan maqsadlarga erishishda umid tengligini keltirib chiqaradi. Ikki kishi birgalikda foydalanib bo'lmaydigan bir xil narsani istaganlarida, ular dushmanga aylanadilar va bir-birlarini yo'q qilishga yoki bo'ysundirishga harakat qiladilar. Natijada

yuzaga keladigan holat “kelishmovchilik” bo‘lib, bu yerda har qanday shaxs uchun eng oqilona harakat yo‘nalishi “oldindan sezish”dir, ya‘ni boshqa hech qanday kuch ularni xavf ostiga qo‘yadigan darajada katta bo‘lmaguncha, boshqalarni egallash uchun kuch yoki hiyla ishlatishdir.

Bu antropologik omillarning mantiqiy cho‘qqisi “tabiat holati” bo‘lib, Gobbs bu holatni mashhur tarzda “har bir insonning har bir insonga qarshi urushi” (bellum omnium contra omnes) deb ta‘riflagan. Bu holatda sanoat, qishloq xo‘jaligi, navigatsiya yoki jamiyat uchun joy yo‘q, chunki ularning samaralari noaniq. Inson hayoti “yolg‘iz, kambag‘al, jirkanch, vahshiy va qisqa” bo‘lib qoladi

Muhimi, bu anarxik sharoitda to‘g‘ri va noto‘g‘ri, adolat va adolatsizlik tushunchalariga o‘rin yo‘q. Umumiy hokimiyat bo‘lmagan joyda qonun ham, qonun bo‘lmagan joyda esa adolatsizlik ham bo‘lmaydi. Kuch va firibgarlik bu davlatda “asosiy fazilatlar” hisoblanadi, chunki ular omon qolishning asosiy vositalaridir.

Gobbs “tabiiy huquqi”ni (jus naturale) har bir shaxsning o‘z tabiati va hayotini saqlab qolish uchun o‘z kuchidan xohlagancha foydalanish erkinligi sifatida ta‘riflagan. Tabiiy holatda bu huquq amalda cheksizdir. Har bir shaxs o‘z aqli bilan boshqariladi va har qanday narsa dushmanlarga qarshi hayotni saqlab qolishda yordam berishi mumkinligi sababli, “har bir insonning hamma narsaga, hatto bir-birining tanasiga ham huquqi bor” Bu tabiiy huquq “erkinlik huquqi” yoki “ruxsatnoma” bo‘lib, tashqi to‘siqlar va axloqiy majburiyatlarning yo‘qligini anglatadi. Bu ma‘noda huquqqa ega bo‘lish boshqalarning bu huquqni hurmat qilish majburiyatini anglatmaydi; aksincha, bu shunchaki shaxs o‘z himoyasini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan har qanday vosita bilan “noto‘g‘ri” yoki “adolatsiz” harakat qilmayotganligini anglatadi.

Актуальность формирования эмоционального интеллекта обусловлена ростом стрессовых состояний, тревожности и дезадаптивного поведения среди студенческой молодёжи. Реализация программ социально-эмоционального обучения (SEL), внедрение психопросветительских практик, кураторства, коучинговых подходов и диагностических процедур создаёт основу для устойчивого поведения, повышения саморефлексии, эмпатии и коммуникативной культуры обучающихся.

Таким образом, развитие эмоционального интеллекта следует рассматривать как стратегическое направление воспитательной и коррекционной работы в университетской системе, способствующее гармонизации личностного роста, снижению рисков девиантных форм поведения и формированию ответственного гражданского самосознания у студентов.

В дальнейшем перспективным направлением исследования может стать внедрение смешанных форматов SEL-программ, включая цифровые тренажёры эмоциональной осознанности, ролевые практики в формате peer-to-peer и модули арт-терапии. Такие форматы способствуют глубинной интеграции навыков ЭИ в личный опыт студента и усиливают эффект коррекционных воздействий, формируя устойчивую эмоциональную культуру как элемент образовательной идентичности.

Следовательно, эмоциональный интеллект (EI) выступает не просто как инструмент эмоциональной грамотности, но как ключевой компонент зрелой личности, способной к устойчивому функционированию в условиях социальной, академической и личностной неопределённости. Он обеспечивает метакогнитивный контроль над реакцией на внешние и внутренние раздражители, превращая потенциальные поведенческие девиации в зоны роста и осознанности.

Таким образом, развитие EI в рамках университетской среды может рассматриваться как стратегическая задача - не только с точки зрения индивидуальной профилактики, но и как элемент социокультурной политики высшего образования, направленной на формирование нового поколения специалистов, способных к эмпатии, самообладанию и этически обоснованному взаимодействию. Роль ЭИ выходит за пределы индивидуального прогресса, становясь связующим звеном между психоэмоциональной устойчивостью личности и её вкладом в социальный капитал сообщества.

В заключение следует подчеркнуть: эмоциональный интеллект - это не абстрактная концепция, а прагматически значимый навык, который должен быть интегрирован в образовательные стратегии, учебные планы и психологические сервисы университетов. Его целенаправленное развитие - это не только профилактика поведенческих нарушений, но и инвестиция в психологическое здоровье, профессиональную состоятельность и этическую зрелость будущих поколений.

Список литературы.

1. Bar-On P. Модель эмоционально-социального интеллекта Бар-Она (ESI) // *Psicothema*. – 2006. – Т. 18, спец. вып. – С. 13–25. (на англ. яз.)
2. Бар-Он Р. Тест эмоционального интеллекта EQ-i. – Торонто: Multi-Health Systems, 1997.
3. Brackett M. A., Rivers S. E., Salovey P. Emotional Intelligence: Implications for Personal, Social, Academic, and Workplace Success // *Social and Personality Psychology Compass*. – 2011. – Vol. 5, No. 1. – P. 88–103.
4. Бракетт М. А., Риверс С. Е., Рейес М. Р., Саловей П. Повышение академических результатов и социально-эмоциональных компетенций с помощью программы RULER // *Learning and Individual Differences*. – 2011. – Т. 22. – С. 218–224.
5. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. – Нью-Йорк: Bantam Books, 1995.
6. Дурлак, Дж. А., Домитрович, С. Е., Уайсберг, Р. П., и Гуллотта, Т. П. (2011). Влияние усиления социального и эмоционального обучения: Мета-анализ универсальных вмешательств в школах. *Детское развитие*, 82(1), 405–432
7. Зайднер М., Мэттьюс Г., Робертс Р. Д. Что мы знаем об эмоциональном интеллекте: как он влияет на обучение, работу, отношения и психическое здоровье. – Кембридж, Массачусетс: MIT Press, 2009
8. Майер Дж. Д., Саловей П., Карузо Д. Р. Эмоциональный интеллект: теория, результаты и последствия // *Psychological Inquiry*. – 2004. – Т. 15, № 3. – С. 197–215. (на англ. яз.)
9. Мартинс А., Рамальо Н., Морин Э. Эмоциональный интеллект и здоровье: метаанализ // *Personality and Individual Differences*. – 2010. – Т. 49. – С. 554–564.
10. Саловей П., Майер Дж. Д. Эмоциональное развитие и эмоциональный интеллект: педагогические следствия. – Нью-Йорк: Basic Books, 1997.

Davlatova Nozanin Sirojiddin qizi,
Buxoro Davlat Pedagogika instituti talabasi

LEV VYGOTSKIYNING IJTIMOIIY-MADANIY RIVOJLANISH NAZARIYASI VA TA'LIM JARAYONI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Lev Semyonovich Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, uning asosiy tushunchalari va ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy-faktli ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Yaqin rivojlanish zonasi, vositachilik, scaffold ta'lim va til hamda tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik kabi konsepsiyalar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Vygotskiy, ijtimoiy-madaniy nazariya, yaqin rivojlanish zonasi, scaffold ta'lim, kognitiv rivojlanish, ta'lim psixologiyasi.

Abstract. This article analyzes Lev Semyonovich Vygotsky's sociocultural theory of development, its core concepts, and its impact on the educational process based on scientific and factual data. Key concepts such as the Zone of Proximal Development (ZPD), mediation, scaffolding, and the relationship between language and thought are explored in detail.

Key words: Vygotsky, sociocultural theory, zone of proximal development (ZPD), scaffolding, cognitive development, educational psychol

Аннотация. В данной статье на основе научно-фактических данных анализируется социально-культурная теория развития Льва Семёновича Выготского, её основные концепции и влияние на образовательный процесс. Подробно освещены такие понятия, как зона ближайшего развития, опосредование, строительные леса (скаффолдинг) в обучении, а также взаимосвязь между языком и мышлением.

Ключевые слова: Выготский, социально-культурная теория, зона ближайшего развития (ЗБР), скаффолдинг, когнитивное развитие, педагогическая психология.

Kirish. Lev Semyonovich Vygotskiy (1896–1934) - rus psixologi va pedagogi bo'lib, u XX asrning eng ta'sirli psixologlaridan biri sifatida tan olingan. U qisqa umr ko'rgan (38 yosh) bo'lishiga qaramay, o'zidan keyin boy ilmiy meros qoldirgan. Uning asarlari, xususan 1934-yilda rus tilida nashr etilgan "Tafakkur va Til" (Thinking and Speech) hamda "Ong va bolaning psixologik rivojlanishi" asarlari zamonaviy pedagogika va psixologiya uchun muhim manba bo'lib kelmoqda.

Vygotskiyning nazariyasi biologik yondashuv (masalan, Piajening individual konstruktivizmi)dan farqli ravishda bolaning rivojlanishi asosan ijtimoiy muhit, madaniyat va muloqot orqali sodir bo'lishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida muhim amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Vygotskiy 1896-yil 17-noyabrda Belarusning Orsha shahrida yahudiy oilasida tug'ilgan. 1917-yilda Moskva universitetini huquq fakultetini tamomlagan va bir vaqtda Shanyavskiy xalq universitetida ham tahsil olgan.

1924-yilda Vygotskiy ikkinchi umumrossiya psixonevrologiya qurultoyida "Refleksologik va psixologik tekshirish metodikasi" mavzusida ma'ruza o'qib, Moskva Eksperimental Psixologiya institutiga ishga taklif etilgan. 1934-yilda vafot etganiga qaramay, u o'z hayoti davomida 180 dan ortiq ilmiy asarlar yaratgan.

Uning asarlari Sovet davrida (1936–1956) senzura ostiga olingan va rasmiy ravishda taqiqlangan. Faqat 1962-yilda "Thought and Language" asari ingliz tiliga tarjima qilingandan so'ng uning g'oyalari G'arb olamida keng tarqala boshlagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

1. Umumiy Genetik Qonun

Vygotskiy tomonidan shakllantrilgan umumiy genetik qonunga ko'ra, har qanday oliy

psixologik funksiya avval ijtimoiy darajada (interpsixologik), so'ngra individual darajada (intrapsixologik) paydo bo'ladi. Bu qonun 1930-yilda yaratilgan "Inson rivojlanishining asbobi metodi" asarida batafsil yoritilgan. Misol uchun, bola avval kattalar bilan birgalikda muammo yechishni o'rganadi, keyinchalik bu jarayon ichki (mustaqil) fikrlashga aylanadi.

2. Yaqin Rivojlanish Zonasi (YRZ)

Vygotskiyning eng muhim va keng qo'llaniladigan konsepsiyasi - "Yaqin Rivojlanish Zonasi" (Zone of Proximal Development - ZPD) - 1935-yilda nashr etilgan "Aqliy rivojlanish muammosi o'quv jarayonida" asarida birinchi marta to'liq bayon etilgan.

YRZ deganda - bolaning mustaqil hal qila oladigan vazifalari (hozirgi rivojlanish darajasi) va malakali kattalar yoki tengdoshlari yordamida hal qila oladigan vazifalari (potensial rivojlanish darajasi) o'rtasidagi masofa tushuniladi. YRZ ta'lim samaradorligini maksimal darajaga ko'tarish uchun o'qituvchi bola rivojlanishining "o'sib kelayotgan qirrasiga" e'tibor qaratishi lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, YRZ doirasida olib boriladigan ta'lim bolaning mustaqil ish bilan cheklangan ta'limga qaraganda 40–60% ko'proq bilim o'zlashtirilishini ta'minlaydi (Wood, Bruner & Ross, 1976).

3. Vositachilik (Mediation) Nazariyasi

Vygotskiy inson tafakkuri va xulq-atvori vositachilar - semiotik vositalar (belgilar, til, raqamlar, ramzlar) orqali shakllanishini asosladi. Uning fikricha, til - bu eng muhim psixologik vosita bo'lib, u nafaqat muloqot, balki fikrlashni ham tashkil etadi. Bu g'oya 1930-yillarda Vygotskiy va uning shogirdi Aleksey Leontevning faoliyat nazariyasi bilan birgalikda rivojlantirilgan.

4. Til va Tafakkur O'rtasidagi Aloqa

Vygotskiy Piajening tilni shunchaki aqliy rivojlanishning natijasi degan qarashiga qarshi chiqib, tilning tafakkurni shakllantiruvchi aktiv vosita ekanligini isbotladi. "Egotsentrik nutq" (kattalar aytmasa ham bola o'z-o'ziga gapirganda) aslida bolaning tafakkurni tashkil etishga intilishi ekanligini va vaqt o'tishi bilan u "ichki nutq"ga aylanib, tafakkurning bir qismiga kirishib ketishini ilmiy jihatdan asosladi.

Scaffold Ta'lim Tushunchasi

"Scaffold" (qo'llab-quvvatlovchi tuzilma) atamasi Vygotskiy tomonidan bevosita kiritilmagan bo'lsa-da, u uning YRZ nazariyasidan kelib chiqqan holda 1976-yilda David Vud, Jerom Bruner va Gail Ross tomonidan ishlab chiqilgan. Bu konsepsiya o'qituvchi yoki kattaning bolaga vazifa darajasiga mos keladigan yordam ko'rsatishi, bola malakasi oshishi bilan yordamni asta-sekin kamaytirishi jarayonini anglatadi.

Scaffold ta'limning ta'lim jarayonidagi natijalari: PISA (2018) xalqaro baholash ma'lumotlariga ko'ra, scaffold strategiyalaridan faol foydalanadigan o'qituvchilar sinflarida o'quvchilarning matematika va o'qish ko'rsatkichlari scaffold ishlatilmaydigan sinflarga nisbatan o'rtacha 15–20% yuqori bo'lgan.

Vygotskiy Nazariyasining Ta'lim Jarayoniga Tatbiqi

1. Hamkorlikdagi Ta'lim (Collaborative Learning)

Vygotskiyning ijtimoiy ta'lim nazariyasi hamkorlikdagi o'qitish metodlarining asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kichik guruhlarda ishlagan o'quvchilar mustaqil ishlagan o'quvchilarga nisbatan materiallarni 30–35% yaxshiroq eslab qolishlari aniqlangan (Johnson & Johnson, 1999). Zamonaviy ta'limda keng qo'llaniladigan kooperativ ta'lim modeli to'g'ridan-to'g'ri Vygotskiy g'oyalariga asoslanadi.

2. Dinamik Baholash

Vygotskiyning YRZ nazariyasi an'anaviy (statik) testlarga muqobil sifatida dinamik baholash kontsepsiyasini keltirib chiqargan. Dinamik baholashda o'quvchi faqat mustaqil

bajaradigan ishi emas, balki yordam bilan nimalarga erishishi ham inobatga olinadi. Bu yondashuv, ayniqsa, maxsus ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarni aniqlashda an'anaviy testlarga nisbatan 2–3 baravar aniqroq natija berishi ilmiy ishlarda ko'rsatilgan (Lidz, 1991).

3. O'qituvchining Roli

Vygotskiy konsepsiyasida o'qituvchi passiv bilim uzatuvchi emas, balki faol vositachi (mediator) hisoblanadi. O'qituvchi bolaning YRZ doirasida ishlashini ta'minlashi, muloqotni faollashtirishi va fikrlashni rivojlantirishga sharoit yaratishi lozim. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra (2020), Vygotskiy yondashuviga asoslangan o'qituvchi tayyorlash dasturlari o'quv jarayoni sifatini sezilarli darajada yaxshilashi aniqlangan.

4. Bolalar Bog'chasi va Boshlang'ich Ta'lim

Vygotskiy o'yin jarayonini yaqin rivojlanish zonasini kengaytiruvchi asosiy mexanizm deb hisoblagan. Uning fikricha, o'yin davomida bola haqiqiy imkoniyatlaridan yuqori darajada harakat qilishga majbur bo'ladi. Masalan, role-playing o'yinlari bolaning ijtimoiy qoidalarni tushunishiga va til rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bu g'oya zamonaviy maktabgacha ta'lim standartlarining asosiga kiritilgan.

Vygotskiy Nazariyasining Zamonaviy Talqini va Tanqidi

Vygotskiyning g'oyalari zamonaviy kognitiv neyrosience tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Mirror neurons (ko'zgudosh neyronlar) tadqiqotlari ijtimoiy o'rganishning biologik asosini ko'rsatib, Vygotskiy nazariyasini neyrobiol jihatdan tasdiqlaydi (Rizzolatti & Craighero, 2004).

Biroq, bir qator tadqiqotchilar YRZ tushunchasining o'lchash qiyinchiligini va universal qo'llanilishi cheklangan ekanligini ta'kidlashadi. Shuningdek, Vygotskiyning madaniy kontekstga haddan tashqari urg'u berishi ba'zi universal kognitiv rivojlanish qonuniyatlarini e'tibordan chetda qoldirishga olib keladi degan tanqidlar mavjud.

Xulosa. Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi bolaning aqliy rivojlanishini individual biologik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va til vositasida sodir bo'ladigan jarayon sifatida ko'radi. Yaqin rivojlanish zonasi, scaffold ta'lim va vositachilik konsepsiyalari bugungi kunda dunyodagi yetakchi ta'lim tizimlarining asosini tashkil etmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham Vygotskiy yondashuvlarini chuqurroq tatbiq etish, xususan hamkorlikdagi ta'lim, dinamik baholash va o'qituvchilarni faol mediator sifatida tayyorlash orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu konsepsiyalar ta'lim islohotlarini amalga oshirishda ishonchli ilmiy-pedagogik asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press. Cambridge, MA.
2. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and Language* (A. Kozulin, Trans.). MIT Press. Cambridge, MA. (Original work published 1934).
3. Wood, D., Bruner, J. S., & Ross, G. (1976). The role of tutoring in problem solving. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 17(2), 89–100.
4. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning* (5th ed.). Allyn & Bacon. Boston.
5. Lidz, C. S. (1991). *Practitioner's Guide to Dynamic Assessment*. Guilford Press. New York.
6. Rizzolatti, G., & Craighero, L. (2004). The mirror-neuron system. *Annual Review of Neuroscience*, 27, 169–192.

Ibragimova Muhlisa,
Student of Fergana State University
dvsada134@gmail.com

HOW MOTIVATION AFFECTS SUCCESS IN LEARNING ENGLISH

Abstract. This article examines the role of motivation in second language acquisition (SLA) and its impact on learners' language learning effectiveness. Motivation is analyzed as one of the key psychological factors that determines learners' interest, engagement, and persistence in acquiring a second language. The study discusses different types of motivation, including integrative, instrumental, intrinsic, and extrinsic motivation, and their significance in the learning process. The findings indicate that learners who possess multiple motivational orientations tend to achieve higher levels of language proficiency and show greater active participation in learning activities. The article also emphasizes that motivation is a dynamic process influenced by classroom environment, teacher behavior, and social context. Overall, motivation is considered a crucial factor in successful second language acquisition.

Key words: second language acquisition, motivation, integrative motivation, instrumental motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, language learning, learner engagement, L2 motivational system

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonida motivatsiyaning roli va uning til o'rganish samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Motivatsiya o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishi, faolligi va davomiy harakatlarini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida tahlil qilinadi. Maqolada integrativ, instrumental, ichki va tashqi motivatsiya turlarining o'quv jarayonidagi ahamiyati yoritilib, ularning o'quvchilar muvaffaqiyatiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bir nechta motivatsion omillarga ega bo'lgan o'quvchilar tilni o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishadi va o'quv jarayonida faolroq ishtirok etadi. Shuningdek, motivatsiya o'quv muhiti, o'qituvchi yondashuvi va ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgarib turadigan dinamik jarayon ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ikkinchi tilni o'zlashtirish, motivatsiya, integrativ motivatsiya, instrumental motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, til o'rganish, o'quvchi faolligi, L2 motivatsion tizim

Аннотация. В данной статье рассматривается роль мотивации в процессе овладения вторым языком и её влияние на эффективность изучения языка. Мотивация анализируется как один из ключевых психологических факторов, определяющих интерес, вовлечённость и настойчивость обучающихся в процессе изучения второго языка. В работе рассматриваются различные виды мотивации, включая интегративную, инструментальную, внутреннюю и внешнюю мотивацию, а также их значение в учебном процессе. Результаты исследования показывают, что обучающиеся с несколькими мотивационными ориентациями достигают более высокого уровня владения языком и проявляют большую активность в учебной деятельности. Также подчёркивается, что мотивация является динамическим процессом, зависящим от учебной среды, поведения преподавателя и социального контекста. В целом мотивация рассматривается как важнейший фактор успешного овладения вторым языком.

Ключевые слова: овладение вторым языком, мотивация, интегративная мотивация, инструментальная мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, изучение языка, вовлечённость обучающихся, L2 мотивационная система

Introduction. Second Language Acquisition (SLA) is a complex process influenced by cognitive, social, and affective factors. Among these, motivation is widely recognized as one of the most significant determinants of success in learning a second language. Motivation affects how learners initiate language learning, the amount of effort they invest, and their persistence in overcoming difficulties. In SLA contexts, especially where learners have limited exposure to the target language, motivation becomes a crucial internal driving force. Scholars such as Gardner and Dörnyei have emphasized that motivated learners are more likely to achieve higher proficiency because they actively engage in learning opportunities and maintain long-term commitment. Motivation in SLA is not a static trait but a dynamic process that evolves depending on personal goals, classroom environment, and social influences. Therefore, understanding motivation is essential for improving language teaching practices and enhancing learner outcomes.

Literature Review. Research on motivation in SLA has developed significantly over the past decades, with early foundations laid by Gardner's socio-educational model. Gardner and Lambert introduced the concepts of integrative and instrumental motivation, which remain central to SLA theory. Integrative motivation refers to learners' desire to identify with and become part of the target language community, while instrumental motivation is associated with practical goals such as employment or academic success. Studies show that both types contribute to language achievement, though their impact may vary depending on learning context [1; 245].

Later research expanded these categories by incorporating cognitive and psychological perspectives. Dörnyei's L2 Motivational Self System shifted focus from external orientation toward internal self-perception, emphasizing the "ideal L2 self" and "ought-to L2 self" as key motivational drivers. This model highlights how learners' imagined future selves can strongly influence effort and persistence in language learning [2; 67].

In addition, intrinsic and extrinsic motivation theories, derived from self-determination theory, have contributed to SLA research. Intrinsic motivation involves learning a language for personal satisfaction, curiosity, or enjoyment, while extrinsic motivation is driven by external rewards or pressures. Empirical studies suggest that intrinsic and integrative motivation are often linked to higher proficiency and sustained engagement, whereas instrumental motivation is particularly effective in structured educational environments [3; 102].

Recent research also emphasizes the dynamic nature of motivation. It is influenced by classroom practices, teacher support, cultural context, and learner identity. Motivation is no longer seen as a fixed characteristic but as a fluctuating process shaped by continuous interaction between the learner and environment. This shift has led to more holistic approaches in SLA research that combine psychological, social, and contextual factors [4; 88].

Methodology. This study adopts a qualitative research design to examine the role of motivation in second language acquisition. The data were collected through semi-structured interviews and classroom observations involving intermediate-level English learners. A total of 20 participants were selected using purposive sampling to ensure variation in age, academic background, and learning experience. The interviews focused on learners' reasons for studying English, their learning strategies, and their perceived challenges. Classroom observations were conducted over a four-week period to analyze learner engagement and participation patterns. The data were analyzed using thematic analysis. First, interview transcripts were coded to identify recurring motivational themes such as integrative goals, instrumental goals, intrinsic interest, and external pressure. Second, observational data were compared with interview findings to examine how motivation manifested in actual learning

behavior. The study also considered contextual factors such as teacher feedback, classroom atmosphere, and peer interaction. Ethical considerations were ensured by obtaining informed consent and maintaining participant confidentiality throughout the research process. This methodological approach allows for an in-depth understanding of how motivation operates in real classroom settings and how it influences learner behavior and language development.

Results. The findings indicate that motivation plays a central role in shaping learners' engagement and achievement in second language acquisition. Most participants reported a combination of integrative and instrumental motivation. Learners with integrative motivation demonstrated higher levels of participation, curiosity about cultural aspects of the language, and willingness to communicate. These learners often engaged in additional language exposure activities such as watching films or interacting with native speakers. Instrumental motivation was also strongly present, particularly among students who viewed English as essential for academic success or career advancement. While these learners showed consistent effort in structured tasks, their engagement outside the classroom was comparatively limited. Intrinsic motivation appeared in learners who expressed enjoyment in language learning activities, often showing higher persistence even when facing difficulties. Overall, the results suggest that learners with multiple types of motivation tend to perform better than those relying on a single motivational source. Motivation was also found to fluctuate depending on classroom conditions and teacher encouragement, confirming its dynamic nature in SLA.


Discussion. The findings support existing theories that motivation is a key factor in second language acquisition. Consistent with Gardner's model, both integrative and instrumental motivations contribute to language learning success, although integrative and intrinsic motivations appear to promote deeper engagement. The results also align with Dörnyei's theory, which emphasizes the importance of learners' self-concept and future-oriented goals in sustaining motivation. The study highlights that motivation is not isolated but interacts with environmental factors such as teaching methods and peer influence. Learners who experienced supportive and interactive classrooms tended to show higher motivation levels. This suggests that educators play a crucial role in fostering and maintaining learner motivation. Furthermore, the coexistence of multiple motivational types indicates that SLA motivation is complex and multidimensional. Learners are rarely driven by a single factor; instead, their motivation evolves depending on context and experience. This reinforces the idea that effective language instruction should address both internal and external motivational dimensions.

Conclusion. Motivation is a fundamental element in second language acquisition, influencing learners' effort, persistence, and overall achievement. The study confirms that integrative, instrumental, and intrinsic motivations all contribute to language learning, though their impact varies depending on individual and contextual factors. Motivation is not a fixed trait but a dynamic process shaped by personal goals, classroom environment, and social interaction. The findings suggest that educators should adopt strategies that enhance both intrinsic and extrinsic motivation, such as creating meaningful learning activities, connecting language learning to real-life goals, and fostering positive classroom environments. By doing so, teachers can support sustained learner engagement and improve language learning outcomes.

Ultimately, understanding motivation in SLA provides valuable insights into how learners acquire a second language and how teaching practices can be improved to support long-term success.

References.

1. Gardner, R. C. *Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation*. University of Ottawa Press. 2012. p. 45
2. Dörnyei, Z. *Motivation and the Vision of Knowing a Second Language*. Oxford University Press. 2014. p. 67
3. Williams, M. & Burden, R. L. *Psychology for Language Teachers*. Cambridge University Press. 2015. p. 102
4. Lightbown, P. M. & Spada, N. *How Languages are Learned*. Oxford University Press. 2013. p. 88
5. Ellis, R. *Understanding Second Language Acquisition*. Oxford University Press. 2012. p. 119



Adizova Dilfuza Samadovna

Buxoro xalqaro universiteti magistranti

O.M.Fayzullayev

BuxDu fakultetlararo chet tili kafedra mudiri f.f.d.prof

FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada filologiya fanlarini o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda rivojlangan ta'lim tizimlariga ega davlatlarda filologiya yo'nalishida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modellarining samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, chet tillarni va ona tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv, integrativ ta'lim, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarning ahamiyati tahlil etiladi. Xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari va ularning filologiya ta'limi sifatini oshirishdagi o'rni ilmiy asosda ochib beriladi. Maqola natijalari filologiya fanlari o'qituvchilari, metodistlar hamda ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: filologiya ta'limi, xorijiy tajribalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ metod, interaktiv ta'lim, raqamli texnologiyalar, ta'lim sifati.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты зарубежного опыта преподавания филологических дисциплин. В исследовании рассматриваются современные педагогические подходы, инновационные методы и компетентностно-ориентированные модели обучения, применяемые в странах с развитой системой образования в области филологии. Также анализируется значение коммуникативного подхода, интегративного обучения, цифровых технологий и интерактивных методов в преподавании иностранных языков и родного языка. На научной основе раскрываются возможности адаптации зарубежного опыта к национальной системе образования и его роль в повышении качества филологического образования. Результаты статьи имеют практическую значимость для преподавателей филологических дисциплин, методистов и специалистов в сфере образования.

Ключевые слова: филологическое образование, зарубежный опыт, современные педагогические подходы, компетентностный подход, коммуникативный метод, интерактивное обучение, цифровые технологии, качество образования.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of foreign experience in teaching philological disciplines. The study examines modern pedagogical approaches, innovative methods, and competency-based educational models used in countries with advanced education systems in the field of philology. It also analyzes the importance of the communicative approach, integrative learning, digital technologies, and interactive methods in teaching both foreign and native languages. The possibilities of adapting foreign experience to the national education system and its role in improving the quality of philological education are scientifically substantiated. The results of the article are of practical significance for teachers of philological disciplines, methodologists, and education specialists.

Key words: *philological education, foreign experience, modern pedagogical approaches, competency-based approach, communicative method, interactive learning, digital technologies, quality of education*

Kirish. Zamonaviy globallashtirish va madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi sharoitida filologiya fanlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tobora ortib bormoqda. Til va adabiyot inson tafakkuri, madaniy merosi hamda milliy o'zlikni anglashning muhim vositasi bo'lib, filologiya ta'limining sifati bevosita jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli filologiya fanlarini o'qitishda samarali pedagogik yondashuvlarni qo'llash va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida filologiya fanlarini o'qitish jarayoni an'anaviy bilim berishdan ko'ra, kompetensiyaga asoslangan, talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etilmoqda. Chet tillarini va ona tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv, integrativ ta'lim, muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish filologiya ta'limining samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning til ko'nikmalarini real muloqot jarayonida shakllantirishga, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda filologiya fanlarini o'qitish tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, talaba markazli yondashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, baholash tizimining shaffofligi va kompetensiyalarni aniqlashga yo'naltirilgan mezonlarning qo'llanilishi ta'lim sifati monitoringini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim tizimida filologiya fanlarini o'qitishni takomillashtirish jarayonida xorijiy tajribalarni bevosita ko'chirish emas, balki ularni mahalliy sharoit, madaniy qadriyatlar va ta'lim ehtiyojlariga moslashtirish muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, ularning samarali jihatlari aniqlash va amaliyotga tatbiq etish filologiya ta'limi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqola filologiya fanlarini o'qitishda xorijiy tajribalarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida filologiya ta'limini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berishni maqsad qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy globallashtirish, madaniyatlararo muloqotning kengayishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu jarayonda filologiya fanlari til, madaniyat va milliy o'zlikni saqlash bilan bir qatorda, xalqaro muloqot kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli filologiya fanlarini o'qitish jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida filologiya fanlarini o'qitish kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilib, o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalari, tanqidiy va ijodiy tafakkuri hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va tahlil qilish filologiya ta'limining sifatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda chet tillarini va ona tilini o'qitishda raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim platformalari, interaktiv metodlar va integrativ yondashuvlarning keng qo'llanilishi filologiya ta'limining mazmuni va shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu o'zgarishlar o'qituvchilardan yangi pedagogik kompetensiyalarni talab etib, ta'lim jarayonini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish esa bu jarayonda samarali yechimlarni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida xorijiy tajribalarni bevosita ko'chirish emas, balki ularni mahalliy sharoit, madaniy qadriyatlar va ta'lim ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois filologiya fanlarini o'qitishda xorijiy tajribalarni ilmiy asosda o'rganish va amaliyotga tatbiq etish ta'lim sifatini oshirishga, o'qitish metodikasini takomillashtirishga hamda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Filologiya fanlarini o'qitishda xorijiy tajribalarni o'rganish masalasi pedagogika, lingvodidaktika va ta'lim metodikasi sohalarida keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda til va adabiyot ta'limining samaradorligi, asosan, o'qitish metodlari, ta'lim modeli va o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan izohlanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda kommunikativ yondashuv filologiya fanlarini o'qitishning yetakchi modeli sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari Dell Hymes tomonidan ilgari surilgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida o'rgatishni nazarda tutadi. Keyingi tadqiqotlarda bu yondashuv til o'rganishda talabalarning nutqiy faolligini oshiruvchi samarali metod sifatida asoslab berilgan.

Lingvodidaktika sohasida Jack C. Richards va Theodore Rodgers chet tillarini o'qitishda zamonaviy metodlar evolyutsiyasini tahlil qilib, kommunikativ metodning filologiya ta'limida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida til o'rganish jarayoni talaba markazli bo'lishi, interaktiv mashg'ulotlar va real kommunikativ vaziyatlarga asoslanishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi.

Yevropa ta'lim tizimida filologiya fanlarini o'qitishda integrativ yondashuv, xususan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) modeli keng qo'llaniladi. Ushbu modelning nazariy asoslari Do Coyle tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda til va fan mazmunini birgalikda o'qitish orqali talabalarning lingvistik va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish maqsad qilinadi. Tadqiqotlar CLIL modeli filologiya fanlarida tilni amaliy kontekstda o'zlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Amerika va Yevropa mamlakatlari tajribasida filologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalanish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy tadqiqotchilar raqamli vositalar, elektron korpuslar, multimodal materiallar va masofaviy ta'lim elementlari o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydilar. Bu jarayonda o'qituvchi ko'proq fasilitator va yo'naltiruvchi rolini bajaradi.

Shuningdek, adabiyotlarda baholash tizimining xorijiy tajribasi ham keng yoritilgan. Kompetensiyaga asoslangan baholash, formatif assessment va portfoliolar orqali baholash filologiya fanlarida o'quv natijalarini aniqlashning samarali vositasi sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning faqat bilim darajasini emas, balki ularning nutqiy, tahliliy va ijodiy kompetensiyalarini ham baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda filologiya fanlarini o'qitish zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga

yo'naltirilgan. Ushbu ilmiy qarashlar filologiya ta'limini milliy sharoitda takomillashtirish uchun mustahkam nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. Adabiyotlar tahlili va xorijiy ta'lim amaliyotlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, filologiya fanlarini o'qitishda erishilgan ijobiy natijalar, avvalo, ta'lim jarayoniga qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlarning zamonaviyligi va moslashuvchanligi bilan belgilanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida filologiya ta'limi bilimlarni yod olishga emas, balki til va adabiyotni real kommunikativ hamda madaniy kontekstda o'zlashtirishga yo'naltirilgan.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, kommunikativ va talaba markazli yondashuvlar filologiya fanlarini o'qitishda alohida samaradorlikka ega. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, nutqiy faolligini va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, chet tillarini o'qitishda real muloqotga asoslangan mashg'ulotlar, munozaralar, loyihaviy ishlar va rolli o'yinlar o'quvchilarning til kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qilishi xorijiy tajribalarda keng tasdiqlangan.

Shuningdek, integrativ ta'lim modellari xorijiy ta'lim tizimlarida filologiya fanlarini o'qitishda muhim o'rin egallaydi. Til va fan mazmunini birgalikda o'qitish o'quvchilarda nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo va kognitiv kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Bu holat filologiya fanlarining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liqligini kuchaytirib, ta'lim jarayonining mazmunini boyitib beradi.

Raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalarning keng qo'llanilishi ham muhokama davomida muhim jihat sifatida namoyon bo'ladi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, onlayn platformalar, elektron resurslar, multimodal materiallar va masofaviy ta'lim elementlari filologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi hamda ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, raqamli texnologiyalarni qo'llashda metodik muvozanatni saqlash, ularni an'anaviy ta'lim shakllari bilan uyg'unlashtirish muhim hisoblanadi.

Muhokama natijalariga ko'ra, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishda ularni to'liq ko'chirish emas, balki mahalliy ta'lim sharoiti, madaniy qadriyatlar va o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirish zarur. Aks holda, ilg'or metodlar kutilgan samarani bermasligi mumkin. Shu bois filologiya fanlarini o'qitishda xorijiy tajribalarni tanqidiy tahlil qilish va ularni milliy ta'lim an'analari bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribalar filologiya ta'limini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarning oqilona qo'llanilishi filologiya fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishga, ta'lim sifatini yaxshilashga va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga imkon yaratadi.

Xulosa. Mazkur maqolada filologiya fanlarini o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. O'rganilgan ilmiy manbalar va pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan ta'lim tizimlarida filologiya fanlari an'anaviy bilim berish modelidan ko'ra, kompetensiyaviy va talaba markazli yondashuvlar asosida tashkil etilmoqda. Bu esa o'quvchilarning kommunikativ, tahliliy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy tajribalarda kommunikativ yondashuv, integrativ ta'lim, interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish filologiya ta'limining samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, chet tillarni va ona tilini

o'qitishda real muloqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, loyihaviy faoliyat va formatif baholash tizimlari ta'lim sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishda ularni to'liq ko'chirish emas, balki mahalliy ta'lim sharoiti, madaniy qadriyatlar va o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirish muhimdir. Shu jihatdan, xorijiy ilg'or tajribalarni tanqidiy tahlil qilish va ularni milliy ta'lim amaliyoti bilan uyg'unlashtirish filologiya fanlarini o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
2. Hymes D. On Communicative Competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
4. Brown H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – New York: Pearson Education, 2007.
5. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
6. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
7. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). – Strasbourg, 2001.

Tursunov Mirzo Mahmudovich,
Buxoro xalqaro universiteti dotsenti
To'xtayev Komil Dilshodovich,
Buxoro xalqaro universiteti
lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi 2-kurs magistranti

INGLIZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASIDAGI MURAKKAB LEKSIK BIRLIKLARNING UMUMIY TASNIFI

Annotatsiya. Bu maqolada tilshunoslikning yirik bo'limlaridan biri bo'lgan frazeologiya bo'limi o'rganilgan. Unda frazeologik birliklarning umumiy xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada o'zbek frazeologiyasidagi frazeologik birliklarning turli manbalardagi tasnifi muhokama qilingan va ularga mos keluvchi ingliz frazeologiyasidagi guruhlar ko'rsatilgan. Shuningdek, izohlashlar misollar bilan yoritilgan va misollarning ingliz va o'zbek tillaridagi shakllari so'z tarkibi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, turg'un birikma, frazeologik qo'shilma, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, ikki hadli frazeologik birlik, kollokatsiya, sintaktik jihatdan yaxlitlik, hissiy bo'yoqdorlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается фразеология, один из крупных разделов лингвистики. В ней описаны общие характеристики фразеологических единиц. В статье рассматривается классификация фразеологических единиц в узбекской фразеологии из различных источников и указываются соответствующие им группы в английской фразеологии. Кроме того, пояснения иллюстрируются примерами, а также анализируется словарный состав примеров на английском и узбекском языках.

Ключевые слова: фразеологическая единица, устойчивое сочетание, фразеологическое сочетание, фразеологическое единство, фразеологическое сращение, биномиял, коллокация, синтаксическая целостность, эмоциональная окраска.

Annotation. This article studies phraseology, one of the major branches of linguistics. It points out the general characteristics of phraseological units. The article discusses the classification of phraseological units in Uzbek phraseology in various sources and indicates the groups in English phraseology that correspond to them. Furthermore, it highlights the explanations using examples and analyses the lexical content of their forms in the two languages.

Key words: phraseological unit, fixed phrase, phraseological combination, phraseological unity, phraseological fusion, binomial, collocation, syntactic wholeness, emotional coloring.

Kirish. Frazeologiya – tilshunoslik sohasining bo'limlaridan biri bo'lib, u so'z birikmalarining ma'lum bir tilda tayyor holda ishlatiladigan turlarini o'rganadi. Frazeologiyaning tilshunoslik ilmida alohida fan bo'lib shakllanishi fransuz tilshunos olimi Charl Ballining fransuz stilistikasi haqidagi kitobining frazeologiyaga bag'ishlangan bobidan boshlangan. Undan keyin rus tilshunosi Y.D. Polivanov frazeologiya alohida tilshunoslik bo'limi bo'lishi kerak degan fikrni bildirgan.¹ O'zbek tilshunosligida esa Shavkat Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasining otasi hisoblanadi. Uning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" kitobi o'zbek frazeologiyasi uchun asosiy manba sanaladi.

¹ Самситова Р.И., "История изучения фразеологизмов в языкознании" Вестник Башкирского государственного педагогического университета им. М. Акмуллы, no. 4 (52), 2019, c. 86-96.

Frazeologiyaning o'rganish obyekti bo'lgan frazeologik birliklar oddiy so'z birikmalaridan barqarorligi, tilda tayyor birliklar holda mavjudligi va barcha shu tilda so'zlashuvchilar tomonidan o'zgartirmasdan ishlatilishi hamda tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nosidan mustaqil bo'lgan yaxlit ma'noga egaligi bilan ajralib turadi. Frazeologik birliklarning yana bir xususiyati – ular sintaktik jihatdan ham yaxlit hisoblanadi, ya'ni gapda butun frazeologik birlik bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi, gap sintaktik tahlil qilinganda u to'lig'icha hol yoki kesim (yoki qaysi gap bo'lagi vazifasini bajarayotgan bo'lsa o'sha) tarzida tagiga chiziladi.

Uning imtihondan o'tganidan boshi osmonga yetgan edi.

Yuqoridagi misol, albatta, faqat o'zbek tiliga taalluqlidir. Ingliz tilida tagiga chizish yo'li bilan amalga oshiriladigan sintaktik tahlil usuli qo'llanilmaydi; uning o'rniga "immediate constituents" (tarkibiy qismlar) nomli boshqa tahlil usulidan foydalaniladi.

P V PrPhr PrPhr NPhr

He was over the moon at passing his exam.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlardan tashqari frazeologik birliklar hissiy bo'yoqdorlikka ham ega. Bu hissiy bo'yoqdorlik ijobiy, salbiy yoki neytral bo'lishi mumkin.

Ijobiy hissiy bo'yoqdorlik: O'sha kuni Karimning oshig'i olchi bo'ldi.

That day, Karim got lucky / luck was on Karim's side.

Salbiy hissiy bo'yoqdorlik: Jazira bugun rosa qovun tushirdi.

Today, Jazira dropped the ball.

Frazeologik birliklar shuningdek frazema, frazeologizm va shunchaki ibora nomlari bilan ham ataladi.

Frazeologiyaning ko'lami masalasi ziddiyatli masala hisoblanadi. Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tili frazeologik lug'ati" kitobining boshida nazariy ma'lumot ham berilgan va shu qismda aytilishicha, o'zbek frazeologiyasining tor ko'lami turg'un birikmalardan iborat, keng ko'lamiga esa maqol, matal va aforizmlar (paremiologik birliklar) ham kiritiladi.² Bu maqolada frazeologik birliklarning tor ko'lamininggina tasniflanishi o'rganilgan.

O'zbek frazeologiyasida frazeologik birliklar turg'un birikmalar va iboralar nomlari bilan ataladi. Turg'un birikmalar deyilganda tarkib jihatidan o'zgarmas, ko'chma (konnotativ) ma'no beruvchi leksik birliklar tushuniladi. Azim Hojiyev turg'un birliklarga shunday izoh bergan: "Nutqning o'zida tuzilmay, tilda bir butun holda mavjud bo'lib, nutqqa yaxlitligicha kiritiladigan birliklardir; nutqning o'zida tuzilib, komponentlari o'z lug'aviy ma'no mustaqilligini saqlagan sintaktik birliklar esa erkin birikmalar, bunday birikmalar odatda to'g'ridan-to'g'ri so'z birikmasi deb yuritiladi".³

A.A. Abduazizov turg'un birikmalarni 3 guruhga ajratgan⁴:

1. Frazeologik qo'shilmalar – bir so'z o'z ma'nosida, boshqasi esa ko'chma ma'noda qo'llanilgan turg'un birikmalar. Misol uchun, nonushta qilmoq (bunda "nonushta" so'zi o'z ma'nosida, "qilmoq" so'zi ko'chma ma'noda ishlatilgan). Frazeologik qo'shilmalar bir qarashda frazeologik birlikday ko'rinmaydi. Ularni kollokatsiyalar bilan adashtirish oson. Kollokatsiyalar - kuchli bog'lanish hosil qilgan, tarkibidagi so'zlar odatda boshqa so'zlar bilan almashtirilmaydigan so'z birikmalari bo'lib, ular ko'chma ma'noga ega emas.

² Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K., O'zbek tili frazeologik lug'ati, Toshkent, 2022, 7-bet.

³ Kabulova U.S., Turg'un birikma turlarining tilshunoslikda tutgan o'rni. IMRAS, 7(6), 2024, 243–247 bet. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1516>

⁴ Abduazizov A.A., Tilshunoslik nazariyasiga kirish, Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010, 79-bet.

Qiyoslang: xato qilmoq, qaror qabul qilmoq (frazeologik qo'shilmalar); tez yordam, mustahkam asos (kollokatsiyalar).

2. Frazeologik butunliklar – tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko'chma ma'no beruvchi turg'un birikmalar. Frazeologik butunliklarning ma'nosini unda tasvirlanayotgan holatni tasavvur qilish orqali kontekstdan tushunib olish mumkin. Buni H. Jamolxonov shunday izohlagan: “Masalan, “tepa sochi tikka bo'lmoq” frazemasi yaxlit holda «g'azablanmoq» ma'nosini - umumlashgan ko'chma ma'noni anglatadi. Bunday ko'chma ma'noga esa kishi darg'azab bo'lganida uning badanidagi tuklarning sezilar-sezilmas harakatga kelishi (psixo-fiziologik holat) asos bo'lgan, demak, frazemaning ko'chma ma'nosini frazema tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nolari bilan izohlash mumkin. Yana: “Ona suti og'zida” frazemasi yaxlit holda «hali yosh», «tajribasiz» ma'nosini anglatadi, bunday ko'chma ma'noni esa frazema tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlash mumkin.”⁵ Boshqa misollar: ko'kka ko'tarmoq (maqtaoq), sirtiga yuqtirmaslik (e'tiborga olmaslik, parvo qilmaslik), temirni qizig'ida bosmoq (kechiktirmasdan “issig'ida” harakat qilmoq).

3. Frazeologik chatishmalar – tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik ma'no sezilmagan turg'un birikmalar. H. Jamolxonov frazeologik chatishmaga “ikki qo'lini burniga tiqib” iborasini misol keltirgan. Bu misol va boshqa frazeologik chatishmalar ma'nosini holatni tasavvur qilish orqali tushuna olmaymiz.

H. Jamolxonov frazeologik butunlik va frazeologik chatishmaning quyidagi ikki farqini keltirgan: “1) Frazeologik butunlik tarkibidagi so'zlarning ma'nolari frazemaning ko'chma ma'nosini izohlaydi. Frazeologik chatishmada esa so'zlar ma'nosi bilan frazema ma'nosi (frazeologik ma'no) o'rtasida bunday aloqa yo'q; 2) frazeologik butunlikning ma'nosida ichki obraz saqlanadi: tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar sezilib turganligidan frazemaning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi. Frazeologik chatishma ma'nosining gavdalanishida esa frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari ishtirok etmaydi, shuning uchun unda ichki obraz so'ngan bo'ladi.”⁶

O'zbek tilida A. Abduazizov va H. Jamolxonov kabi tilshunoslar tomonidan frazeologik birliklar uch guruhga bo'lingan va ularning farqi izohlangan bo'lsa-da, har bir guruhga aynan qaysi frazeologik birliklar kirishini ko'rsatuvchi lug'at yoki indeks yaratilmagan.

Ingliz tilida ham frazeologik qo'shilmalarga mos keluvchi frazeologik birliklar mavjud, lekin ingliz frazeologiyasida frazeologik qo'shilmalar va kollokatsiyalar bir guruh deb olinadi. Yuqorida keltirilgan frazeologik qo'shilmalarning ingliz tilidagi ekvivalentlari quyidagicha:

1. xato qilmoq – make a mistake (so'zma-so'z: xato yaratmoq)
2. nonushta qilmoq – have breakfast (so'zma-so'z: nonushtasi bor bo'lmoq)
3. qaror qabul qilmoq – make a decision (so'zma-so'z: qaror hosil qilmoq)

Keltirilgan misollarning so'z tarkibiga e'tibor bersak, biz frazeologik birliklarning yana bir o'ziga xosligini ko'ramiz: frazeologik birliklar bazasi har bir til uchun alohida bo'ladi va ikki tildagi frazeologik birliklar so'z tarkibi har doim ham bir-biriga mos kelmaydi. Mana shu xususiyati til o'rganish jarayonini til o'rganuvchilar uchun katta qiyinchilikka aylantiradi, chunki til o'rganuvchilar alohida leksik birliklardan tashqari frazeologik birliklarni ham eslab qolishlari kerak bo'ladi.

Ingliz tili frazeologiyasida frazeologik butunliklarga “binomials” (ikki hadlilar) va “trinomials” (uch hadlilar) deb ataluvchi frazeologik birliklar guruhlariga mos keladi. Bu guruhlariga asosan “and” bog'lovchisi va kamdan kam hollarda boshqa so'zlar bilan bog'langan frazeologik butunliklar mansub bo'ladi. Bu frazeologik birliklar tarkibidagi

⁵ Jamolxonov H, Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, “Talqin”, 2005, 219-bet.

⁶ Jamolxonov H, Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, “Talqin”, 2005, 220-bet.

soʻzlarning oʻrnini almashtirmasdan ishlatish kerak, masalan, “bread and butter” frazeologik butunligi “butter and bread” shaklida ishlatilmaydi. Misollar:

1. bread and butter – juda muhim narsa, non va suv, non-u havu
2. safe and sound – sogʻ-omon
3. loud and clear – aniq va tiniq
4. aches and pains – ogʻriqlar va azoblar
5. old and gray – keksa
6. rise and shine – kishini uygʻotish uchun ishlatiladi
7. fair and square – halol yoʻl bilan
8. dead or live – oʻligi yoki tirigi
9. rags to riches – kambagʻal hayotdan badavlatlikka
10. calm, cool and collected⁷ – juda xotirjam

Endi quyidagi iboralarga eʼtibor qaratamiz:

1. kill two birds with one stone – bir oʻq bilan ikki qushni/quyonni urmoq
2. scare the living daylights out of someone – yuragini yormoq
3. in the blink of an eye – koʻz ochib yumguncha

Keltirilgan uch misol va ularning oʻzbek tilidagi ekvivalentlarida quyidagini koʻrishimiz mumkin:

1. ayrim ekvivalent iboralar ikkita tilda bir-biriga soʻz tarkibi jihatidan juda oʻxshash boʻladi, faqat ayrim soʻzlar farq qiladi (1);
2. aksariyat iboralar bir tushunchani bir-biriga butunlay oʻxshamagan tarzda ifodalaydi (2);
3. ayrim iboralar esa ikkita tilda soʻz tarkibi jihatidan deyarli bir xil boʻlishi mumkin (3) (bu turdagi iboralar qardosh tillarda ayniqsa koʻp uchraydi).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, frazeologiya boʻlimi tilshunoslikda kamtar boshlanishga ega boʻlganiga qaramay, bugungi kunda qolgan tilshunoslik boʻlimlari orasida oʻz teng huquqli oʻrniga ega. Frazeologik birliklar kishilar tomonidan oddiy leksik birliklarga qoʻshimcha sifatida ishlatiladi. Ular bizning nutqimizni oddiy leksik birliklar hosil qilib berolmaydigan ekspressivlik, subyektivlik va badiiylik bilan taʼminlaydi. Frazeologik birliklardan toʻgʻri va unumli foydalana oladigan kishining nutqi chiroyli boʻlib, ularni ishlatmaydigan kishilar nutqidan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Michael McCarthy, Felicity O’Dell, English Idioms in Use Intermediate, Cmbridge, Cambridge University Press, 2017.
2. Самситова Р.И., “История изучения фразеологизмов в языкознании” Вестник Башкирского государственного педагогического университета им. М. Акмуллы, no. 4 (52), 2019, c. 86-96.
3. Abduazizov A.A., Tilshunoslik nazariyasiga kirish, Toshkent, “Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010.
4. Abduvakhobova, M., Phraseological Units as Components of Phraseology, American Journal of Philological Sciences. 05. 2025, 186-188. 10.37547/ajps/Volume05Issue04-46.
5. Jamolxonov H, Hozirgi oʻzbek adabiy tili, Toshkent, “Talqin”, 2005.
6. Kabulova U.S., Turgʻun birikma turlarining tilshunoslikda tutgan oʻrni, IMRAS, 7(6), 2024, 243–247 bet. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1516>
7. <https://www.thoughtco.com/what-is-binomial-words-1689027>.

⁷ <https://www.thoughtco.com/what-is-binomial-words-1689027>

Mahliyo Okiljonovna Orzikulova
Leading teacher of the Gijduvan Abu Ali Ibn Sino
Public Health Technical College
E-mail: mahliyo.orzikulova@icloud.com

GAMIFICATION AS A MOTIVATIONAL TOOL IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING FOR MEDICAL STUDENTS

Abstract. *In the rapidly developing digital era, integrating gamification into the process of foreign language learning has become one of the most effective ways to enhance students' motivation and engagement. This paper explores the role of gamification as a motivational tool in teaching foreign languages to medical students, focusing on how game-based learning strategies can improve their academic responsibility, active participation, and communication skills. The study emphasizes the use of digital platforms such as Quizizz, Kahoot, and Duolingo, which allow medical students to learn professional vocabulary and practice language skills in an interactive and competitive environment. Gamified learning environments not only increase learners' intrinsic motivation but also foster their professional responsibility and autonomy. The findings highlight that implementing gamification elements in foreign language education contributes to higher learning outcomes and sustainable motivation among medical students.*

Keywords: *gamification, motivation, foreign language learning, medical education, digital technologies, engagement, professional responsibility, autonomy.*

Аннотация. *В условиях стремительно развивающейся цифровой эпохи интеграция геймификации в процесс обучения иностранным языкам становится одним из наиболее эффективных способов повышения мотивации и вовлечённости обучающихся. В данной статье рассматривается роль геймификации как мотивационного инструмента в обучении иностранным языкам студентов медицинских специальностей, с акцентом на то, как игровые образовательные стратегии способствуют развитию академической ответственности, активного участия и коммуникативных навыков. В исследовании подчёркивается использование цифровых платформ, таких как Quizizz, Kahoot и Duolingo, которые позволяют студентам-медикам осваивать профессиональную лексику и совершенствовать языковые навыки в интерактивной и соревновательной среде. Геймифицированные образовательные среды не только повышают внутреннюю мотивацию обучающихся, но и способствуют формированию профессиональной ответственности и автономности. Полученные результаты свидетельствуют о том, что внедрение элементов геймификации в обучение иностранным языкам способствует повышению учебных результатов и формированию устойчивой мотивации у студентов медицинских направлений.*

Ключевые слова: *геймификация, мотивация, обучение иностранным языкам, медицинское образование, цифровые технологии, вовлечённость, профессиональная ответственность, автономность*

Introduction. In the modern educational landscape, the integration of digital tools and interactive technologies has transformed traditional learning methods. Among these innovations, gamification — the application of game-design elements in non-game contexts — has emerged as a powerful pedagogical approach to increase student engagement and motivation. For medical students, who are often burdened with a demanding academic workload and a curriculum dominated by scientific and clinical subjects, learning a foreign language may seem secondary or challenging. However, in the context of globalization and

international medical collaboration, foreign language proficiency has become an essential component of professional competence. Therefore, applying gamification techniques in foreign language education can significantly improve motivation, participation, and long-term retention among medical students.

Gamified learning environments foster a sense of achievement, competition, and collaboration. Platforms such as Duolingo, Kahoot, and Quizizz have demonstrated how game-based mechanisms like points, badges, levels, and leaderboards can make learning more enjoyable and engaging. Moreover, in medical education, gamification can help students acquire both general linguistic skills and medical terminology in an interactive way. This approach aligns with modern constructivist and student-centered teaching principles, where learners are not passive recipients of knowledge but active participants in their own educational process.

Theoretical Background. The concept of gamification is rooted in motivation theory and behavioral psychology. According to Deci and Ryan's Self-Determination Theory (1985), human motivation is based on three intrinsic needs: autonomy, competence, and relatedness. Gamified learning environments address all three. They allow learners to make autonomous choices (e.g., selecting tasks or challenges), build competence through progressive achievements, and create a sense of community via competition or cooperation.

Gamification in education first gained academic attention in the early 2000s, with researchers such as Deterding et al. (2011) defining it as the use of game elements in non-game settings. In the context of foreign language learning, gamification provides immediate feedback, incremental challenges, and a safe space for experimentation — key factors for sustained engagement. Moreover, the inclusion of narrative elements, visual rewards, and progress tracking promotes intrinsic motivation, which is essential for mastering a new language.

For medical students, the application of gamification carries additional benefits. It supports cognitive engagement by connecting medical content with linguistic learning. For instance, using flashcard-based platforms like Quizlet, medical students can memorize terminology through repetition and visual cues, while earning points or rewards that encourage consistency. Furthermore, gamification facilitates “active recall” and “spaced repetition,” two scientifically proven strategies that enhance long-term memory retention.

Analysis and Discussion. The effectiveness of gamification in foreign language learning for medical students has been confirmed by numerous studies and classroom experiences. In practice, integrating gamification elements into lessons increases student motivation, participation, and confidence. At the Abu Ali Ibn Sino Public Health Technical College, English teachers have observed that students who engage in gamified learning tasks — such as vocabulary competitions, interactive quizzes, and role-playing simulations — demonstrate higher levels of interest and improved academic responsibility.

One of the most successful examples of gamification in language learning is the use of online platforms like Kahoot and Quizizz. These tools transform ordinary grammar and vocabulary exercises into interactive challenges. For example, a quiz on medical terminology can be designed as a competitive game between groups, where students earn points for correct answers. This format stimulates both individual and collective motivation while enhancing collaboration. Additionally, mobile-based applications such as Duolingo help students practice outside the classroom, providing flexibility and continuity of learning.

However, despite its benefits, gamification requires thoughtful implementation. Overemphasis on competition can sometimes lead to anxiety or decreased motivation for lower-performing students. Therefore, instructors must balance extrinsic and intrinsic motivators, ensuring that the primary goal remains language competence rather than mere reward collection. Properly designed gamification encourages not only fun and engagement

but also the development of self-discipline, responsibility, and sustained interest — all critical for medical students who will later communicate with international patients or colleagues.

Conclusion. Gamification has proven to be a powerful motivational strategy in foreign language learning, particularly for medical students who often struggle with limited time and high academic pressure. By transforming routine exercises into engaging challenges, gamified approaches foster deeper learning, persistence, and autonomy. Moreover, through the use of digital platforms and mobile applications, students can continue learning beyond the classroom, which promotes lifelong learning habits.

The integration of gamification in foreign language education is not merely a technological innovation but a shift toward a more student-centered, motivationally rich environment. When applied thoughtfully, gamification helps bridge the gap between professional education and language learning, preparing future medical professionals for effective communication in global healthcare settings. Future research could explore the long-term effects of gamification on linguistic competence, intrinsic motivation, and academic responsibility among medical students in Uzbekistan and beyond.

References.

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: defining 'gamification'. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference.
2. Zichermann, G., & Cunningham, C. (2011). Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps. O'Reilly Media.
3. Lee, J. J., & Hammer, J. (2011). Gamification in education: What, how, why bother? *Academic Exchange Quarterly*, 15(2).
4. Gee, J. P. (2007). *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy*. Palgrave Macmillan.
5. Nicholson, S. (2015). A RECIPE for meaningful gamification. In *Gamification in Education and Business*. Springer.

Xallokova Xurshida Shokirovna
Buxoro xalqaro universiteti, lingvistika
yo'nalishi 2-bosqich magistranti

FRAZELOGIYA TILSHUNOSLIKNING ASOSIY BO'LIMLARIDAN BIRI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning lingvistik tizimdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning tabiati, ularning leksik, semantik va sintaktik jihatdan til tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda frazeologiyaning boshqa tilshunoslik sohalari – leksikologiya, semasiologiya, stilistika, kognitiv lingvistika bilan o'zaro aloqasi va farqlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, o'zbek va jahon tilshunosligida frazeologiya nazariyasining shakllanishiga hissa qo'shgan olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tahlil etiladi. Maqolada frazeologik birliklarning milliy –madaniy semantikasi, ularning xalq tafakkuri va mentalitetini ifodalashdagi roli ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, til tizimi, semantika, leksikologiya, milliy –madaniy mazmun, marfalogiya.

Annotation. This article examines frazeology as an independent branch of linguistics, focusing on its formation, development stages, and its functional position within the linguistic system. The study provides a comprehensive analysis of the nature of phraseological units and their lexical, semantic, and syntactic features that distinguish them from other linguistic elements. The interrelation between frazeology and other linguistic fields such as lexicology, semasiology, stylistics, and cognitive linguistics is discussed in detail. The research also highlights the contributions of prominent scholars to the development of frazeological theory in both Uzbek and world linguistics. Special attention is paid to the national –cultural semantics of phraseological units and their role in reflecting a people's mentality, worldview, and collective consciousness.

Key words: frazeology, phraseological unit, linguistic system, semantics, lexicology, national –cultural meaning, morphology.

Аннотация. В данной статье фразеология рассматривается как самостоятельный раздел языкознания, изучающий устойчивые словосочетания и их место в системе языка. Исследование направлено на определение сущности фразеологических единиц, их лексических, семантических и синтаксических особенностей, а также на выявление их функций в структуре языка. В работе анализируются взаимосвязи фразеологии с другими разделами лингвистики – лексикологией, семасиологией, стилистикой и когнитивной лингвистикой. Особое внимание уделяется вкладу отечественных и зарубежных учёных в развитие теории фразеологии. Освещаются вопросы национально –культурной семантики фразеологических единиц, их роль в отражении народного менталитета, мировоззрения и духовных ценностей.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическая единица, языковая система, семантика, лексикология, национально –культурное значение, морфология.

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan hisoblanib, u tilning iboralarini, ya'ni frazeologizmlarni o'rganadi. "Frazeologiya" termini yunoncha "phrasis"- fraza, ifoda, logos"- ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan birikmalar kiritiladi⁸.

⁸ Kunin.A.V."Английская фразеология", Moskva. 1970. 210 b.

Frazeologik birliklar barcha tillarning lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi vositalardan biridir. Frazeologiya har bir tilning muhim qatlami bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko'zga tashlanishida muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko'p bo'lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar xalqning o'tmishi, tarixi, an'analari, urf- odati va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi, ular chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko'rk va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Ta'kidlaganimizdek, frazeologiya tilshunoslikning murakkab sohalaridan biri bo'lib, u tilshunoslikning leksikologiya, stilistika, semantika, etimologiya, morfologiya, grammatika bo'limlari bilan bevosita bog'liqdir. Frazeologiyani tadqiq qilishda ko'rsatib o'tilgan sohalar bilan bir qatorda mamlakatshunoslik, fonetika, falsafa fanlari tarixi va mantiq kabi fanlardan xabardor bo'lish kerak.

Frazeologik birliklar ma'lum so'zlardan tashkil topgan bo'lsada, ular o'zlarining asosiy denotative ma'nolarini yo'qotib, umumiy bir semani ifodalaydi. So'z esa leksikologiyaning o'rganish ob'yektidir. Ana shunda leksikologiya va frazeologiyani o'zaro bog'liqligi namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklarning tarkibiy qismi hisoblanadigan so'zlarni tahlil qilganda bevosita leksikologiya bo'limiga murojaat qilinadi. Shuningdek, ko'p yillar davomida frazeologiyani leksikologiyaning tarkibiy bir qismi sifatida o'rganilishi ham bu ikki soha bevosita bir-biri bilan aloqadorligini isbotlaydi. Semantikada tadqiq etiladigan leksik ma'no xususiyatlari, aynan frazeologik birliklarning semantik o'ziga xosliklarini ifodalash va frazeologik sohada ma'noning turli tiplarini ajratishga xizmat qiladi.

Frazeologik birlik tarkibidagi so'z har doim ham o'zining morfologik xususiyatlarini yo'qotmaydi, morfologiya saqlanib qolgan va yo'qotilgan xususiyatlarni o'rganish imkonini beradi. Frazeologiya tarkibida turli xil strukturali ya'ni so'z birikmasi shaklidagi va gap shaklidagi birikmalar kiritiladi. Sintaksisga oid ma'lumotlardan yuqoridagi kabi birliklar grammatik va funksional tahlilida foydalaniladi. Frazeologik stilistika frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlarini tadqiq etadi va bu sohada leksik uslubshunoslik tajribasiga, turli stilistik tahliliga suyanadi. Shuningdek frazeologik birliklar tilda nominativ funksiya bajarish bilan bir qatorda, ma'lum bir ekspressiv xususiyatlarga egaligi va emotsionalligi bilan farq qilib turadi. Frazeologik birliklarning etimologik tahlilida, tilning kelib chiqishi va tarixi zaruriy qism hisoblanadi.

Frazeologiya fanining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon natijasidir. Dastlab frazeologik birliklar xalq og'zaki ijodining tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'lgan. Qadimiy maqollar, matallar, aforizmlar, diniy va mifologik iboralar tildagi turg'un birikmalarning dastlabki shakllari sifatida shakllangan. Shu bois frazeologik birliklarning ildizlari xalq madaniyatiga, urf-odatlariga va tafakkuriga borib taqaladi. Frazeologiya fanining rivojlanish tarixini xronologik jihatdan bosqichlarga bo'lib o'rganiladi.

1. Dastlabki davr (XIX asrgacha)

Frazeologiya fanining mustaqil rivojlanishidan avval, barqaror iboralar asosan leksikologiya, maqolshunoslik va uslubiyat doirasida o'rganilgan. Qadimiy kitoblarda idiomalar yoki " ifodali so'z birikmalari" alohida qayd etilgan bo'lsada, ularning tildagi o'rni chuqurroq tadqiq etilmagan.

Yevropa tilshunosligida XIX asrga qadar "idiomatik iboralar" tushunchasi ishlatilgan bo'lib, u frazeologiyaning dastlabki bosqichiga to'g'ri keladi. Shu davrga frazeologik birliklar ko'proq tarjima va lug'atshunoslik nazariyasidan o'rganilgan, ammo ular lingvistik tizimning mustaqil elementi sifatida qaralmagan.

2. Mustaqil fan sifatida shakllanish davri (XX asr boshlarida)

Frazeologiya atamasi ilmiy muomalaga birinchi marta Shveytsariya tilshunosi Sharl Balli tomonidan kiritilgan. Uning 1905 yil nashr etilgan " Stilistika ocherki" va "Fransuz

stilizatsiya” (1909) asarida “frazeologiya” termini ilk bora ilmiy asoslarda qo‘llanilgan. Ballining fikricha, frazeologiya – bu tildagi hissiy, estetik va uslubiy ma’nomlarni ifodalovchi ifoda vositalaridir⁹.

Sharl Balli frazeologiyani uslubshunoslik bilan chambarchas bog‘liq deb hisoblagan. Uningcha, barqaror iboralar tilning ifoda kuchini, obrazlilik va emotsional ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi elementlardir. Shu tariqa, stilistik frazeologiya stilistik maktabi shakllandi. Bu maktab frazeologiyani birlik sifatida emas, balki ifoda estetikasi sifatida tahlil qildi.

3. Sobiq sovet frazeologiya maktabining shakllanish davri (1940-1970 yillar)

XX asrning o‘rtalarida frazeologiya fani eng faol rivojlangan davr boshlandi. Bu jarayon, avvalo, rus tilshunosligi maktabida, xususan Viktor Vladimirovich Vinogradov (1895-1969) nomi bilan bog‘liqdir. Vinogradov frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida shakllantirdi va uning asosiy turlarini aniqladi¹⁰.

U frazeologik birliklarni semantik yaxlitlik darajasiga ko‘ra quyidagicha tasnif qildi:

1. Frazeologik birikmalar --- erkin birikmalarga yaqin, ammo barqaror so‘zlashuv elementlari (masalan, *chuqur o‘ylamoq*)

2. Frazeologik birliklar --- ma’nosi qisman ko‘chma (masalan, *ko‘zga tashlanmoq*)

3. Frazeologik butunliklar --- ma’nosi butunlay ko‘chma, tarkibiy qismlar ma’nosidan ajralgan (masalan, *suvg‘a cho‘kmoq* – “*halok bo‘lmoq*”)

Vinogradovdan keyin bu yo‘nalishni A.I.Smirnitskiy, N.N.Amosova, A.V.Kunin, M.M.Kopylenko kabi olimlar davom ettirdilar. Masalan, A.V.Kunin frazeologiyani til tizimidagi mustaqil qatlam sifatida qarab, ingliz tili frazeologiyasi nazariyasini yaratdi. N.N.Amosova frazeologiyani kontekstual yondashuv asosida tahlil qilib, frazemalarning “valentlik” (bog‘lanish imkoniyati) tamoyilini ishlab chiqdi. A.I.Smirnitskiy esa frazeologik birliklarning grammatik va strukturaviy turlarini aniqlashga e’tibor qaratdi.

Sobiq sovet frazeologiya maktabi hozirgi zamon frazeologiyasining poydevorini yaratgan bo‘lib, u frazeologiyaning nazariy asoslarini, terminalogik tizimini va ilmiy tadqiqot metodikasini shakllantirgan.

4. Yevropa va Britaniya maktablari davri (1950-1980 yillar)

XX asrning o‘rtalarida Yevropada ham frazeologiya yangi bosqichga ko‘tarildi. Ingliz tilshunosligida J.R.Firth (1890-1960) tomonidan ishlab chiqilgan kollokatsion nazariya (so‘zlarning bir-biri bilan birgalikda kelish odatlarini o‘rganuvchi nazariya) bu sohada muhim o‘rin tutadi. Firth “so‘zning ma’nosi uning qo‘llanishida namoyon bo‘ladi” (“meaning is use”) degan tamoyilni ilgari suradi¹¹. Britaniya maktabining qarashlari frazeologiyani empirik (tajribaviy) yo‘nalishda o‘rganishga zamin yaratadi.

5. Kognitiv frazeologiya va yangi nazariy paradigmalari (1980-2000 yillar)

XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida frazeologiya kognitiv tilshunoslik bilan birlashdi. Kognitiv frazeologiya yo‘nalishining vakillari – J.Lakoff, M.Johnson, D.Dobrovolskiy, E.Piraynenlardir. Frazeologik birliklarni inson tafakkuri va konseptual tizimning mahsuli sifatida talqin etdilar.¹² Masalan, ingliz tilidagi *to fall in love* iborasi “*sevgi -bu nazoratni yo‘qotish, kuchning ta’siri, sayohatning boshlanishi, aql-idrokning pasayishi*” kabi ma’nomlarni o‘z ichiga olib, metaforik modelga asoslanadi. Bu yondashuv frazeologiyani faqat til birliklari emas, balki madaniy va psixologik model sifatida o‘rganish imkonini beradi.

6. Zamonaviy bosqich (XXI asr) – Korpus va raqamli yondashuvlar

Bugungi kunda frazeologiya sun’iy intellekt, korpus lingvistika va kompyuter texnologiyalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. COCA, BNC, ruTenTen, O‘zbek

⁹ Bally Charles. “Traite de stylistique française”. 1909. 101p.

¹⁰ В.В.Виноградов. Избранные труды. -Лексикология и лексикография. Москва: Наука, 1977. – s.140-161

¹¹ Firth.J.R.(1957). A Synopsis of Linguistic Theory,1930-1955. In Studies in linguistic Analysis. Oxford:Blackwell, pp. 1-32p

¹² Lakoff.G. and Johnson.M. (1980) Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. 3-4 b

Milliy Korpusi orqali frazeologik birliklarning chastotasi(qo'llanishi), kolakatsion kuchi va semantik xususiyatlari avtomatik tarzda tahlil qilinmoqda.

O'zbek tilshunosligida frazeologiyani mustaqil tarmoq sifatida o'rganish jarayonida frazeologizm masalalariga e'tibor qaratila boshlandi. Bu davrda A.H.G'ulomov, A.Madaliyev, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev kabi olimlar o'zbek tili frazeologiyasining dastlabki ilmiy asoslarini yaratdilar. Xususan, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (1978) o'zbek frazeologiyasining ilk yirik manbalaridan biridir. U frazeologik birliklarning semantik tabiatini va ularning ichki belgilarini o'rganadigan soha sifatida ko'rgan.¹³ Shuningdek, olim frazeologizmlarni tilda mazmuniy yaxlitlik, barqarorlik va ko'chma ma'no belgilariga ko'ra tasniflagan.

Frazeologizmlar xalqning hayoti, urf -odatlarini, hunarmandchilik, mehnat, tabiatga munosabati va estetik ideallarini ifodalaydi. Har bir ibora xalq tafakkuridagi obrazli fikrlash, kinoya, ifoda, hissiylik orqali milliy tafakkurga yo'g'rilgan. Masalan: "ko'zi moshday ochilmoq"¹⁴ juda hushyor bo'lib qolmoq, hushini yig'moq ma'nolarini bildiradi, milliylik jihati: "mosh" urug'i o'zbek xalqining ovqat mahsuloti. Shu urug' orqali "ko'zi moshdek" degan obraz kichiklik, tirishqoqlik va hushyorlik ma'nosini beradi. Bu xalqning hayotiy kuzatuvchanligini bildiradi.

Mutaqillikka erishgach, tilshunoslikda milliylik, madaniyat va mentalitet asosida tahlil qilish tamoyillari kuchaydi. Frazeologik birliklarga kognitiv, madaniy-semantik va lingvokulturologik yondashuvlar kirib keldi. Bu yondashuvlar ustida N.Mahmudov, A.Nurmonov, D.Hojiyeva, M.Tursunov, G.Abdurahmonovalar ilmiy ishlar olib borgan olimlar sirasiga kiradilar.

Shunday qilib, frazeologiya va frazeologik birliklarni emperik tahlil qilish, yangi imkoniyatlarni ochadi va bu sohadagi tadqiqotlarni yanada ilmiy asoslangan holda olib borish esa yangi tushunchalarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bally Charles."Traite de stylistique française". Geneva: Eggimann.1909.101p.
2. Kunin.A.V."Английская фразеология". Moskva.Vysshaya Shkola 1970. 210 b.
3. В.В.Виноградов. Избранные труды. -Лексикология и лексикография. Москва: Наука, 1977. – s.140-1614. Firth.J.R. (1957). A Synopsis of Linguistic Theory, 1930-1955. In Studies in linguistic Analysis. Oxford:Blackwell, pp. 1-32p
5. Lakoff.G. and Johnson.M. (1980) Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. 3-4 b
6. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent,1978.
7. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili.2006. Toshkent."Universitet"

¹³ Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006. Toshkent."Universitet" nashriyoti. 178 b

¹⁴ Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent,1978. 232b

MUNDARIJA		
4	Oygun Jumayevna Kholmuminova Peculiarities or family, school and community cooperation in environmental legal education	Pedagogika
10	Sunnatov Umid Taxirovich, Mamatxanov Nodirxon Sadridin o'g'li Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishga jalb qilinadigan bo'linmalarni jismoniy va ruxiy tayyorlashda mavjud muammolar va ularning yechimlari	Huquq
15	Sharofiddinova Zebiniso Sherov qizi O'quvchilarda sanogen tafakkurni namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari	Psixologiya
19	Olimov Temur Hasanovich, Kenjayeva Gulhayo Alisher qizi Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalar	Pedagogika
24	Baratova Malika Ulug'bek qizi, Sharipova Sunbula Ahad qizi "Lison ut-tayr" dostonida yetti vodiy talqini	Filologiya
31	Tosheva Gulnora Djuraevna, Eliyeva Ra'no Rustam qizi Bo'lajak muhandislarning dizaynerlik faoliyatini rivojlantirishga oid uslubiy tavsiyalar	Pedagogika
39	Durnazarov Yorqin Shoniyoz o'g'li Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	Pedagogika
42	Kamolova Dinora Sultonmurod qizi, Avezov Sobit Safarovich Montessori ta'limi orqali bolalar rivojlanishidagi innovatsion yondashuv	Pedagogika
50	Allamurodova Gulhayo Panjimurodovna O'quvchilar bilimini baholashning nazariy asoslari	Pedagogika
54	Istatilloev Sardor Nusratilloevich Inclusive education and social perspectives towards inclusive education	Pedagogika
57	Shamsuddinova Sohibaxon Biloliddin qizi The social risks of extremist propaganda in the information society	Sotsiologiya
61	Hamroyev Temurbek Jamshid o'g'li Migratsion oilalarda o'sayotgan o'smirlarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va psixologik moslashuvi	Psixologiya
68	Shokirov Mubin Rustamovich, Ergasheva Iroda Qosimovna O'zbekiston respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari: shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalar	Huquq
72	Shamsuddinova Sohibaxon Biloliddin qizi The importance of cultural awareness in language teaching among uzbek students	Filologiya
76	Kholmuminova Aziza Zafar kizi Teaching moral values through the application of innovative pedagogical technologies	Pedagogika
79	Ziyodullayeva Shohsanam Ubaydullayevna "O'zbek bolalar adabiyotida adabiy ertaklarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari"	Filologiya
82	Akramqulova Mohira Sherali qizi Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy faollikka yo'naltirish metodikasining evolyutsiyasi va tarbiyaviy samaradorligi tahlili	Pedagogika
85	X. Qilichova, Asadova Marjona Ahmad qizi	Pedagogika

	Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	
90	Ochilova Farida Soliyevna Oliy ta'lim muassasalarida aralash ta'lim modelini joriy etishning pedagogik samaradorligi va innovatsion imkoniyatlari	Pedagogika
94	Ilxamova Diana Ikromovna O'smir yoshdagi o'quvchilarda tolerantlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	Psixologiya
100	Namozov Baxrom, Ibrohimov Anvarjon Nurullayevich 7-sinf o'smirlarida emotsional barqarorlikni rivojlantirishda maktab psixologining roli	Psixologiya
105	Yusupova Rayona Bahromjon qizi Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi	Sotsiologiya
108	Hafizov Diyorbek Shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasi va himoyasi	Huquq
117	Murodov Shomurod Shahobiddinovich Fanlararo loyihalar tushunchasining pedagogik mohiyati va ta'lim jarayonidagi o'rni	Pedagogika
121	Nasrullayeva Sohiba Sharofovna Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik mohiyati va ta'lim jarayonidagi metodologik ahamiyati	Pedagogika
125	Nazarova Gulira'no Xamidovna Neyro-lingvistik dasturlash (nlp) texnologiyalarining pedagogik mohiyati va yozma ishlarni baholashdagi o'rni	Pedagogika
129	Toshpo'latova Gulniso Rajab qizi, Baxtiyorova Zarnigor Alisher qizi Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirish	Pedagogika
133	Nabiyev Muhridin Baxtiyor o'g'li O'zbekiston ekologik qonunchiligida barqaror rivojlanish tamoyillarining huquqiy ifodasi	Huquq
137	Xamroyev Mansur Choriyevich Migrantlar bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik muammolari	Psixologiya
143	Mamatqulov Akbarjon Raim o'g'li Raqamli texnologiyalar sharoitida texnika talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	Pedagogika
148	Mamatrayimov Jumanazar Mamatmurod o'g'li The impact of peers and social media on adolescents' psyche in relation to destructive religious ideas	Psixologiya
153	Toshmamatova Umida O'ktam qizi Semantic and etymological features of ethnically motivated place names in uzbek and english	Filologiya
156	Saydullayev Shohruh Shuhrat o'g'li Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida davlat boshqaruvi va huquqiy tartibot	Huquq
161	Ergashev Behzod Asat o'g'li Tomas Gobbs va Jon Lokk falsafasida tabiiy huquqlar konsepsiyasining qiyosiy-huquqiy tahlili	Huquq
167	Qudratillayev Jamshidjon Bahodir o'g'li Sh. L. Monteskye qarashlarida hokimiyatlar bo'linishi g'oyalarining falsifiy ahamiyati	Huquq

170	Yusupova Rayona The role of motivation in second language acquisition	Pedagogika
174	Турумбетова Замира Юсупбаевна Роль эмоционального интеллекта в профилактике и коррекции нарушений поведения у студентов	Pedagogika
181	Davlatova Nozanin Sirojiddin qizi Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi va ta'lim jarayoni	Psixologiya
184	Ibragimova Muhlisa How motivation affects success in learning english	Pedagogika
192	Adizova Dilfuza Samadovna O.M.Fayzullayev Filologiya fanlarini o'qitishda xorijiy tajribalar	Filologiya
197	Tursunov Mirzo Mahmudovich To'xtayev Komil Dilshodovich General classification of complex lexical units in english and uzbek phraseology	Filologiya
201	Mahliyo Okiljonovna Orzikulova Gamification as a motivational tool in foreign language learning for medical students	Filologiya
204	Xallokova Xurshida Shokirovna Frazheologiya tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri sifatida	Filologiya

Jurnal Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-aprel kuni № 720096-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Fan istiqbollari MCHJ

Tahririyat manzili: Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy

Elektron manzili: olimlar_nigohi.uz

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy

Elektron manzili: olimlar_nigohi.uz

https://t.me/olimlar_nigohi_ilmiy_jurnali

Telegram raqami: +998 (93) 689 80 90

Olimlar nigohi // ilmiy ommabop jurnali.

Buxoro-2026. № 3-son.